

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MELIYEVA SHOHIDA MAKSUDOVNA

**MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF
BOLALARDA NUTQNI
RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA DIDAKTIK
O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI**

MAGISTRLIK DESSERTATSIYASI

5A111901 - Oligofrenopedagogika

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots.D.Nurkeldiyeva

TOSHKENT – 2014

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I bob. Korreksion pedagogika va psixologiyada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish muammolari.....	16
1. Nutq faoliyati haqidagi zamonaviy tasavvurlar.....	16
2. Nutqning ontogenezda rivojlanishi.....	20
3. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari.....	24
4. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o‘yin faoliyatining xususiyatlari.....	36
I bob bo‘yicha xulosa.....	45
II bob. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasasida aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarni qo‘llashning samaradorlik darajasini tadqiq etish	47
1. Eksperimental tadqiqotni tashkil etish tamoillari, vazifalari va metodikasi va uni tashkil etish.....	47
2. Eksperimental tadqiqotning ta’kidlovchi bosqichining natijalari.....	55
II bob bo‘yicha xulosa.....	61
III bob. Maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhlardagi aqli zaif bolalarda o‘yin faoliyatida nutqiy muloqotning faolligini oshirish.....	62
1. Didaktik o‘yin jarayonida aqli zaif bolalarning nutqiy muloqotini tashkil qilish.....	62
2. Aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarni qo‘llashga qaratilgan ta’limiy eksperiment mazmuni.....	73
3. Ta’limiy eksperiment natijalari.....	91
4. Aqli zaif bolalar nutqini didaktik o‘yinlar asosida rivojlantirish texnologiyalari (metodik tavsiyalar).....	96
III bob bo‘yicha xulosa.....	106
Xulosa.....	108
Adabiyotlar ro‘yxati.....	111

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” talablari asosida yoshlarni komil inson, barkamol shaxs qilib tayyorlash, uzluksiz ta’lim tizimining hamma bosqichlarida yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida hamda 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida mamlakatni rivojlantirish, modernizatsiya qilishning to‘g‘ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish borasida 2009 yilda kuch va imkoniyatlarni safarbar qilinishi tufayli global inqirozning oqibatlarini va tahlidlariga nafaqat bardosh berishga, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur‘atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta’minlashga muvaffaq bo‘lganligi qayd etildi.

Uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiya va ta’lim-tarbiya samaradorligi yangi sifat darajasiga ko‘tarish masalasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risida gap ketar ekan, avvalambor, uning huquqiy-me‘yoriy ba’zasini ta’minlovchi rasmiy hujjatlarga murojaat qilish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 25 oktyabrdagi 225-sonli “Maktabgacha ta’lim sohasidagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan maktabgacha ta’lim muassasalari mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi Hay’at majlisining 2009 yil 28 sentyabrdagi 10/4-HQ – sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talabalari” va “Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi”da ta’lim jarayoni va uning samarasiga doir me‘yor va mezonlari ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan olib boriladigan davlat siyosati “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalanishi to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 1991 yili belgilandi. Bu qonun aholining mazkur guruhiga boshqa fuqarolar bilan teng asosda to‘laqonli hayot kechirish, jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o‘zining fuqarolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha tadbirlar tizimini ko‘zda tutadi. Mazkur qonun Respublikamiz mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin tez vaqt ichida qabul qilindi va umuman olganda davlat bilan aholi sog‘ligini himoya qilish, nogironlikni oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singishib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishga safarbar qilingan ijtimoiy jamiyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2010 yil 18 iyun 117-son Qarorining 2-bandiga muvofiq “maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining sonini, ularning ixtisoslashuvi va joylashuvini qayta ko‘rib chiqqan holda, shuningdek, jismoniy yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar bo‘lgan bolalar kontingentidan kelib chiqib maqbullashtirish” ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari va vositalarini ham qayta ko‘rib chiqishini va takomillashtirishni talab qiladi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga quyiladigan davlat talablari” bola shaxsi rivojlanishining to‘rtta turi asos qilib olingan: jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq hamda o‘qish va yozishga tayyorlashdan iborat bo‘lib, uyg‘unlikda bola rivojlanishining yaxlitligini tashkil etadi.

2014 yilni “Sog‘lom bola yili” deya nomlanishi va shu munosabat bilan davlatimiz qabul qilgan Dastur bolalar tarbiyasi borasidagi ishlarni yanada yangi bosqichga ko‘tarmoqda.

Prezidentimiz bu masalaga qaratilgan ma'ruzasida bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr maktabgacha tarbiya davri ekanligi alohida qayd etildi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq navqiron avlodni jismonan sog'lom, ma'nan etuk, intellektual salohiyatli shaxslar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilayotir. Prezidentimiz bu masalaga qaratilgan ma'ruzasida bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr maktabgacha tarbiya davri ekanligi alohida qayd etildi. Prezidentimizning aytishicha: "Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona – sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizga ma'lum. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda"¹.

Bu harakatlar jamiyatimizning teng huquqli a'zosi bo'lgan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ham tegishlidir. Bu toifadagi bolalarni maktabgacha yoshidanoq sog'lig'ini yaxshilash, jismonan rivojlantirish, ta'limdagi imkoniyatlarini kengaytirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunda albatta, maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri – bu bola rivojlanishining eng samarali va jadal jarayonidir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlanishi, o'rganilishi va ular bilan zarur hollarda psixologik-pedagogik korreksiya ishlarini olib borilishi mumkin qadar ertaroq amalga oshirilsa, mazkur pedagogik-korreksion ish samaradorligini yanada amalga oshiradi. Bu organik yetishmovchilikka ega bolalar o'z sog'lom tengdoshlariga qaraganda, aqliy faoliyatini yanada faolroq tarzda rivojlantirishga muhtoj ekanliklari bilan ham asoslanadi. Bolaning rivojlanishida nutq eng

¹Prezidentimiz Islom Karimovning Konstitutsiya qabul qilinganining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'rosimdagi ma'ruzasi 06.12.2013y.

muhim ahamiyatga ega. Nutqning rivojlanishi bilan shaxsning, shuningdek barcha psixik jarayonlarining shakllanishi chambarchas bog‘liq.

Yusuf Xos Hojib, Imom al-Buxoriy, Abu Nosir Farobiy, At-Termiziy, Alisher Navoiy kabi buyuk daholar tomonidan yaratilgan asarlarda nutq va uning inson faoliyatidagi ahamiyati yorqin misollarda o‘z ifodasini topgan.

Yusuf Xos Hojib odob-ahloq, ta’lim-tarbiya hamda ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini mujassamlashtirgan qomusiy asari “Qutadg‘u bilig”da bilim, zakovot sohibi bo‘lishning asosiy kalitini til deb biladi². Allomaning fikricha, til tufayli kishi o‘z ilmi, aql-idroki, zakovotiga jilo beradi, fikrini bayon etadi. Til, so‘z kishining qadr-qimmatini oshiradi, ulug‘likka eltadi. Ammo, so‘zni o‘ylab, bilib, kezi kelgandagina so‘zlash kerak. Faqat shundagina til va so‘zning nafi juda katta bo‘ladi. O‘ylamay so‘zlansa, uning ta’sirchanligi pasayadi, natijada kishi qadrini tushirib yuboradi. Shuning uchun oz, lekin soz so‘zlash orqali mantiqiy samaraga erishiladi.

Abu Nasr Farobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”³.

Til va nutq o‘zaro dialektik bog‘liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hodisalar bo‘lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir. Tilni nutqdan, nutqni esa fikrdan ajratib bo‘lmaydi. Inson qaysi tilda so‘zlamasin, o‘z fikrini so‘z bilan ifodalaydi, chunki ular o‘zaro jins uyg‘unlikka ega. A. Navoiy til kishini hayvondan ajratuvchi yagona belgi deb qaraydi.

²Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Tekst va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. – Toshkent: Fan, 1971;

Qayumov K. Ilk badiiy doston. – Toshkent: Fan, 1986. – 37b.³ “**Fozil odamlar shahri**” Abu Nasr Farobiy – Toshkent / ‘O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi’ Davlat ilmiy nashriyoti - 2004y. – 426.

“Ma’nosiz soʻz-soʻz emas, balki qandaydir tovushlar yigʻindisidir. Umuman, bunday soʻz tilda yoʻqdir. Faqat hayvonlarning ma’nosiz boʻkirishidan, qushlarning ma’nosiz chugʻurlashidan inson tili (nutqi) oʻzining ma’no ajratish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi” – deb ta’kidlaydi. U oʻzining “Mahbul ul-qulub” asarida shunday deydi: “Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir boʻlsa, tilning ofatidur...”⁴ ya’ni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u oʻrinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir.

Abdulla Avloniy ham “Bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilishda fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas vazifa” deb ta’rif berar ekan, soʻzlashuv odobiga alohida diqqat qaratadi. Adib bolalarni har bir soʻzni ma’nosiga koʻra talaffuz qilishni avval oʻylashni, soʻng uni oʻz me’yorida gapirishni, nutqning doimo goʻzal va ma’noli boʻlishiga erishish yoʻllarini koʻrsatib, oʻzgalar soʻzini diqqat bilan tinglash uquvini tarkib toptirish zaruratini qat’iy ta’kidlaydi⁵.

Koʻrinadiki til va nutq inson ma’naviy kamolotining muhim omillaridan sanaladi. Har qanday madaniy jamiyatning burchi va vazifasi nutq kamchiliklariga ega boʻlgan jamiyat aʼzolariga oʻz vaqtida malakali yordam koʻrsatishdan iborat. Bolalar nutqini maktabgacha yoshidanoq toʻgʻri shakllantirish ustida ishlash hayot talabidir.

Nutq buzilishlari deganda gapiruvchi shaxsning ma’lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati normal holda ishlayotgan psixofiziologik mexanizmlarining zaiflashuviga bogʻliq holda til normalaridan chetlashuvi tushuniladi. Kommunikativ nazariya nuqtai nazaridan qaraganda esa, nutq buzilishlari bu bilish jarayoni, aloqa vositalarining buzilishidir. Shuning uchun har qanday madaniy jamiyatning burchi va vazifasi nutq kamchiliklariga ega boʻlgan jamiyat aʼzolariga oʻz vaqtida malakali yordam koʻrsatishdan iborat.

⁴Alisher Navoiy. Mahbul-ul qulub. 14-tom, -T.: 1998. 94-bet.

⁵Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” Ikki tomlik, «Ma’naviyat», T., 1998 y. 1-T.- 43-bet.⁴

Aqli zaif bolalarda me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga qaraganda nutqi kechikib shakllanadi va bir qator kamchiliklarga ega bo'ladi. So'zning tovushining tahlili va sintezi buzilishidagi talaffuz kamchiliklari, lug'atining qashshoqligi, grammatik qurilishining shakllanmaganligi aqli zaif bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xatto ayrim mustaqil jumlar paydo bo'lgan taqdirda ham bolalarning aloqasi qator fonetik va grammatik buzilishlar bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, og'zaki nutq buzilganligi tufayli shaxslararo munosabatga kirishish kechikadi. Aqli zaif bolalarda nutqning buzilish xususiyati yuqori nerv faoliyati va uning psixik shakllanishining o'ziga xosligi bilan aniqlanadi..

S.Ya.Rubinshteyn fikri bo'yicha, aqli zaif bolalarda nutqi to'liq rivojlanmaganini asosiy sabablari – barcha analizatoridagi yangi differensial aloqalarning miyada sekin ishlab chiqilishi va funksional qatlamlarini zaifligi hisoblanadi⁶.

Aqli zaif bolalarning nutqini rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etgan olimlar ularda patologik intertlik, atrofga bo'lga qiziqishning juda zaifligini ham ko'rsatadilar. Shu sababli bu toifaga kiruvchi bolalarning ta'limini tashkil etishda ularning bilish faoliyatini faollashtirishga, nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'sir usullari qo'llanilishi zarur. Bunda didaktik o'yinlar katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy, maxsus adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini o'rganishda uni rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish zarurligini guvohi bo'ldik. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Chunki maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashda, maktab ta'limiga tayyorlashda bu davrda bolalarning asosiy faoliyat bo'lgan o'yinning ahamiyati yanada muhim bo'lib qoladi.

O'yin - maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lib, ularning hayotida muhim ahamiyatga ega. Bu o'yinning bolani psixik rivojlanishiga ko'p qirrali ta'siri bilan bog'liq. O'yinda, ayniqsa, didaktik

⁶С.Я.Рубинштейн // Дефектология.- 1990.- № 3.- С. 95.

o'yin orqali bolalar yangi bilimlar, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. O'yin orqali inson muloqot qoidalarini egallab oladi. U bolada ahloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Me'yorida rivojlanayotgan bola haqida gapirganda bularning barchasi tabiiy, bolalikka xos bo'lib va hech qanday tarbiyaviy ta'sirlarni talab qilmaydi.

O'yin barcha psixik jarayonlarni va shaxsning shakllanishiga bolaning rivojlanishi uchun alohida sharoit yaratilganda va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan korreksion-tarbiyaviy ishlar jarayoniga kiritilganda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha pedagogika tamoyillariga asosan tashkil etilgan didaktik o'yin ilk yoshdanoq rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni, ayniqsa nutq nuqsonlarini korreksiyalash va maktabga tayyorlash imkonini yaratadi.

O'yin, didaktik o'yinlar to'g'ri tashkil etilganda har bir bolani ilk yoshdanoq aqliy, ahloqiy, jismoniy va estetik jihatdan rivojlanishi vazifalarini hal etadi. O'yinda dastlabki rivojlanish bosqichlaridayoq bolaning shaxsi shakllanadi, o'quv faoliyatida, mehnatda, odamlar bilan muloqotida kerak bo'ladigan sifatlar rivojlanadi.

To'g'ri shakllantirilgan o'yin intellektida buzilishlari bo'lgan bolalarning rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi, erta ijtimoiylashuvi va keyinchalik jamiyatga integratsiyasi uchun muqobil imkoniyat yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida aqli zaif bolalarning nutqini shakllantirish va o'stirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda didaktik o'yinlar orqali aqli zaif bolalar nutqining eng asosiy funksiyasi, ya'ni faoliyatni regulyatsiyalovchi funksiyasi, muloqot (kommunikativ, bilish) shakllanadi va rivojlanadi. Aqli zaif bolalarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlar ta'limiy (kattalar amalga oshiruvchi), korreksiyalovchi (bolaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi) xarakterga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishning barcha vazifalarini yechishda qo'llash mumkin. Ular lug'atni aniqlashtiradi va kengaytiradi, so'zlarni hosil qilish va o'zgartirishda, bog'langan nutqni shakllantirishda qo'llash mumkin. Didaktik o'yin grammatik malakalarni

mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. O'tkazilishining hissiyligi, bolalarning qiziqishi orqali o'zlashtirilgan malakalarni mustahkamlash uchun ko'p marotaba takrorlashga imkon yaratadi. Yuqorida bayon etilganlarning barchasi maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda didaktik o'yinlarni qo'llashga qaratilgan o'zbek tilida tadqiqotlar olib borilmaganligini ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar hamda didaktik o'yinlar qatnashgan samarador mashg'ulot ishlanmalarni yaratish hozirgi zamon talabi bo'lganligi uchun mavzuimizni dolzarb deb hisoblaymiz.

Ana shularga bog'liq ravishda biz tadqiqotimiz mavzusini "Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyalari" deb belgiladik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqining rivojlanishi yuzasidan bir qancha olimlar samarali ilmiy izlanishlar olib borgan (L.S.Vigotskiy, A.N.Gvozdev, D.B.Elkonin, A.P.Sokolov, N.X.Shvachkin, A.Vallon va boshqalar).

Taniqli olimlar S.Ya.Rubinshteyn, G.A.Kashe, V.G.Petrova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiylar aqli zaif bolalar nutqining me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqidan muayyan darajada orqada qolishini ta'kidladilar.

Respublikamizda intellekti me'yorida maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutqiy kamchiliklar bo'yicha L.R.Mo'minova, X.M.Po'latova, N.R.Raxmonqulova, M.Yu.Ayupova, I.G.Veretennikova va E.A.Babaevalar o'rganganlar.

L.R.Mo'minova (1992) o'z tadqiqot ishlarida maktabgacha bolalarda uchraydigan nutqning to'liq rivojlanmaganligini korrektsiyalash bo'yicha korreksion-pedagogik ish tizimini yaratish, M.Yu.Ayupova (1992) maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kuzatiladigan fonetik-fonematik kamchiliklarni

bartaraf etish tizimini ishlab chiqish, X.M.Po‘latova (1994) nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini faollashtirishning turli jihatlarini tadqiq etganlar.

D.Nurkeldiyeva, V.Raxmanova, S.Aytmetova va M.Xamidovalarning ishlarida aqli zaif bolalarga ta’lim-tarbiya berish mazmuni yoritilgan.

N.D.Sokolova va G.L.Vigotskayalarning ilmiy izlanishlari maktabgacha aqli zaif bolalarning mustaqil o‘yinlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Mualliflar maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning harakati va xulqini uyushtiradigan va o‘yinning zarur sharti bo‘lgan o‘yin vaziyatini yuzaga keltira olmasliklarini eksperimental ravishda asoslab berdilar. N.D.Sokolova o‘yin va nutqning bog‘liqligini ko‘rsata olgan. Bu bog‘liqlik bola nutqini shakllantirishda, lug‘atini boyitishda, shuningdek, o‘yinning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun ham samaralidir.

Pedagog va psixolog olimlar D.N.Uznadze, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, P.YA.Galperin, I.Olloyorov, A.A.Verbitskiy va boshqalar o‘yinga asoslanuvi faoliyatning mohiyati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Shunday qilib, maxsus pedagogikada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan tanishish jarayonida aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish muammosini dolzarbligini aniqladik.

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish xususiyatlarini o‘rganish va didaktik o‘yinlarni qo‘llash orqali nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali, korreksion yo‘llarini tadqiq etishdir.

Tadqiqot ob’ekti: maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish texnologiyalari.

Tadqiqot vazifalari:

- maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini shakllantirish va rivojlantirish muammosini pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarda ishlanganligi darajasini o'rganish;

- muammo bo'yicha mavjud tadqiqotlar asosida ta'kidlovchi va ta'limiy tajriba-sinov ishlari metodikasini ishlab chiqish;

- maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishda tashkil etilgan mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish;

- ta'kidlovchi eksperiment jaryonida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish va maxsus tanlangan didaktik o'yinlar o'rganish yordamida uni rivojlantirish imkoniyatini o'rganish;

- maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda didaktik o'yinlarni qo'llash orqali nutqni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqot metodlari:

Nazariy metodlar: ilmiy manbalarni o'rganish metodlari: umumiy va maxsus pedagogik, psixologik ishlarni o'rganish;

Tashkiliy metodlar: maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlanganlik darajasini o'rganish;

Empirik metodlar: maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishda tashkil etilgan mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil etish, bolalarning faoliyatini o'rganish, umumlashtirish, ta'kidlovchi va ta'limiy eksperiment.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Aqli zaiflik nuqsonining tuzilishida nutqning rivojlanmay qolishi kuzatiladi. Aqli zaif bolalar nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib uni maktabgacha yoshda rivojlantirish samarali bo'ladi agar:

- aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida o‘yin faoliyatidan foydalanishda har bir tarbiyalanuvchilar intellektidagi muammosining mavjud holati va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinsa va shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyiliga rioya qilinsa;
- ushbu toifa bolalar nutqiy va ruhiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda korreksion-rivojlantiruvchi tizimni takomillashtirishga asos bo‘luvchi o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanilsa aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish tizimining samaradorligi ta’minlanadi.

Ishning ilmiy yangiligi:

- tadqiq etilayotgan jarayon, uning tuzilishi, mazmuni ilmiy jihatdan asoslanganligi;
- muammoning muvaffaqiyatli hal etishning shart qilib qo‘yuvchi yo‘llari va shart-sharoitlari ilmiy jihatdan aniqlanganligi;
- aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan ta’sir etish omillari aniqlanganligi;
- aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirishda didaktik o‘yin texnologiyalarining mazmun-mohiyati va texnologiyalarining ishlab chiqilganligi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati – tadqiqotni olib borish davrida mavjud adabiyotlar va olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda “nutq shakllanishi” va “o‘yin faoliyati” tushunchalarining mohiyati ochib berildi; aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik-pedagogik jihatlari yoritildi va asosiy bosqichlari belgilandi hamda ularda nutqni o‘yin faoliyati orqali rivojlantirish imkonini beruvchi ba’zi o‘yinlar mazmuni ishlab chiqildi. Shuningdek, olingan ma’lumotlar bolalarda mavjud bo‘lgan muammolarni erta tabaqalangan ravishda tashhis qilish va bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli korreksion pedagogikada ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati - tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlardan, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan respublikamiz maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari oligofreno-pedagoglari, logopedlari,

tarbiyachilari aqli zaif bolalarning nutqidagi buzilishlarni korrektsiyalashda, nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimini ishlab chiqishda foydalanilishi, nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha dastur, metodik tavsiyanomalar tuzishda, shuningdek defektologiya fakulteti bakalavriat bosqichida “Maktabgacha oligofrenopedagogika”, “Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi” fanlaridan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda foydalanilishi mumkin.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning samarali yo‘llarini ishlab chiqarish dolzarb pedagogik muammo ekanligi;
- Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, mazmuni, mohiyati, texnologiyalari;
- Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning samarasini belgilovchi mezonlar, ilmiy xulosalar, metodik tavsiyalar va ularning samaradorligi.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarini kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida olg‘a surilgan ta’lim haqidagi g‘oyalari, sharq mutaffakirlarining nutq haqidagi fikrlari, bilish nazariyasi, insonning rivojlanishi va shaxsini shakllanishidagi faolligi nazariyasi, L.S.Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar haqidagi fikrlari, rivojlantiruvchi va korrektsiyalovchi ta’lim nazariyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning asosiy bosqichlari: Tadqiqot quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich. Mavzuning dolzarbligi asoslandi. Nutqni ontogenezda rivojlanishi o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga oid tashkiliy masalalar (tajriba maydonlarini belgilash, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etuvchi respondentlar sonini aniqlash, tajriba guruhlarini shakllantirish, guruh defektologlari, logopedlari va tarbiyachilarini jalb etish kabilar) hal qilindi.

Ikkinchi bosqichda maxsus ta'lim-tarbiyaga jalb qilingan bolalar nutqining shakllanishi ta'kidlovchi tadqiqot metodikasi asosida tekshirildi.

Uchinchi bosqich. Umumlashtirish bosqichida ta'limiy tajriba-sinov ishlarining mazmuni ishlab chiqildi, ta'limiy tajriba-sinov ishlari o'tkazildi, natijalari umumlashtirildi va tahlil qilindi, taqdim etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlovchi dalillarga tayangan holda aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishda yanada yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlovchi metodik tavsiyalar, texnologiyalar ishlab chiqildi; yig'ilgan nazariy va amaliy materiallar muayyan tartibga solinib, dissertatsiya rasmiylashtirildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiy ishi kirish, uchta bob, umumiy xulosa, 80 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 6 ta jadvaldan iborat bo'lib, 113 sahifani tashkil etadi.

I bob. KORREKSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

1. Nutq faoliyati haqidagi zamonaviy tasavvurlar

Umumiy va korreksion pedagogikaning muhim masalalaridan biri bu nutqni rivojlantirishdir. Chunki nutq inson hayotida juda katta rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan nutq avvaliga muomala vositasi sifatida, keyinchalik fikrlarni ifodalash va tafakkur quroli sifatida chiqadi, inson xulq-atvori va faoliyatini boshqaradi (L.S.Vigotskiy, 1983; A.V.Zaporojets, 1980; A.R.Luriya, 1956; L.S. Svetkova, 1972 va boshq.). Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining spetsifikasi oliy nerv faoliyati o'ziga xosliklari va ularning psixik rivojlanishi bilan aniqlanadi.

S.Ya.Rubinshteynning fikri bo'yicha, aqli zaif bolalarda nutqi to'liq rivojlanmaganini asosiy sabablari – barcha analizatoridagi yangi differensial aloqaning miyadagi sekin ishlab chiqishi va funktsiya qatlamlarini zaifligi hisoblanadi⁷.

Nutq-eshitish analizator sohasidagi differensiyalovchi shartli aloqalarning sekin rivojlanishi natijasida aqli zaif bola uzoq muddat davomida nutq tovushlarini ajrata olmaydi, atrofdagilar aytayotgan so'zlarni tushunmaydi, nutqni aniq-tiniq eshita olmaydi. Ko'pgina olimlar (M.F.Gnezdilov, R.I.Lalaeva, V.G.Petrova, E.F.Sobotovitch, A.P.Fedchenko, M.F.Feofanov) tadqiqotlariga ko'ra, aqli zaif bolalarda nutqning grammatik tomonlari shakllanmaganligi kuzatiladi, bu agrammatizmlarda, grammatik umumlashtirishlarni talab qiladigan ko'pgina vazifalarni bajarishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi.

So'z yasash va so'z o'zgartirishning morfologik shakllari, gapning sintaksis tarkibi yaxshi shakllanmagan bo'ladi.

Demak, aqli zaif bolalarga ona tilining grammatik me'yorlarini o'rgatish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammoga

⁷Рубинштейн С.Я. Психология умственно отсталого школьника. - М., 1986, - 73с.

A.G.Arushanova, A.N.Gvozdev, S.L.Rubinshteyn, A.M.Shaxnarovich, D.B.Elkoninlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

A.V.Zaxarova, M.I.Popova, N.P.Serebrennikova, F.A.Soxinlarning ishlarida bolalar nutqining grammatik tuzilishi o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi. Me'yorida rivojlanishda bola uch yoshga kelib og'zaki nutqning barcha asosiy grammatik kategoriyalarini o'zlashtiradi. U morfologik vositalardan foydalanib so'zlarni o'zgartiradi, grammatik shakllantirilgan qisqa iboralar bilan gapiradi⁸.

Aqli zaif bolalar nutqini rivojlanishi dastlabki oylardanoq ortda qoladi. Natijada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar predmetlar bilan faoliyatga kirishish, fonematik eshituv, artikulyatsion apparat harakatchanligi va atrof olamdagi voqea-hodisalarga qiziqishi yetarli darajada shakllanmaydi, hissiyotlar to'liq namoyon bo'lmaydi, ularning barchasi nutq rivojishiga salbiy ta'sirini o'tkazadi⁹.

Nutq odamlarning eng muhim va yagona muomala vositasidir. Faqat insongina o'z hissiyotlari haqida so'zlash, fikrlarini bayon etish, qiziqarli axborotni yetkazish, she'r o'qish va h.k. kabi imkoniyatlarga ega. Bunday o'zaro ta'sir natijasida, muloqatdan rohatlanish hissi yuzaga kelganda biz hamfikrlik, hamdardlik, o'zaro tushunish hissini boshdan kechiramiz.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini o'stirish uning keyingi rivojlanishida va maktabda muvafaqqiyatli o'qishida juda muhim. Nutqni yaxshi egallagan bola o'z fikrlarini yaxshi bayon qila oladi, darsliklardagi materialni to'liq tushuntirib, bayon qilib bera oladi.

Nutqi maqsadga muvofiq tarzda rivojlangan bola o'z fikrini «mantiqiylik ketma-ketlikda, asoslangan va o'ziga nisbatan ishonch bilan» xarakterlanadi¹⁰.

Nutq sistemasining turli komponentlarini shakllanishini va rivojlanishini buzilishi - nutqning umumiy rivojlanmaganligi deb ataladi. Nutq kamchiliklarini

⁸ Коломенских Я.Л., Панько Е. А. Детская психология., М.: «Университетское», 1988, - 223с.

⁹ Войлокова Е.Ф. Особенности использования слов-названий сенсорных эталонов дошкольниками с выраженной умственной отсталостью // Теоретические и прикладные проблемы образования лиц с интеллектуальной недостаточностью - СПб: Изд. РГПУ им. А.И. Герцена, 2000.- с.38- 40.

¹⁰ Лисина М.И. Проблема онтогенеза общения. - М.: «Просвещение», 1986. - 143 с.

bartaraf etishning samarali uslublarini ishlab chiqish, shu jumladan bolalarni maktabga tayyorlashda ham zamonaviy logopediyaning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu muammoni hal qilish ustida ko'plab mutaxassislar shug'ullanishgan. N.Jukova, E.M.Filicheva, R.I.Lalaeva, M.M.Alekseeva, G.A.Volkova, A.N.Kornev shular jumlasidandir.

Nutqning umumiy rivojlanmaganligiga ega bo'lgan katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning samaradorligi va sifatini oshirish ularning mavjud og'zaki hamda ikkilamchi tarzda shakllanishi mumkin bo'lgan yozma nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va imkon qadar bartaraf etishni ko'zda tutadi. Ularni korreksiya qilish qancha erta boshlansa, ikkilamchi oqibatlarisiz, pedagogik xatolarsiz aynan nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish natijasi shuncha yuqori bo'ladi. Mana shuning uchun logopedlar bolalar o'quv muassasasiga kelishdan oldin maktabgacha ta'lim muassasalarida yoki yashash joylarida ish olib borishlari zarur. Nutq nuqsonlariga ega bolalarni o'z vaqtida aniqlash, mavjud og'zaki nutq kamchiliklarini to'g'ri tasniflash va unga mos korreksion ta'limni tashkil etish bu bolalarda yozish va o'qish kamchiliklarini paydo bo'lishining oldini olibgina qolmasdan kelgusida dastur materialini o'zlashtirishda ortda qolishga yo'l qo'ymaydi¹¹.

O'yin bilan kechadigan barcha jarayonlar bola tomonidan oson qabul qilinadi, tez va mustahkam o'zlashtiriladi. O'yin jarayonida bolaga turli bilimlarni o'zlashtirish uchun maksimal imkoniyat beriladi. Ko'plab tadqiqotchilar (L.S.Vigotskiy, V.I.Seliverstov, A.I.Sorokina va boshqalar) maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o'yinlardan foydalanishga katta e'tibor berishadi. Intellektual kamchiliklarga ega bolalarda nutqni rivojlantirishda o'yin alohida ahamiyatga ega deb yozgan L.S.Vigotskiy¹².

¹¹ Баряева Л.Б., Логинова Е.Т., Лопатина Л.В. Подготовка к обучению грамоте детей с умеренной и тяжелой умственной отсталостью. Пособие для учителя. - СПб.: Изд-во «Союз», 2004. 56-б.

¹² Лев Семенович Выготский. Мышление и речь. Изд. 5, испр. -Издательство "Лабиринт", М., 1999. -352 с.

G.A.Volkova, V.I.Seliverstov, S.N.Shaxovskayalarning tadqiqotlari bolalar bilan korreksion ishda o'yinlardan foydalanish zarurligini isbotlaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida o'yinlardan keng foydalanishga qaramasdan, ularning barcha imkoniyatlari tadqiq qilinmagan va to'laligicha amal qilinmaydi, ayniqsa nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan ishlashda.

Nutq – ijtimoiy inson turmushining ajralmas bo'lagi, insoniy jamiyatning mavjudlik vaziyatlari. Inson o'z faoliyatining 55% vaqtini nutq faoliyatining asosiy turlari – gapirishga, eshitishga, o'qishga, yozishga bag'ishlaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida nutqni rivojlantirish yetakchi o'rin egallaydi. Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari – nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, til boyligini, aktivligini oshirish, nutqning grammatik tomonini rivojlantirish, aloqa nutqini o'qitish barcha maktabgacha yoshdagi masofada hal qilinadi. Aloqa nutqini rivojlantirish – maktabgacha yoshdagi bola tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolani aloqa nutqini shakllantirish – tilning grammatik tuzilishi, lug'at tarkibi, tovush tomonini o'zlashtirishi bilan chambarchas bog'liqligida kelib chiqadi.

2. Nutqning ontogenezda rivojlanishi

Barcha ota-onalar katta intizorlik bilan farzandining birinchi soʻzlarini kutadi. Tushunarliki, bu nutqning paydo boʻlishi bolaning yaxshi ruhiy rivojlanishining muhim koʻrsatkichlaridan biridir. Mana birinchi soʻz aytildi, keyinchi? Bola 2-4, 5-6 yoshlarida nima qila olishi kerak? Koʻpgina ota-onalarni xavotirlantiruvchi bu savolga biz qisqa javob berishga harakat qilamiz.

1,5-2 yoshlarida bola 50-70 tacha soʻz gapira oladi, bular asosan otlar: oʻyinchoqlar nomi va yaqin oʻrab turgan buyumlar nomi, ismlar; «shu yer» va «hozir» ravishlari; «katta» va «kichkina» sifatlari, ora-orada – feʼllar, shaxsiy joy nomlari.

2 yoshlarida bolalar [a], [y], [o], [i] kabi unli tovushlarni bemalol ayta olishadi. [e], [e] tovushlarini [ye] tovushi bilan almashtirishlari mumkin. Bolalar baʼzi bir undoshlarni qulayroq, osonroq boʻlgan boshqasiga almashtirishadi, buzib aytishadi yoki umuman talaffuz qilishmaydi. Ular nutqida [t], [d], [s], [z] kabi yumshoq undoshlar koʻp uchraydi. Bu yoshda soʻzlarni osonlashtirilgan talaffuz qilish uchrashi mumkin, masalan, qisqartirish yoki boʻgʻinni nomlash, koʻpincha urgʻuli yoki birinchi boʻgʻinni: «shoko» shokolad soʻzi oʻrniga. 2 yoshlarida bolaning nutqida oddiy gaplar paydo boʻlishi kerak: «Oyi, non ber. Oyimga boraman. Sok ichaman!».

Bola 3 yoshlarida juda koʻp savol beradi, oʻzi savollarga bajonidil javob beradi, kichkina qoʻshiqlar, sheʼrlar yodlaydi. Bu yoshda odatda bola unli va undoshlarni toʻgʻri oʻqiydi. ([b], [p], [f], [m], [t], [n], [k], [g], [v])

Bolalar 3 yoshida yoyiq gaplarni gapirishadi.

Bola 4 yoshida jarangdor tovushlarni toʻgʻri talaffuz etadi: [s], [z], nutqida murakkablashgan gaplarni ishlatadi: «Men boʻyoqda rasm chizishni yoqtiraman. Chunki ular har xil rangda boʻladi», aylanganda kimni koʻrgani, unga nimalar oʻqib berishganini gapirib beradi.

Bola 5 yoshida vishillaydigan tovushlarni toʻgʻri talaffuz qiladi : [sh], [j], nutqida deyarli grammatik xatolarga yoʻl qoʻymaydi. Rasmda yoki rasmlarda nima aks ettirilganini hikoya qilib berishi mumkin. Gaplari koʻpayadi, gaplarida

aniq bir bayon mantig'i anglanadi. Tez-tez hikoyalarida xayotda mavjud bo'lmagan epizodlarni to'qib chiqarish hohishi, fantaziya elementlari paydo bo'ladi.

6 yoshda o'rtacha rivojlangan bola ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qiladi, amalda nutqda grammatik xatolarga yo'l qo'ymaydi. Bu yoshning yorqin xarakteristikalaridan biri har xil turdagi matnlarni tuzishni faol o'zlashtirish hisoblanadi. Bola monolog shaklini o'zlashtiradi. Muloqotning ko'rinish holatidan qat'iy nazar nutqning vazifasi paydo bo'ladi. Grammatik tizimning shakllanishi nutqning rivoji bilan bog'liq bo'ladi.

A.A.Leontev¹³ ta'rifi bo'yicha ontogenezda nutqiy faoliyatni shakllantirish jarayoni va ona tilini tizimli o'zlashtirish bir qator ketma-ket davrlarni yoki bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorlov davri (tug'ilgan vaqtdan bir yoshgacha)
2. Maktabgacha davrdan oldingi (1 yoshdan 3 yoshgacha)
3. Maktabgacha davr (3 yoshdan 7 yoshgacha)
4. Maktab davri (7 yoshdan 17 yoshgacha)

Tayyorlov davri uchta asosiy bosqichga bo'linadi:

1. G'ing'illash (1,5 oylikdan boshlab) – xarakteristikaga ko'ra unli tovushlarga o'xshash ayrim tovushlarni aytish.

2. Bidillash (6-7 oylikdan 10 oylikkacha) – tovushlarni qo'shish bo'g'inlar ketma-ketligi ko'rinishida talaffuz qilinadi va odamlarga tegishli bo'ladi. (da-da, bu-vi) 5 oylikdan bola tovushlarni eshitadi, lablar harakatini ko'radi va ularga taqlid qilishga urinadi.

3. «Modullashgan bidillash» (6-7 oylikdan) – buyumlar, odamlar, harakatlar bilan bog'liq bo'lgan turli tovushlar birikmasi (nan-na, ash-sha, ma) 10-11 oylikdan avvalo, dastlabki so'zlarga reaksiya (munosabat) paydo bo'ladi, 1-yoshda esa dastlabki so'zlarni aytadi. Bola hayotining birinchi yilidagi faoliyatining asosiy shakli kattalar bilan emotsional-ijobiy muloqot hisoblanadi. Bu esa bola nutqiy muloqotiga zamin shakllantirishning asosi hisoblanadi.

¹³ “Язык, речь, речевая деятельность”. - ИЗДАТЕЛЬСТВО «НАУКА» / МОСКВА, 2007г. – 946.

Maktabgacha davrdan oldingi davr (bir yoshdan uch yoshgacha) – lug‘at zahirasi kengayishi bilan, atrofdagilar nutqiga bola e‘tiborining kuchayishi bilan harakterlanadi.

Ilk so‘zlar umumiy ma’noli harakterga ega, ularning mazmuni holatga bog‘liq, nutq esa imo-ishoralar orqali boshqariladi. 2 yoshlarida bola ko‘plikdagi otlarni farqlaydi va qo‘llay boshlaydi. 3 yoshlarida bolaning lug‘at zahirasi 300-400 so‘zni tashkil qiladi.

So‘zlarning ma’nolari yanada aniqlashadi. Nutqning grammatik tizimi shakllana boshlaydi – so‘zlar uyg‘unligisiz tuzilgan birinchi gaplar paydo bo‘ladi (Oyi, ber nanna)¹⁴.

L.S.Vigotskiy ontogenez sharoitida so‘zlar mazmunining shakllanishini tahlil qila turib shunday yozgan: «Nutq va so‘zlar ma’nolari tabiiy yo‘l bilan shakllangan va uning tarixi, so‘zlar ma’nolarining qanday taraqqiy etganligi ma’lum bosqichgacha yoritishga yordam berishi, imo-ishoralar shakllanishi qanday sodir bo‘lishi, bolada qanday qilib ilk imo-ishora paydo bo‘lishi, qanday shartli refleks asosida belgilash mexanizmi qurshab olinishi paydo bo‘lishidadir»¹⁵.

Faoliyatning yetakchi shakli, bolaning rag‘batlantiriluvchi nutqiy rivoji, kattalar bilan buyum – ta’sirli muloqotga ega bo‘ladi, natijada bola buyumlarning asosiy vazifasini, ijtimoiy tarbiya tajribasini o‘zlashtiradi, nutqiy lug‘atini boyitadi, muloqot uchun nutqdan foydalanadi.

Maktabgacha davr (3 yoshdan 7 yoshgacha) – bolalarning yanada shiddatli nutqiy rivojlanishi. Asosiy faoliyat shaklini o‘yin tashkil qiladi. Bu jarayonda bolaning shiddatli nutqiy rivoji sodir bo‘ladi. O‘z talaffuzini eshitib nazorat qilish tajribasi rivojlanadi, fonematik qabul qilish shakllanadi. Bola 4 yoshlarida keng tarqalgan oddiy va murakkab gaplarni qo‘llaydi, har xil tovushlarni farqlay oladi, ya’ni bolada fonematik qabul qilish shakllangan bo‘lishi kerak.

¹⁴ Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - ИЗДАТЕЛЬСТВО «НАУКА» / МОСКВА, 2007г. - 214 с.

¹⁵ Выготский Л.С. Мышление и речь. Собр. соч. в 6-ти т. - М.: 1983 - 1984. - т.3,4.

Bu vaqtga kelib tovushlarning to'g'ri talaffuzi shakllanishi tugaydi va bola mutlaqo toza gapiradi. 5 yoshida bolalar gaplarning murakkab qo'shma va murakkab ergashgan tizimdan foydalanadi, ularning nutqi qisqa hikoyani eslatadi. 6 yoshda lug'at zahirasi 4000 so'zgacha ko'payadi, lekin ko'pincha so'zlar xato qo'llaniladi. Bola 5-6 yoshdan monologli nutqni o'zlashtirishni boshlaydi. Ya'ni bu vaqtga kelib nutqning fonematik rivojlanishi jarayoni to'xtaydi va bolalar asosan ona tilining grammatik, sintaktik va morfologik tuzilishini o'zlashtiradi. 7 yoshga kelib bola nutqini muloqotning to'liq vositasi sifatida egallaydi (o'zlashtiradi).

Maktab davri (7 yoshdan 17 yoshgacha). Bolalar aqlan erkin so'zlashuvlarning rasmiy grammatik qoidalarini o'zlashtiradilar, tovushlar tahlili va sintezini to'liq egallaydi. Nutqning yangi turi – yozuv turi paydo bo'ladi. Yozma nutq og'zaki nutq ba'zasida shakllanadi va nutq rivojining yuqoriroq bosqichini o'zida namoyon qiladi. Yozma nutq jarayonida talaffuz qilinadigan, eshitiladigan so'z va ko'rinadigan so'z o'rtasidagi yangi aloqa o'rnatiladi.

O'quv faoliyati yetakchi faoliyat shakli hisoblanib, yozma nutqning batamom hosil bo'lishi va og'zaki nutq rivojlanishining asosini tashkil qiladi.

3. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqning rivojlantirish xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar to'g'risida so'z yuritishdan oldin, me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqining rivojlanish jarayonlarini eslab olaylik. Me'yorida rivojlanayotgan bolada nutq rivojlanishi erta boshlanadi. Guvranish jarayonida fonematik eshitish shakllanib boradi, artikulyatsion apparat rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotda passiv lug'at yig'ilib boradi. Bir yoshga yaqin odatda bola so'zlarni ayta boshlaydi, ikki yoshga kelib esa iboralarni ishlatadi.

Aqli zaif bola hayotining dastlabki oylaridanoq rivojlanishdan ortda qola boshlaydi. Keyinchalik bu tutilish yanada kuchayadi. Natijada maktab yoshigacha davrga kelib unda atrofga qiziqish uyg'onmagan, fonematik eshitish shakllanmagan, artikulyatsion apparat yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, xislar yetarlicha namoyon bo'lmaydi, bular nutq rivojiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ko'pgina aqli zaif bolalar nafaqat maktab yoshigacha davrga kelib, balki 4-5 yoshda ham gapirmaydilar. Bolalar bir-birlari bilan muloqotga kirishishlari uchun shunday sharoit yaratish kerakki, muloqot zaruriyat bo'lsin. Muloqot deganda o'rganilgan iboralar bilan almashinishni tushunish kerak emas. Masalan, o'yin mazmuni bolalarga hali to'liq tushunarli bo'lmaganida ularda muloqotga kirishish istagi tug'ilmaydi. Odatda bunday hollarda bolalar tarbiyachi ko'rsatmalariga asosan harakatlanadilar, shu o'yin uchun maxsus yodlagan iboralarini gapiradilar, muloqotni imitatsiya qiladilar (o'xshatadilar). Bolalar muloqotga kirishishlari zarur bo'lgan didaktik vaziyatlar avvaliga juda sodda bo'lishi kerak. Muloqot ham albatta faqat so'z orqali bo'lishi shart emas, ya'ni uni birgalikda bajariladigan harakatlar, qo'l harakatlari (jest) orqali yaratish mumkin. Biroq, bunda pedagog bolalarga kerakli so'z va iboralarni aytib turishi, bolalarda paydo bo'lgan muloqot ehtiyojidan maksimal ravishda foydalanishi kerak. Asta-sekin bolalar oldida turgan vazifalar murakkablashtiriladi, shu bilan birga bolalar muloqot jarayonida foydalanishi

kerak bo'lgan nutq materiali ham murakkablashadi. Endi so'z orqali muloqot qilishni qo'l harakatlari orqali muloqotga almashtirib bo'lmay qoladi¹⁶.

Berilgan muammoga nazariy yondashuv maktab yoshigacha bolalarning nutq rivoji qonuniyatlariga asoslanadi, ular L.S.Vigotskiy, A.A.Leonteva, F.A.Soxina, A. M. Shaxnarovich, D. B. Elkonin ishlarida shakllantirilgan.

I.V Karlin va M.Strazullaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda birinchi so'zlar 2,5 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda paydo bo'lar ekan (bolalarda birinchi so'zlarning paydo bo'lish me'yori 10 oydan boshlanadi).

A.A.Kataeva (1998) esa, intellekti buzilgan bolalarning ko'pchiligida birinchi so'zlar ikki yoshdan keyin paydo bo'ladi. Odatda, uch yoshgacha iboralar paydo bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Muhimi shundaki, intellekti buzilgan bolada, kichik yoshdagi nutq muloqot vositasi ham bo'la olmaydi. Shuningdek, nutq bolaning harakatlarini boshqarish vazifasini ham bajara olmaydi.

A.A.Kataeva va E.A.Strebeleva¹⁷ ta'kidlashicha, intellekti buzilgan bolalarda kichik yoshdan nutqining rivojlanishi uchun zarur holatlar etishmaydi; predmetlar bilan harakatlar, kattalar bilan emotsional muloqot, artikulyatsion apparatning va fonematik eshitishning tayyorligi. Natijada, o'rganilayotgan kategoriyadagi bolalar muloqoti uchun holat normadagi bolalarniki bilan bir xil bo'lganiga qaramay, bu holatning mazmuni u bolalar uchun boshqacha tuyuladi; ular uchun o'zlarining xususiy va kattalar bilan birgalikdagi harakatlari kamroq bo'lganidan, taqlid umuman shakllanmagan bo'ladi, shuning uchun kattalarning gaplari havoda "osilib" qolaveradi, normal rivojlanishdagi nutqning tayanchi kabi tajriba bilan qo'shila olmaydi. Bolalar ko'pgina predmetlarga e'tibor bermaydilar, demakki, ularning nomlarini ham eslab qolmaydilar. Biroq aksincha jarayon ham aks etishi mumkin; ijtimoiy muhit taqozo etgani uchun

¹⁶ Матасов Ю.Т. Динамические особенности мышления детей с умственной отсталостью, с задержкой психического развития и с нормальным психическим развитием // Обучение и воспитание умственно отсталого ребенка- М., изд. ЛГПИ, 1981.- с.76- 89

¹⁷ Катаева А.А., Стребелева Е.А. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников.- М.: « Бук-Мастер», 1993.- 130с

ham, u yoki bu darajada muloqotga muhtojlik paydo bo'ladi. Bundan tashqari, intellekti sust bolani tarbiyalay turib, kattalar yosh normalariga (kun tartibiga, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga, nutqqa) tayanadilar. Birinchi gapda ular e'tiborni, nima qilib bo'lmasin, nutqning orqada qolmasligiga, o'z kuchiga va imkoniyatiga tayanib, uning rivojlantirishga qaratadilar. Bolalar ota-onalarining so'zlarini va iboralarini qaytaradilar. Bularning orqasida hech qanday tasavvur bo'lmasa-da, ularning tushunarsiz hikoya va ertaklarini tinglaydilar. Ba'zan ular o'zlariga aniq ma'noni bermaydigan so'zlar, hattoki iboralarni ham eslab qolishlari mumkin. Bolalarning bir qismi, biror aniq va odatdagi holatda, tez-tez qaytariladigan vazifalarni tushuna boshlaydilar. Masalan, bolani vannaxonaga olib kirib, unga "qo'llaringni yuv" - deyilsa, bola iltimosni bajaradi. Agar xuddi shu gapni unga oshxonada aytilsa, bola undan nimani so'rayotganlarini tushunmaydi.

Biz A.A.Kataeva va E.A.Strebelevlar fikrlaridan quyidagi ayrim xulosalarni chiqarib aytishimiz mumkin:

- intellekti buzilgan bolalarda predmetlar bilan ta'sirlashuvi kichik yoshda, asosan monipulyatsiya ko'rinishida, endigina boshlanadi. Ularning bir qismida predmetlar bilan standart ta'sirlashuvlar (faqat o'z-o'ziga xizmat qilishda) yoki shularni o'zlashtirishga intilishlar yuzaga keladi. Ularning kichik yoshida predmetli faoliyat bo'lmaydi.

- nutq va muloqotning rivojlanishi ham kechikadi. Bolalarning ko'pchiligida faol nutq paydo bo'lmaydi. Ularda passiv nutq yaxshiroq rivojlanadi. Bu esa bolaga yaxshi tanish bo'lgan sharoitlar doirasida uning faoliyatiga va xulqiga biroz ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim bolalarda alohida so'zlarning buzib aytilishi paydo bo'ladi. Faqat sanoqli hollardagina yoshiga rasman mos keluvchi, lekin "bo'sh" gaplar (nutq) kuzatilishi mumkin ekan¹⁸.

Shuningdek, M.Yu.Ayupova muallifligidagi "Logopediya" darsligida (2007) aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning o'ziga xos

¹⁸ Катаева А. А. Развитие речи у детей с нарушением интеллекта и их умственное воспитание // Дошкольное воспитание детей с проблемами интеллектуального развития - СПб, Изд. РГПУ им. А. И. Герцена, 1999. - с.153- 156.

xususiyatlari yoritib berilgan. Unda, aqli zaif bolalarda nutq buzilishi va ularni me'yorga keltirish xususiyati oliy nerv (asab) faoliyati hamda psixik rivojlanishning o'ziga xos tomonlari bilan belgilanadi, deb ta'kidlanadi.

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliy shakllarini yaxshi rivojlanmaganligi fikrlashning yuzakiligi, nutqning sekin rivojlanishi va sifat jihatidan o'ziga xosligi, xatti-harakatini so'z orqali nazorat qilishni izdan chiqishi hissiy-irodaviy sohani to'laqonli emasligi kuzatiladi.

Aqli zaif bolalarda nutqning rivojlanishni o'ziga xos tomonlari ko'plab mualliflar tomonidan psixologik aspektda o'rganilgan (V.Petrova, M.Pevzner, I.Karlin, M.Strazulla, S.Borel-Mezonni, Shlezinger, M.Zeeman va boshqalar).

S.Ya.Rubinshteyning (1970) fikricha, aqli zaif bolalarda nutq rivojlanmasligining sababi "miya po'stlog'i faoliyatining zaifligi, barcha analizatorlarda yangi differensial aloqalarning sekinlik bilan ishlab chiqilishidadir". Nutqiy eshitish analizatorlari doirasida differensial shartli aloqalarning asta rivojlanishi munosabati bilan aqli zaif bola ancha vaqt nutq tovushlarini ajrata olmaydi, atrofdagilar aytgan so'zlarini aniq anglamaydi¹⁹.

Motorikaning, shu jumladan, nutqiy motorikaning rivojlanishi aqli zaif bolalarda sekinlik bilan kechadi. Nutqiy harakatlarning aniqligi ikki tomonlama nazorat orqali ta'minlanadi. Eshitish singari kinestetik nazorat ham noaniq bo'lib rivojlanadi.

Aqli zaif bolalar nutqining o'ziga xos tomonlarini tahlil qilish jarayonida S.Ya.Rubinshteyn (1970), V.G.Petrova (1977) ularning nutq buzilishlari sabablari hisoblangan ko'pgina faktorlar yig'indisini, ajratib, aqli zaif bolalar nutqining buzilishi va anomal rivojlanishning asosiy sababi bilish faoliyatining rivojlanma-ganligidir, deb e'tirof etadi²⁰.

Analitik-sintetik faoliyat darajasining pasayishi nutq tovushlarini differensiallashtiruvchi murakkab psixik (ruhiy) faoliyat, fonematik qabul qilishning buzilishida namoyon bo'ladi. Bilish faoliyatining buzilishi tilning

¹⁹ Рубинштейн С. Я. Психология умственно отсталого школьника: Учеб. пособие для студ. пед. ин-тов по спец. №2111 «Дефектология» - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: «Просвещение», 1986.- 192с.

²⁰ Петрова В. Г. Практическая и умственная деятельность детей-олигофренов. М., «Просвещение», 1968.- 144с.

semantik tomondan o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun, aqli zaif bolalar semantik jihatdan murakkab bo'lgan so'zlarni (mavhum, umumlashgan) va grammatik shakllarni (masalan, maqsad va sabab, ergash gapli qo'shma gaplar) qiyinchilik bilan egallaydilar.

Analitik-semantik faoliyatining umumiy ravishda rivojlanmay qolishi sababli, til umumlashmalarining shakllanishi, til qoidalarining o'zlashtirishi me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan o'laroq, qiyinchilik bilan kechadi.

Aqli zaif bolalar so'z boyligining o'ziga xos tomonlari ko'plab mualliflar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Ular, idrok qilish faoliyatidagi buzilishlar passiv va aktiv lug'atlarning shakllanishida o'z izini qoldiradi, deb e'tirof etganlar.

Aqli zaif bolalarda lug'at boyligining kambag'alligi, so'zlardan noto'g'ri foydalanish, passiv lug'atning aktiv lug'atdan ustun bo'lishi va so'zlarni mazmunga qarab ishlatishdagi qiyinchiliklar sezilib turadi. Bu bolalarda so'z boyligi kambag'alligining muhim sabablari bo'lib, ularning aqliy rivojlanishi pastligi, atrofdagi olam haqida bo'lim va tasavvurlarning cheklanganligi, verbal xotiraning zaifligi, ijtimoiy va nutqiy munosabatga bo'lgan talabning pastligi, qiziqishlarning shakllanmaganligi hisoblanadi²¹.

Aqli zaif bolalarning passiv lug'ati faol lug'atga qaraganda ko'proq, lekin shunda ham biror so'zni qaytarish, talaffuz etish uchun yo'naltiruvchi savol talab etiladi. Qiyinchiliklar bir tomondan, aqli zaif bolalarning bosh miya po'stlog'idagi tormozlanishdan, boshqa tomondan, semantik maydonlar shakllanishidagi o'ziga xosliklardan kelib chiqadi.

A.R.Luriya va O.S.Vinogradovalarni (1978) semantik maydonlar yuzasidan o'tkazilgan tadqiqoti ularni to'liq shakllanmaganligini ko'rsatdi. Normada so'zni tanlash, ularning ma'nosidan kelib chiqqan holda, ya'ni mazmuniy o'xshashliklarga qarab amalga oshiriladi (baland-past, olma-nok). Aqli zaif bolalarda esa so'zlarni tanlash tahminiy, ba'zan, tovush o'xshashliklariga

²¹ Люблинская А. А. Очерки психологического развития - Изд. 4-е, перераб., М.: «Просвещение», 1985.- 356с.

asoslanib amalga oshiriladi-ki, bu yana bir bor lugʻaviy sistematiklikning toʻliq shakllanmanligidan dalolat beradi. Koʻpgina soʻzlar tushunchaga aylanmay qolaveradi²².

M.P.Xamidova, M.Yu.Ayupova (2009) eʼtirofi boʻyicha: “Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklar ularning bogʻlangan nutqini shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Materialning maʼnosini anglash qiyinchiliklari, hodisalarning mantiqini tushuna olmaslik, vaqt haqidagi tasavvurlarni etishmasligi, mavzudan chalgʻib ketish, shuningdek, tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar haqidagi etarli maʼlumotga ega emasliklari oqibatida ularning soʻz boyliklari kambagʻallashadi va muloqotga kirishishni qiyinlashtiradi”²³.

Aqli zaif bolalar bilan olib borilgan kuzatishlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ular predmetlar va holatlarni bildiruvchi soʻzlarning maʼnosini tushunishda qiyinchilik va xatolarga duch keladilar, hayotiy tajribalarida kam uchraydigan predmetni hatto koʻrsata olmaydilar. Ularning passiv soʻz boyligi salmogʻi faol nutqidan yuqori turadi. Rasmdagi tasvirlarni mazkur toifadagi bolalar koʻrsatib bera oladi, ammo nomlashga aqliy imkoni yetmaydi. Faol soʻz boyligining kamligi aqli zaif bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilishda qiyinchilik tugʻdiradi. Aqli zaif bolalar baʼzi soʻzlarni rasmdagi tasvirga qarab aytib beradi, lekin boshqa sharoitda va vaziyatga shu soʻzlarning maʼnosini tushunmaydi (M.P.Xamidova, M.Yu.Ayupova 2009).

Shu bilan birga, soʻz boyligining kambagʻalligi tufayli bolalar bir guruh soʻzlardangina foydalanishi natijasida nutqning bir yoqlama, noaniq boʻlishiga olib keladi.

Aqli zaif oʻquvchilar nutqning grammatik qurilishining oʻziga xos xususiyatlarini koʻpgina mualliflar oʻrganib chiqishgan (V.G.Petrov, M.F.Gnezdilov, M.F.Feodanov, A.P.Fedchenko va b.). Afsuski, maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqining grammatik tomoni mukammal oʻrganilmaganligini guvohi boʻldik. Hattoki, mehnat taʼlimi maktabi 1-sinf

²²Виноградова А.Д., Липецкая Е.И., Матасов Ю.Т., Ушакова И.П. Практикум по психологии умственно отсталого ребенка. – М.: «Просвещение», 1985.

²³Айупова М.Ю. “Logopediya” darsligi, Toshkent “Uzbekiston faylasuflar jamiyati”, 2007y.- 1966.

o'quvchilarining nutqidagi grammatik tuzilishlar takomillashmagan bo'ladi. Ularning jumalari bir sodda so'zlardan iborat bo'ladi, o'z fikrlarini bayon qilishda juda qiynaladilar (D.Nurkeldieva, 2000). Shuning uchun, aqli zaif bolalarning maktabgacha yosh davrida hali grammatik komponentlardan foydalana olish malakalari shakllanmagan bo'ladi, degan xulosaga keldik. Aksincha, aqli zaiflikni keltirib chiqargan gidrotsefaliyada esa, ba'zan nutq yaxshi rivojlangandek tuyulsada, aslida unday emas. Bunday bolalar nutqida juda murakkab jumlar, so'zlar bo'ladi. Ular nutqining grammatik tuzilishi ham juda mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu bolalarning fikr yuritishlari nasihatgo'ydek bo'lib tuyuladi. Nutqlarining mohiyatiga o'zlari yaxshi tushunib yetmaydilar. Bu bolalar nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, aqli zaif bolalarning fikr yuritish quroli bo'la olmaydi. Aqli zaiflikdagi bunday o'ziga xos nutq juda kam uchraydi. Shizofreniya kasaliga uchragan aqli zaif bolalarning nutqi ham yuqoridagi holatga o'xshab ketadi. Bu bolalarda nutq malakalari, tushunish holatlar normal bolalardan ham tez shakllanishi mumkin. Ularning so'z boyliklari normal bolalarnikidan kam farq qiladi. Ammo ular nutqida buzilgan so'zlar uchrashi mumkin (G'.B.Shoumarov, 1980).

M.P.Xamidova, M.Yu.Ayupovaning (2009) maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalardagi nutqni asosi bo'lmish grammatik tomonini tekshirish natijalarining tahlili, ularda tilning leksik-grammatik tuzilishining yetarli shakllanmaganligini ko'rsatadi. Ular amalda tilning grammatik qoidalarini buzgan holda qo'llaydilar va nutqda xuddi shunday ifodalaydilar. Aqli zaif bolalarda 5 yoshda so'zlardan gap tuzish jarayoni zaifligi yoki yetarli shakllanmaganligi kuzatiladi. Tekshirishdan olingan natijalar aqli zaif bolalar 2-3 so'zdan iborat gap tuzish imkoniga ega ekanligini ko'rsatdi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Noto'g'ri tuzilgan gaplar orasida tugallanmagan, grammatik jihatdan shakllanmagan, ma'nosiz so'zlarni o'rnini almashtirish kabi kamchiliklar kuzatiladi.

Ayni vaqtda, intellekti buzilgan bolalarning rivojlanish sur'ati normal rivojlanayotgan bolalarniki bilan bir xildir. Ayrim buzilishlar predmetli harakatlarni o'zlashtirishdagi kechikish, nutqning rivojlanishidagi va bilish jarayonlaridagi kechikish hamda chetga chiqib ketish sezilarli darajada ikkinchi darajali tabiatga ega. Hayotni to'g'ri tashkil etib, ancha kichik yoshidanoq maxsus o'qitish yo'lga qo'yilsa, rivojlanishning anchagina nuqsonlari to'g'irlanishi, aksariyat hollarda oldi olinishi ham mumkin.

Tafakkur, til va nutqning aloqadorligi haqida L.S.Vigotskiy (1956), A.G.Spirkinlarning juda qiziqarli ishlari bor. Bolalar nutqining rivojiga atalgan umumiy tarzda qiziqarli ma'lumotlar S.L.Rubinshteyn (1986) va D.B.Elkonin (1988) ishlarida keltiriladi. Yuqoridagi barcha ishlarda asosiy e'tibor nutqning mazmun tomoniga, bolalar aqliy ishlaridagi va xulqidagi roliga qaratilgan. Normal 3-4 yoshli bola yetarli lug'at boyligiga ega bo'lib, uning faol nutqi deyarli to'g'ri grammatik shaklni tashkil etadi. Fonetik xatolar u darajada ko'p bo'lmaydi. Oligofren bolada esa, so'zlarni talaffuz qilish birmuncha kechikadi. Ularni nutqi kambag'al va noto'g'ridir. L.V.Zankov (1956) va M.S.Pevznerning (1959) ta'kidlashlaricha, aqli zaif bolalar nutqi 1-1,5 yoshda emas, balki 3 yoshlardagina rivojlana boshlaydi. Chet el olimlaridan Shols-Erzam, Kassel, Shlezinger, Zeemanlarning (1962) ta'kidlashlaricha, 40% dan ortiq aqli zaif bolalarda nutq kechikib shakllanar ekan.

Aqli zaif bolalardagi nutqning yaxshi rivojlanmasligi asosida eshitish a'zolarida ham ayrim kamchiliklari yuz berishi mumkin. Bu nuqson oqibatida bola uzoq muddat atrofdagilar nutqini yaxshi eshitmasligi natijasida, bir-birlaridan ajrata olmaydi. Umuman bola kar emas, ammo unga nisbatan aytilgan gaplarni noaniq idrok etadi. Bu bolalar juda kam so'zlarnigina bir-birlaridan ajrata oladilar. Aqli zaif bolalarning nutqni idrok etishlari birmuncha sekin amalga oshadi. Aqli zaif bolalarning nutqidagi barcha kamchiliklarning asosiy sababi mana shudir.

Aqli zaif bolalar nutqining to'la bo'lmasdan, kechikib rivojlanishi noto'g'ri idrok qilishning asorati ekan. Aqli zaif bolalar tanish tovushlarni yomon

farqlaydilar, ayniqsa, undosh tovushlarni bir-birlaridan qiyin farqlaydilar. Fonematik eshitishning yomon rivojlanganligi oqibatida qator tovushlar almashtirilib eshitiladi va shu asosda almashtirilib yoziladi. Hatto, bolaga tovushlar tartibi ham noaniq tuyuladi. Talaffuz qilinayotgan soʻzlar oxirlari yaxshi tahlil qilinmasligi asosida ham, grammatik xatoliklar kelib chiqar ekan. Aqli zaif bola fonematik eshitishdagi kamchiliklar, nutq aʼzolaridagi, artikulyatsiyadagi kamchiliklar asosida yanada ogʻirlashadi. Analizatorlarning toʻla, mukammal rivojlanmasligi asosida nutqning qator kamchiliklari yuzaga keladi. Tafakkur quroli boʻlgan nutqning oʻzi yaxshi rivojlanmagan boʻlsa, tasavvur qiling tafakkur qay holatda boʻladi. Aqli zaif bolalarda birinchi, alohida soʻzlari 2-3 yoshlarda, qisqa kambagʻal grammatik gaplari 5-6 yoshlarda yuzaga kelar ekan (Gʻ.B.Shoumarov, 1980). Aqli zaif bolalarning soʻzlarni tovush tomondan tahlil qila olishlari grammatik qonun-qoidalarni muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy narsadir. N.S.Rojdestvenskiyning taʼkidlashlaricha, “Soʻzdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni oʻqish va yozishga, keyinchalik toʻgʻri yozishga oʻrgatish mumkin emas”. Intellekti buzilgan koʻpchilik bolalar faqat maktabgacha yoshning boshida emas, balki 4-5 yoshda ham gapira olmaydilar. Intellekti buzilgan bolalar, nutqning rivojlanishi nuqtai nazaridan qaraganda, juda turli-tuman kategoriyalardan iboratdir. Ularning orasida nutqi umuman yoʻq bolalar, soʻzlari va oddiy iboralari kichik hajmga ega boʻlgan bolalar bor. Ularning hammasini, bir tomondan, aytilgan nutqni tushunishning chegaralanganligi, boshqa tomondan, nutqning borliqdan uzilib qolganligi birlashtirib turadi. Nutq bolaning haqiqiy intellektual imkoniyatlarini aks ettirmaydi, unga bilimlarni va axborotlarni uzatishning toʻlaqonli manbai boʻlib xizmat qila olmaydi.

Iborali nutq fonetik va grammatik koʻplab nuqsonlar bilan ajralib turadi. Odatda, maktabgacha yosh davrida nutqning grammatik tuzilishini oʻzlashtirish amalga oshmaydi. Ayniqsa, bogʻlovchi nutq aziyat chekadi. Bunday vaziyatda son bilan otning muhim buzilishlari oʻziga xos xususiyatlardan biri boʻladi.

Passiv shakldagi soʻz boyligi faol shakldagisidan yuqori boʻladi. Bu odatda, alohida ajratib olingan soʻzlarga tegishli boʻladi, biroq barcha vaziyatlarda emas. Shunday soʻzlar borki, intellekti buzilgan bola ularni biror suratga, predmetga nisbatan aytishi mumkin. Biroq ularni oʻziga tanish boʻlmagan vaziyatda boshqa birov aytsa tushunmaydi. Ushbu holat intellekti buzilgan bolalarda soʻzning vaziyatli holati uzoq muddat saqlanishini bildiradi. Bunday bolalarda soʻzning semantik vazni ayni shu yoshdagi normal bolalardagidan kamroq boʻladi.

Soʻzning vaziyatli ahamiyati, nutqning grammatik yetarlicha tuzilmagani, fonematik eshitishdagi buzilish va qabul qilish (idrok etish)ning sekinlashganligi shuni koʻrsatadiki, kattalar nutqni intellekti buzilgan bola yo umuman tushunmaydi yoki aniq tushunmaydi, yoki notoʻgʻri tushunadi.

Ayni paytda kattalarning nutqi imkoniyati cheklangan bolaning faoliyatini tashkillashtirishda muhim rol oʻynashi mumkin. Bu uning eʼtiborini toʻplashi, uni faoliyatga qaratishi, hattoki uning oldiga unchalik qiyin boʻlmagan vazifani qoʻyishi ham mumkin. Shuni esda tutish lozimki, bunday vaziyatlarda faqat ogʻzaki tushuntirish bilan cheklanib boʻlmaydi, uni maktabgacha yoshning butun davri davomida koʻrsatish, namuna qilish, bolaning kattalar bilan birgalikdagi harakatlari bilan qoʻshib olib borish lozim. Intellekti buzilgan bolalarda maxsus oʻqitishsiz oʻzlarining xususiy nutqi yordamida faoliyatini boshqarish imkoniyati rivojlanmaydi: baʼzi hollarda kuzatuvchi nutq paydo boʻladi, biroq qayd qiluvchi va rejalashtiruvchi nutqlar paydo boʻlmaydi (A.A.Kataeva, E.A.Strebeleva).

Aqli zaif bolalar nutqi turli yoʻnalishlarda, turli yoshdagi bolalarda, turli mutaxassislar tomonidan, turli darajada oʻrganilgan. Nutq nuqsonlarining aqli zaif bola umumiy ruhiy taraqqiyotiga salbiy taʼsiri Shif J.I. (1980) qoʻllanmasida atroflicha, chuqur tahlil qilib berilgan. Mualliflarning eʼtirof etishlaricha, aqli zaif bola bilan normal bolalar orasidagi farq ularning faol nutqlari koʻzga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar oʻz nutqlarida sifat, feʼl, bogʻlovchilardan juda kam hollarda foydalanadilar. Bolalar ulgʻaygan sari narsa nomlarining ahamiyati

ham o'sib, aniqlanib boriladi. Aqli zaif bolalarda "taxallus"lardan tushunchalarga o'tish jarayoni juda uzoq va qiyin shakllanadi²⁴.

A.A.Kataeva va E.A.Strebeleva birgalikda olib borgan tadqiqotlarda aqli zaif bolalar nutqini erta korreksiyalash, ular so'z boyligini oshirish, nutqida grammatik komponentlardan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirish uchun bunday bolalarda muloqot funksiyalarining paydo bo'lishini ta'minlash lozimligini isbotlab berdilar (1998).

Normadagi bolalar eng birinchi kattalar bilan muloqot funksiyalari paydo bo'ladi. Bu emotsional, predmetli va faol xarakterga ega bo'ladi. Keyinchalik tengqurlari bilan muloqot paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bolaning umumiy psixik rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, muloqotda nutq shunchalik katta rol o'ynaydi. Nutq bolalar harakatining kollektiv ko'rinishlarida, ayniqsa, o'yinda muhim o'rin tutadi. Bu erda ular nutq yordamida o'yinning mazmuni haqida kelishib oladilar, uning rejasini tuzadilar, har personajni sharhlagan holda, rollarni bo'lishadilar. Nutq yordamida, muayyan o'yin davomida bolalarning o'zaro munosabatlar ham yuzaga chiqadi.

Intellekti buzilgan bolalarda muloqot xuddi shu yo'llar bilan rivojlanadi, biroq katta kechikish bilan. O'qitishning boshlang'ich paytida bolalar, odatdagidek, hali o'zaro muloqotga kirisha olmaydilar, hattoki bunday muloqotga ehtiyoj ham sezmaydilar. Chunki ularda faoliyatning kollektiv ko'rinishlari umuman rivojlanmagan. Biroq kattalar bilan muloqotga muayyan ehtiyoj va bu ehtiyojni amalga oshirish usullari barcha bolalarda mavjud. Bolalar kattalarga turli holatdagi iltimoslar bilan murojaat etadilar. Bolaning kattalar bilan muloqoti mashg'ulotlar jarayonida ham doimiy ravishda paydo bo'laveradi. Bunday sharoitlarda, har qanday bosqichda bo'lmasin, bola o'zining ehtiyojini amalga oshirishi uchun zarur, o'zi tushina va anglay oladigan muloqot vositalarini olishi kerakligi haqida qayg'urmoq lozim. Dastlabki

²⁴ Особенности умственного развития учащихся вспомогательной школы - Под ред. Ж. И. Шиф - М.: «Просвещение», 1985.- 342с.

bosqichda bu bir soʻzli ibora, keyin ikki soʻzli va, oxirida, yoyilgan (“Ber”, “Suv ber”, “Iltimos, suv bering, ichgim kelyapti”) iboralar boʻlishi mumkin²⁵.

Intellekti buzilgan bolalar maktabgacha muassasaga besh yoshida kelsalar-da, ularning nutqi, avval aytib oʻtganimizdek, hali bilish vositasi boʻlib xizmat qila olmaydi. Pedagoglar oldida nutq rivojlanishining mazmunli va grammatik tomonlari bilan bogʻliq boʻlgan, nutqning bilish funksiyasini shakllantirish vazifasi turadi.

Hozirgi zamon oligofrenopsixologiyasida aqli zaif bolalar nutqi, alohida faoliyat va bilish jarayoni sifatida qaraladi. Oʻyin bilan birga nutq aloqasi alohida, faoliyat turi sifatida oʻrganiladi. Oʻzaro aloqa jarayonida fikrlar almashuvi hislarni ifoda etish, kattalar va bolalar xulqiga taʼsir etish yuz beradi. Mamlakatimiz va chet el mutaxassislarining ilmiy izlanishlari aqli zaif bolalar nutqining fonetik, leksik, grammatik tomonlarining rivojlanish dinamikasini ochib berishga katta yordam berdi. Aqli zaif bolalardagi turli nutq kamchiliklari ularning atrofdagilar bilan muomalasini qiyinlashtirib, oʻzlarida qaygʻurish holatlarining yuzaga kelishiga salbiy sabab boʻlar ekan.

²⁵ Петрова В.Г. Практическая и умственная деятельность детей - олигофренов. М.: «Просвещение», 1968.- 160с.

4. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'yin faoliyatining xususiyatlari

O'yin faoliyati - bolalar hayotida alohida mazmunga ega. O'yinni «hayot yo'ldoshi» sifatida qabul qilish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida u asosiy mazmunni tashkil qilib, yetakchi faoliyat sifatida turtib chiqadi, mehnat va o'qish bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'pincha jiddiy voqeyalar bolada o'yin shaklini egallaydi. Bu shaxsning barcha tomonlarini o'ziga jalb qiladi: bola harakatlanadi, gapiradi, idrok qiladi, fikrlaydi; o'yin davomida uning tasavvuri va boshqa psixik jarayonlari faollashadi. O'yin – bu erkin va mustaqil faoliyat bo'lib, bolaning shaxsiy tashabbuskorligi bilan yuzaga keladi, hamda faol ijodiy xarakter, yuksak emotsional mazmunga boyligi bilan ajralib turadi.

O'yinning ko'pgina konsepsiyalari mavjud bo'lib, buyuk psixolog va pedagoglar tomonidan yaratilgan, turli xil nazariy vaziyatlarda turadigan va turli xil yo'nalishdagi o'yinlar.

O'yin haqida V.Shtern o'z fikrini bayon etadi: «Erkin, birdan-bir maqsadli faoliyat – agar biz o'yin jarayonida ong holatini xarakterlash istagi paydo bo'lsa, o'yinni aynan shunday ta'riflash joiz. Bu yagona maqsadli faoliyat hisoblanadi, ya'ni o'zi bilan o'zi qoniqib, o'ziga tegishli bo'lmagan – «ishga» qarama-qarshi bo'lgan maqsadlarga yo'naltirilmagan bo'ladi. O'ynayotganning ongida o'yinning maqsadi o'yinning tugashiga kelib batamom muvaffaqiyatga erishilgan bo'ladi. O'yin ong tomonidan atroflicha ko'rib chiqilsagina, bu fikr to'g'ri bo'lishi mumkin. Aksincha agar o'yinga «o'z ongida hosil bo'lgan tasavvurlariga qaramay, hayotiy vazifa» sifatida qaralsa, o'yin quyidagi maqsadlarga egaligi aniqlanadi, ya'ni bular o'yin chegarasidan chiqadigan maqsadlardir: rivojlanib kelayotgan qobiliyatlar hamda yuzaga keluvchi jiddiy funksiyalarning ongsiz mashqlarining mustaqil shakllanishi kabi maqsadlar»²⁶.

K.Koffkaning o'yin haqidagi tasavvurlarini ko'rib chiqamiz. U uchun o'yin bola dunyosi (kattalar dunyosiga qaraganda o'ziga xos va kattalar dunyosi

²⁶ Штерн В. Дифференциальная психология и её методические основы = Die differentielle Psychologie in ihren methodischen Grundlagen / [Послесл. А. В. Брушлинского и др.]; РАН, Ин-т психологии. — М.: Наука, 1998.

nuqtai nazaridan qaraganda tushunarsiz bo‘lgan dunyo)ning namoyon bo‘lishida juda muhim hisoblanadi. O‘yin faoliyati tarbiyaning alohida bir tizimiga tegishli bo‘lib, bu tizim boshqa tizimlar qatorida mavjuddir. Bola ong tizimi tarbiya tizimlari bilan mos keladi, ular bir-biridan mustaqil ravishda, faqatgina dinamik tomondan bog‘liq bo‘ladi. Koffka o‘yinni bolaning alohida o‘ziga xos sifatlarga ega bo‘lgan dunyosining namoyon bo‘lishi sifatida tahlil qiladi. Kattalar dunyosini o‘zlashtirish qonun-qoidalarini, kattalar hayotiga tayyorlash va boshqalar nuqtai nazaridan qaralishi noto‘g‘ri. Shunday bo‘lsa, bu o‘ynayotgan bolaning dunyosini mustaqil paydo bo‘lishi deb muhokama qilgan bo‘lar edik. J.Piaje ham xuddi shunday qarashga ega. Piajening ishlari shunga asoslanganki, bolaning ichki dunyosi o‘z qonun-qoidalariga asosan qurilgan bo‘lib, u kattalar dunyosining qonun-qoidalaridan butunlay farq qiladi. Piaje «Bolaning nutq va tafakkuri» nomli ilmiy ishida bolaning ongi, misol uchun, bir vaqtning o‘zida ikkita turli xil, birin-ketin joylashgan dastgohlarda tikayotgandek bo‘ladi, - degan fikrni bildirgan. Hayotning dastlabki yillarida olib borilgan ish juda muhim hisoblanadi. Bu bolaning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, u atrofidagi barcha o‘zini qondira oladigan narsalarni o‘ziga jalb qiladi va sintezlaydi. Bular – hohish-istaklar, injiqliklar, o‘yinlar. Keyinchalik esa, aksincha, ijtimoiy doira tiklanadi, bunda borgan sari bolaning ta’siri sezila boshlaydi. Bu – mantiqiy nutq, bir so‘z bilan aytganda reallik²⁷. Z.Freydning o‘yin haqidagi qarashlarini o‘rganib chiqamiz. Freyd bolalar o‘yining tabiatini tushuntiradi, bunda u birinchi navbatda iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydi, ya’ni mamnuniyat qabul qilish maylini asos deb biladi. Z.Freyd yozishicha: «Bolalar hayoti davomida o‘zlarida qolgan taassurotlarini o‘yinda ham qaytarishadi, bu taassurotlar kuchidan ular qattiq ta’sirlanadilar, boshqacha qilib aytganda ular vaziyat ustidan to‘la hukmronlik qiladilar. Bizga ma’lumki, boshqa tomondan butun o‘yin ularning hohish-istaklari ostida amalga oshadi, bu istak ularning tezroq katta bo‘lishlarini va barcha hatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek bo‘lishini hohlaydilar»²⁸.

²⁷ Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. - М., 1994

²⁸ Психоаналитические термины и понятия: Словарь / Под ред. Б. Мура, Б.Файна. - М.: Класс, 2000.-304 с.

Psixologiyada o'yin 30-yillardan beri o'rganib kelinayotgan bo'lib, shu bilan birga psixologlar aynan bolalar o'yinini tushunishga harakat qilishgan, buning uchun ular individning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatining xususiyatlariga asoslanganlar. L.S.Vigotskiy ta'kidlashicha, o'yinni tushunish uchun maktabgacha yosh davrida namoyon bo'ladigan yangi ehtiyojlar va sabab (motiv)larni anglay olish lozim. Bu davrda bolada bir qator turli xil amalga oshmaydigan g'oya va hohish-istaklari paydo bo'ladi. Shuning bilan birga istagiga darhol erishish g'oyasi unda saqlangan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola tilak, hohish-istaklarini hayolan amalga oshirish qobiliyatiga ega. Shundan kelib chiqqan holda, bola nega o'ynaydi degan savolga, amalga oshmaydigan orzu-istaklarning hayolan, tasavvur qilish orqali amalga oshirish maqsadi turgan bo'ladi, - deb javob berish lozim.

O'yin bu istak-hohishlarni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lib, ammo yagona istak emas, balki umumlashgan istaklardir. Vigotskiy o'yin mezonini bo'yicha, unda soxta vaziyatlarni hosil qilishni tavsiya qilib, uning fikrlashicha bu qoidalar bilan uzviy bog'liqdir. Soxta vaziyat – o'yin, real vaziyatlardan farqi shundaki, «real hayotda mavjud bo'lgan narsa bola nazaridan chetda qoladi, lekin o'yinda hatti-harakatlarni belgilab beruvchi qonun-qoidalarni bildiradi».

Bola rivojlanishida o'yin roli katta ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilarga bog'liq: soxta vaziyatdagi hatti-harakat bolani vaziyatli aloqadorlikdan ozod etadi, bola o'yindagi vaziyatni ko'rishga emas, balki uni fikrlash, bilish, idrok qilishga o'rganadi.

O'yin jarayonida bola predmetlarning mazmun-mohiyatini ulardan ajralgan holda tushunishga, anglashga harakat qiladi, lekin bir vaqtning o'zida mavjud predmet orqali u faqatgina mavjud harakatni bajaradi, bu bilan biz bola predmet bilan emas, balki uning mohiyati bilan ishlashni boshlaydi demoqchimiz. Lekin ular bilan biron bir harakat qilmoqchi bo'lsa, u albatta bevosita shu predmetdan foydalanadi, uning mazmunini esa faqatgina maktab yoshida to'liq anglay oladi.

Vigotskiy maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyati ustunlik qiluvchi faoliyat deb hisoblaydi. Hayotning asosiy vaziyatlarida bola o‘zini o‘yindagidan farqli ravishda mutlaqo o‘zgacha tutadi. Biroq o‘yin bola rivojlanishiga asosiy zamin yaratadi. O‘yin jarayonida bola har doim o‘zidan balandda, o‘zining har doimgi hatti-harakatlardan yuksakroq darajada bo‘ladi, boshqacha qilib aytganda u o‘zidan bir pog‘ona yuqoriroq bo‘ladi²⁹.

Shuning uchun ham maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyati yetakchi rolni o‘ynaydi. Shunday qilib, Vigotskiy o‘yinning qoq markazi sifatida, soxta vaziyatlarni ajratib chiqaradi. Aynan bu soxtalik bola ongini qay darajadaligini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu fikr D.B.Elkonin teoriyasi asosini tashkil qilib, «O‘yin psixologiyasi» kitobida aniq ifodalangan. Elkoninning o‘yin haqidagi fikri [1999]: «Inson o‘yini – bu shunday faoliyatki, samarali faoliyatning bevosita shart-sharoitlari natijasida insonlar orasida ijtimoiy munosabatlar hosil bo‘ladi».

O‘yinni tahlilida, uni alohida qobiliyatlar (idrok, xotira, tasavvur va b.) yig‘indisiga joylashtirish mumkin, hamda bu qobiliyatlarning solishtirma og‘irligini va rivojlanishini o‘rganib chiqish lozim. Lekin bunday tahlil o‘yin tabiati va sifatining o‘ziga xosligini tushunishga yordam bera olmaydi. Umumiy xususiyatga ega birliklarni ajratib chiqish zarur. Ushbu birlik roldir. Aynan rol va u bilan organik jihatdan bog‘liq bo‘lgan hatti-harakatlar rivojlangan o‘yin shaklining birligi hisoblanadi.

D.B.Elkoninning aytishicha, rol o‘yinlar tarkibiga syujet va mazmun kiradi. Syujet – bu voqelikning sohasi bo‘lib, o‘yin jarayonida bola tomonidan aks ettiriladi. Mazmun hatti-harakatning markaziy xarakterli momenti hamda bolalarning kattalar, ularning mehnati va ijtimoiy hayot orasidagi munosabati sifatida bola tomonidan aks ettiriladi. Rolli o‘yinning rivojlangan, kengaygan shaklining mazmuni predmet va undan insonning foydalanishi emas, balki ushbu

²⁹ Выготский Л.С. Лекции по психологии. - СПб.: Союз, 1997. - 144 с.

predmetlar orqali kattalarning amalga oshiradigan xatti-harakatlari bo'lib hisoblanadi³⁰.

O'yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O'yin orqali aqli zaif bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilimi yanada kengayib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin faoliyatidan to'g'ri va unumli foydalanish, har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi.

O'yin aqli zaif bolaning psixologik ko'rinishiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi, eng yaqin rivojlanish sohasini ta'minlovchi yetakchi faoliyat bo'lishi kerak³¹.

Aqli zaif bolada mustaqil, ketma-ketlikka amal qilgan holda o'yin tashkil etishini sekinlashtiruvchi sabablar ichidan, avvalambor, asosiysini – bosh miya po'stlog'i integrativ funksiyasining rivojlanmaganligini ajratib ko'rsatish kerak, shu sabab kattalar bilan emotsional ish yuzasidan muloqot, statik funksiyalar, nutqni o'zlashtirish muddatlari kechikishini keltirib chiqaradi. O'yinni tashkil qilishga bola rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitlarning yo'qligi ham salbiy ta'sir qiladi, buni ayniqsa, maktab yoshigacha bo'lgan aqli zaif bolalar yopiq turdagi muassasalarda tarbiyalanganlarida kuzatish mumkin. Zarur yangi emotsional taassurotlardan mahrum aqli zaif bola - oligofren shaxslar, predmetlarning tor doirasi bilan tanish; uning hayoti cheklangan bir xillikda kechadi. Shu tariqa undagi mavjud organik nuqsonga atrof olam haqidagi nochor va ba'zan buzilgan tushunchalar qo'shiladi.

Kichik yoshdagi aqli zaif bolalar maxsus maktabgacha ta'lim muassasalariga kelganlarida, odatda, umuman o'ynashni bilmaydilar, ular o'yinchoqlarning funksional belgilanishidan qat'iy nazar bir xillikdagi amallarni

³⁰ Психическое развитие в детских возрастах : избранные психологические труды / Д.Б. Эльконин. – Издание 2-е, стереотипное. – Москва: Институт практической психологии ; Воронеж: НПО МОДЭК, 1997. – 416 с.

³¹ Морозова Н.Г. Формирование познавательных интересов у детей дошкольного возраста с отклонениями в развитии // Особенности развития и воспитания детей дошкольного возраста с недостатками слуха и интеллекта / Под ред. Л. П. Носковой - М.,1984.- с.65- 73

bajaradilar. Bola uzoq vaqt davomida kubik, oʻrdak, mashinani bir xillikda taqillatib oʻtirishi mumkin³².

Bunda ayniqsa, qoʻgʻirchoqqa boʻlgan munosabat eʼtiborga molik, u xuddi boshqa oʻyinchoqlardek qabul qilinadi. Qoʻgʻirchoq shodon tuygʻularni paydo qilmaydi va odam oʻrinbosari sifatida qabul qilinmaydi. Jonivor-oʻyinchoqlar ham aqli zaif bolada qiziqish xislarini uygʻotmaydi. Ular bilan bajariladigan amallar xuddi kubik va mashinalardagidek boʻladi. Oʻrgatilmagan aqli zaif bolalar orasida oʻyinchoqning taʼmini “tatib” koʻrishni yoqtiradiganlari ham uchraydi. Ular rangli kubikning bir qismini tishlab uzib olmoqchi boʻladilar, matryoshkani yalaydilar. Oʻyinchoqlar bilan bu kabi amallar asosan chuqur aqli zaif bolalarga xos, lekin bir qator holatlarda ular shunchaki oʻyinchoqlar bilan oʻynay bilmaslik, ularni funksional belgilanishi boʻyicha qoʻllay olmaslik natijasi ham boʻladi.

Aqli zaif bolalarning aksariyat qismida amallar bilan birgalikda jarayonli harakatlar ham kuzatiladi, bunda bola uzluksiz bir xil oʻyin jarayonini takrorlaydi: qoʻgʻirchoqni yechintirib-kiyintiradi, kubiklardan qurilma yasab-buzadi; idish-tovoqlarni olib joyiga qoʻyadi.

Maktabgacha taʼlim muassasasida tarbiyalanmagan maktab yoshigacha aqli zaif bolalarning oʻziga xos tomoni ularning noadekvat harakatlar bajarishidir. Bunday harakatlarni na mantiq, na oʻyinchoqning funksional belgilanishi bilan tushuntirish mumkin, ularni zinhor normal bola oʻyinida kuzatish mumkin boʻlgan oʻrinbosar predmetlarni qoʻllash bilan adashtirmaslik kerak. Normal maktab yoshigacha bola jon-jon deb qoshiq oʻrniga tayoqcha, sovun oʻrniga kubik va x.k. ishlatadi. Bunday harakatlarni oʻyin talablari taqozo qiladi va bu uning oliy darajada rivojlanayotganini koʻrsatadi. Lekin maxsus maktabgacha taʼlim muassasalariga kelgan aqli zaif bolalarda aynan shunday oʻrinbosar predmetlarni ishlatish harakatlari umuman uchramaydi.

³² Психологические процессы и свойства личности умственно отсталых детей / ГПИ им. А. И. Герцена: Учеб. пособие- Л.,1981.- 62с.

O'yin jarayonida intellektual kamchiliklarga ega bolalar o'yinchoqlarni ovoz chiqarmay, jimgina o'ynaydilar, ba'zi-ba'zida alohida emotsional tovushlar chiqaradilar, ba'zi o'yinchoq yoki harakatlar nomini ifodalovchi so'zlarni talaffuz qiladilar. O'rgatilmagan aqli zaif bola o'yinchoqlardan tez charchaydi. Uning o'ynash davomiyligi odatda o'n besh daqiqadan ortmaydi. Bu narsa o'yinchoqlarga bo'lgan haqiqiy qiziqish yo'qligidan dalolat beradi³³.

Maxsus ta'limsiz aqli zaif bolalarda o'yin yetakchi o'rinni egallay olmaydi va albatta psixik rivojlanishiga ta'sir qila olmaydi. Bunday ko'rinishda o'yin anomal bola rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash vositasi bo'la olmaydi. Aqli zaif bolalarga ta'lim va tarbiya berish dasturida "O'yin" bo'limiga markaziy o'rin ajratilishi bejiz emas. Bu bilan o'yin faoliyatining bola rivojlanishini boyitish, anomal bola psixikasidagi turli nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash, maktabda o'qishga tayyorlashdagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Ma'lumki, bolaning o'yin faoliyati ko'p qirrali, o'yinlar ham turli-tuman. Ularning orasida asosiy o'rinni syujetli-rolli o'yinlar egallagan. Uning bola rivojidagi alohida rolini hisobga olgan holda, dastur aqli zaif bolada bosqichma-bosqich syujetli-rolli o'yin mexanizmini shakllantirishga e'tibor qaratadi.

Defektolog-o'qituvchi oldida aqli zaif bolalarni o'yinlar olamiga asta-sekin olib kirish, unga turli o'yin jarayonlarini, tengqurlari bilan muloqot qilishning turli vositalarini o'rgatish vazifasi yotadi.

Syujetli-rolli o'yinlardan tashqari aqli zaif bolalar didaktik va harakatli o'yinlarni ham o'rganadilar.

Didaktik o'yinlar ayni vaqtda bolalarni o'qitishning shakli hisoblanadi. Uning xalq pedagogikasidagi kelib chiqishi o'yinlarning qo'shiqlar bilan, harakatlar bilan birlashishiga asoslangan ta'limiy o'yinlarni yaratgan. Didaktik o'yinda barcha strukturaviy elementlar, bolalarning o'yindagi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan: maqsad, jamlanma, o'yin faoliyati, qoida, natija jamlangan.

³³ Лапошина Э. В. Особенности ознакомления умственно отсталых дошкольников с некоторыми предметами ближайшего окружения. // Дефектология- 1991.- №6.- с.72- 77

Lekin ular bir qancha o'zgacha shaklni ko'rsatadi va didaktik o'yinlarning bolalarga ta'lim va tarbiyasidagi asosiy rolini sharoitga moslagan.

Didaktik topshiriqlarning mavjudligi o'yinlarning ta'limiy xarakterini, uning tarkibini bolalarning kuchli aqliy faoliyatiga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Didaktik o'yinda mashg'ulot davomida topshiriqning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilishidagi farqda u bolaning o'yin topshirig'i sifatida namoyon bo'ladi. Didaktik o'yinning asosiy ahamiyati shundaki, u bolaning fikri va nutqida mustaqillik va faollikni hosil qiladi.

O'yin faoliyati har doim ham ko'rinuvchan xarakterni yuzaga keltirmaydi. Bu to'liq yo'naltirilgan kuzatish, taqqoslash, ba'zan oldingi o'zlashtirilganlarni qayta eslash, o'ylash jarayonlarini to'liq ifodalovchi aqliy faoliyat hamdir. Murakkabligi bo'yicha ular aqliy tarkib va o'yin topshiriqlari, bolalarning yoshiga moslik darajalari turli xil va sharoitga moslashgandir.

Murakkabligi jihatdan ular turlicha va bosh mazmunning, o'yin maqsadining darajasi bilan bolalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'yin harakatlarining hajmi ham turlichadir. Kichik guruhlarda – bu ko'p xollarda takrorlanuvchi 1-2 ta harakatdan, kattaroq guruhlarda esa 5-6 ta harakatdan iborat. Katta maktabgacha yoshdagilarning sport xarakteriga ega bo'lgan o'yinlardagi o'yin harakatlari boshidanoq vaqt bo'yicha taqsimlangan va ketma-ket amalga oshiriladi. Ularni o'zlashtirgan bolalar maqsadga intilib, aniq, tez kelishgan holda o'zlashtirilgan sur'atda o'yin vazifasini oladilar. Didaktik o'yinlarning elementlaridan biri qoidalar hisoblanadi. Ular o'rgatishning vazifasi va o'yin mazmuni bilan belgilanadi va o'z navbatida o'yin harakatlarining xarakterini va usullarini aniqlab beradi, bolalarning xulqini, bolalar o'rtasidagi va tarbiyachi bilan o'zaro munosabatlarni shakllantiradi va yo'naltiradi. Qoidalar yordamida bolalarda o'zgargan sharoitlarda mo'ljal olish qobiliyati, bevosita istaklarni jilovlash ko'nikmasi, emotsional – irodaviy zo'riqishni namoyon qilishni ushlab tura olish shakllanadi. Buning natijasida o'z harakatlari bilan boshqa o'ynovchilarni boshqarish qobiliyati rivojlanadi. O'yin qoidalari o'rgatuvchi, tashkil etuvchi va intizomiy xarakterga ega. O'rgatuvchi

qoidalar bolalar oldida kim, nimani va qanday qilish kerakligini ochishga yordam beradi: ular o'yin harakatlari bilan munosabatda bo'ladi, harakatlarning ro'lini kuchaytiradi, bajarish usulini aniqlashtiradi. Tashkil yetuvchi qoidalar esa bolalarning o'yindagi o'zaro munosabatlarini, tartibni, ketma-ketlikni belgilaydi. Intizomiy qoidalar nimani va nima uchun qilish mumkin emasligi haqida ogohlantiradi.

Tarbiyachi qoidalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, o'yinni ular bilan zo'riqtirmasligi, faqat zarur holdagina ularni qo'llashi lozim. Ko'p qoidalarni kiritish, ularni bolalarga majburan bajartirish salbiy natijalarga olib keladi. Haddan tashqari intizom bolalarda o'yinga qiziqishni pasaytiradi, xatto o'yinni buzadi, ba'zan esa qoidalarni bajarishdan qochish maqsadida ayyorlikni keltirib chiqaradi. Didaktik o'yin natijasi – shunchaki har qanday usul bilan erishilgan g'alaba emas, balki bolalar tomonidan erishilgan bilimlarni o'zlashtirish, aqliy faoliyat rivojlanishi, o'zaro munosabatlardagi yutuqlar darajasining ko'rsatkichidir. O'yin vazifalari, harakatlari, qoidalari, o'yin natijasi bir-biri bilan bog'langan. Bu tarkibiy qismlardan birortasining yo'qligi o'yinning butunligini buzadi, tarbiyaviy ta'sirini pasaytiradi.

I bob bo'yicha xulosa

Mavzuga doir psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarni o'rganish natijasida quyidagilarni xulosa qilish mumkin: nutqiy ifodaning paydo bo'lishi va rivojlanishi murakkab bo'lib psixik jarayonlarning yetilganligini talab etadi. Bola uni asta-sekin, nutqning rivojlanishi jarayonida o'zlashtirib egallab oladi. Aqli zaiflikning tuzilishini, uning sabablarini, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning turli munosabatlarini aniqlash maktabgacha davrda bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalashning eng samarali usullarini tanlashga imkon yaratadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish – juda jiddiy ilmiy-metodik muammo bo'lib, ushbu muammoga psixologik-pedagogik adabiyotlarda katta ahamiyat berilgan. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish muassasasiga qaratilgan tadqiqotchilarning ishlarini tahlili ham muammoning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Aqli zaif bolalar nutqidagi nuqsonlar, ya'ni faol lug'atning qashshoqligi, tushunchalar ahamiyatining (mohiyatining) cheklanganligi, ularni noto'g'ri qo'llash, grammatik vositalarning bo'shligi va stereotipligi, mustaqil nutqning zaifligi va boshqa omillar bunday toifadagi bolalar psixikasining shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishini tadqiqoti bilan shug'ullangan barcha tadqiqotchilar aqli zaiflarda intellekti birlamchi saqlanib qolgan tengdoshlariga qaraganda juda ko'p nutqiy kamchiliklar tarqalganligini ko'rsatadilar va ularni korreksiyalash va bartaraf etishning samarali yo'llarini tadqiq etish zarurligini ta'kidlaydilar. Ana shu samarali vositalarga didaktik o'yinlar ham kiradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Chunki maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashda, maktab ta'limiga tayyorlashda bu davrda bolalarning asosiy faoliyat bo'lgan o'yinning ahamiyati yanada muhim bo'lib qoladi. O'yinda, ayniqsa, didaktik o'yin orqali bolalar yangi bilimlar, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida aqli zaif bolalarning nutqini shakllantirish va o'qitishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda didaktik o'yinlar orqali aqli zaif bolalar nutqining eng asosiy funksiyasi, ya'ni faoliyatni regulyatsiyalovchi funksiyasi, muloqot (kommunikativ, bilish) shakllanadi va rivojlanadi. Bularning barchasi maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llarini tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

II bob. MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIK DARAJASINI TADQIQ ETISH

1. Eksperimental tadqiqotni tashkil etish tamoyillari, vazifalari va metodlari va uni tashkil etish

Mavzuga oid psixologik-pedagogik adabiyot tahlili natijasida aqli zaiflik nutqning ikkilamchi orqada qolishiga olib kelishini taxmin qilish mumkin. Aqli zaiflikka ega bolalarning nutqi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni maxsus tanlangan metodikalar asosida aniqlash mumkin.

Tadqiqot ishimizda biz aqli zaif bolalarni nutqini o'ziga xos xususiyatlarini didaktik o'yin jarayonida tekshirish metodikalarini qo'lladik.

Eksperiment o'tkazishdan avval aqli zaif bolalarning hujjatlari bilan tanishildi. Guruh defektologi va tarbiyachilar bilan suhbatlashildi. Har bir aqli zaif bolaning xususiyatlari haqida ma'lumot to'plandi.

Belgilangan vazifalarga muvofiq ravishda tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar yuzasidan ma'lumotlarni o'rganish va maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini eksperimental yo'nalishda tadqiq etish rejalashtirildi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning impressiv va ekspressiv nutqini didaktik o'yin davomida tekshirishda, biz A.Kataeva, E.Strebevalarning maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini tekshirish metodikasidan keng foydalandik.

Tekshirish jarayonida aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo'lgan xotira, diqqat xususiyatlari e'tiborga olindi. Shunga bog'liq ravishda ularga ko'rsatmalar qisqa, sodda tarzda berilib, ba'zan ikki marta takrorlandi. Metodikalar kunning birinchi yarmida guruhli mashg'ulotlaridan so'ng individual tarzda navbatma-navbat berildi. Tadqiqot natijalarini tahlil etish bolalar nutqini rivojlanish darajasini inobatga olgan tarzda 4 balli tizimda amalga oshirildi:

4 ball – topshiriqni qo‘shimcha savollarsiz bajarib, to‘g‘ri, aniq, o‘zaro bog‘langan gaplar vositasida javob berdi.

3 ball – to‘g‘ri javob berib topshiriqni bajara oldi, lekin javoblar yetarli darajada to‘liq emas.

2 ball – topshiriqni yo‘naltiruvchi savollar asosida bajara oldi.

1 ball – topshiriqni bajarish davomida tekshiriluvchining yordami va yo‘naltiruvchi savollaridan foydalandi. Hikoya qilish (predmetlar, ularning xatti-harakatlari va sifatlarini so‘zli tasvirlash)da ketma-ketlik va o‘zaro bog‘liqlik mavjud emas.

0 ball – topshiriqni bajara olmadi.

1. “Hayvonot bog‘i” metodikasi

Maqsad: yovvoyi hayvon rasmini quyida berilgan reja asosida tavsiflash orqali ekspressiv lug‘at boyligini, bog‘langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlash.

Jihoz: turli yovvoyi hayvonlar tasvirlangan predmetli rasmlar.

Ko‘rsatma: Tekshiruvchi bolaga rasmga diqqat bilan qarab, quyidagi reja asosida uni tavsiflab berishni taklif etadi:

A) Tashqi qiyofasi.

B) Nima bilan oziqlanishi.

2. “Predmetlarni taqqoslash” metodikasi

Maqsad: kuzatuvchanlik, predmetlarni detallari, qismlari va sifatlarini aniq tasvirlay olish malakalarini tekshirish.

Jihoz: nomi bir, lekin bir-biridan bir necha belgi va detallar bilan farqlanuvchi buyum va o‘yinchoqlar. Masalan, ikkita chelak, ikkita ko‘ylak, ikkita qoshiq va h.k.

Ko‘rsatma: Tekshiriluvchi bolaga bir-biridan ba’zi belgi va detallar bilan farqlanuvchi ikkita predmetlarni ko‘rsatib: “Men biri haqida hikoya qilaman, sen esa ikkinchisi haqida so‘zlab berasan. Biz navbatma-navbat ular haqida

hikoya qilamiz”. Masalan, tekshiruvchi: “Meni chelagim katta”, bola: “meni chelagim kichkina”. Tekshiriluvchi: “Meni chelagim yashil rangda, ushlagichi esa oq rangda”, bola: “Meni chelagim qizil rang, ushlagichi sariq rangda” va h.k.

3. “Topishmoqlar tuzish” metodikasi

Maqsad: bolalarning kuzatuvchanlik, ekspressiv lug‘at boyligini, bog‘langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlash.

Jihoz: bir necha predmetli rasmlar.

Ko‘rsatma: A) Bolaga ma’lum predmet rasmi berilib, quyidagi reja asosida topishmoq matni tuzish taklif etiladi:

- Shakl qanday?
- Rangi qanday?
- Ovozi qanday?
- Ta’mi qanday?
- Hidi qanday?

B) Bolaga ma’lum predmet rasmi berilib, 3 elementlardan iborat topishmoq tuzish taklif etiladi: birinchi tasvirlovchi qism, vositachi (“o‘xshashlik”) va qarama-qarshi (“farqli”) qismlar.

4. «Yil fasllari» metodikasi

Maqsad: Bolalarda yil fasllari haqidagi bilimlarni, ekspressiv lug‘at boyligini, bog‘langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlash.

Jihoz: Yil fasllari tasvirlangan rasmlar.

Ko‘rsatma: Bolaga rasm ko‘rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning har bir qismida yilning qaysi fasllari tasvirlanganligi haqida so‘raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berishi, balki fasllarning belgilarini ko‘rsatib bera olishi va ushbu qism aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.

5. “O‘yinchoqni olib berishga yordamlash” metodikasi

Maqsadi: bog‘langan nutq, rasmda tasvirlangan vaziyatni butunligicha idrok etish, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur negizilarini shakllanganlik darajasini aniqlash darajasini tekshirish.

Jihoz: syujetli rasm – xonada bola, qo‘lida kalit ushlab turibdi, uni to‘g‘risida devordagi mixda (bola uchun yuqori) paketda o‘yinchoq osilgan. Xonani burchagida katta va kichik stul turibdi.

Ko‘rsatma: tekshiruvchi bolaga rasmni ko‘rsatib: “Bola o‘yinchoq‘ini o‘ynamoqchi, lekin uni olishga bo‘yi yetmayapti. Bola o‘yinchoq‘ini qanday qilib olishi mumkin?” - deydi. Bola topshiriqni bajarishga qiynalsa, yo‘naltiruvchi savollar yoki o‘xshash vaziyatni eslatish usulidan foydalaniladi.

6. “Kesma rasmlar” metodikasi

Maqsadi: og‘zaki bog‘langan nutq rivojlanganlik darajasini, ob’ektlar va vaziyat sabab-oqibat aloqa va munosabatlarini aniqlash xususiyatlarini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o‘zaro mosligini tekshirish.

Jihoz: syujetli ketma-ketlikga ega beshta rasm.

Ko‘rsatma: Tekshiruvchi bolaga syujetli rasmlar noto‘g‘ri ketma-ketlikda berilib: “Rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtir va hikoya tuzib ber” – deydi. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, rasmlar asosida suhbat olib boriladi.

7. “Syujetli rasmlar” metodikasi

Maqsadi: og‘zaki bog‘langan nutq rivojlanganlik darajasini, ob’ektlar va vaziyat sabab-oqibat, fazo-vaqt aloqa va munosabatlarini aniqlash xususiyatlari, fikrlash, mushohada qilish, xulosalash va mulohazalarni asoslash, yashirin mazmunga ega syujetlarni tahlil etishni rivojlanish darajasini tekshirish.

Jihoz: topshiriqni olti varianti uchun rasmlar:

A) yaqqol mazmunli syujetli rasm.

B) yashirin mazmunli syujetli rasm.

- V) yaqqol mazmunli syujetli rasmlar seriyasi.
- G) yashirin mazmunli syujetli rasmlar seriyasi.
- D) xatti-harakatlar yakunlanmagan syujetli rasmlar seriyasi.

8. “Geometrik o‘yinlar” metodikasi

Maqsadi: mayda qo‘l motorikasini, konstruksiyalash ko‘nikmalarini tekshirish, fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmasini tekshirish.

Jihoz: 6 ta sanoq tayoqchalari.

Ko‘rsatma: Tekshiruvchi bolaga 6ta sanoqli tayoqcha hamda xuddi shunday 6 ta tayoqchadan yasalgan uycha namuna sifatida ko‘rsatadi. So‘ng namunadagi kabi uycha yasab berishni taklif etadi. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo‘naltiruvchi savol va ko‘rsatmalar beriladi.

9. “Ko‘p, oz, barobar” o‘yin metodikasi

Maqsadi: og‘zaki bog‘langan nutq rivojlanganlik darajasini, matematik tasavvurlarni rivojlanish darajasini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o‘zaro mosligini tekshirish.

Jihoz: sanoq cho‘plari, geometrik shakllar, turli miqdordagi predmetlar chizilgan kartochkalar va h.k.

Ko‘rsatma: Tekshiruvchi bolaga bir raqamni ko‘rsatib, “ko‘p”, “oz”, “barobar” so‘zlarini aytganda, bola shu so‘zlarga mos miqdordagi narsalarni ko‘rsatishlari kerak. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo‘naltiruvchi savol va ko‘rsatmalar beriladi.

10. “Rasmlı domino” o‘yin metodikasi

Maqsadi: og‘zaki bog‘langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko‘rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o‘zaro mosligini tekshirish.

Jihoz: “rasmlı domino” o‘yini uchun to‘plami.

Ko'rsatma: Tekshiruvchi o'ziga va bolaga 5tadan domino beradi va o'yin qoidalarini tushuntiradi: "men bir dominoimni stolga qo'yaman, sen esa bu dominoning ikkala chetidagi rasmni diqqat bilan qarab, so'ng qo'lingdagi dominolardan mos rasmligini topib, uni meni dominoimni oldiga qo'yasan". Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar beriladi.

11. "Singan piyola" metodikasi

Maqsadi: bolalarni og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, o'zaro sabab-oqibat aloqalari bilan bog'langan hodisalarni tushunish xususiyatlarini tekshirish.

Jihoz: syujetli rasm: "xonaning o'rtasidagi dumaloq stolda idishlar turibdi. Stolning oldida bola turibdi, u stolning tagidagi singan piyolagi qarayapti. Polda singan piyolaning oldida koptok bor" (sabab – bola xonada koptok o'ynagan; birinchi oqibat – koptok piyolaga tegib ketdi; ikkinchi oqibat – piyola sindi).

Ko'rsatma: Tekshiruvchi bolaga rasmni diqqat bilan ko'rib chiqib, unda nima tasvirlanganini hikoya qilib berish taklif etiladi. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, "Stolda nima bor? Polda nima yotibdi? Bola koptok bilan nima qilayotgan edi? Koptok qayerga tushdi? Piyolaga nima bo'ldi?" kabi yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar orqali syujetni idrok etish va tushunish faollashtiriladi.

12. "Jonli surat" o'yin metodikasi (guruhli tarzda o'tkaziladi).

Maqsad: og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko'rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini tekshirish.

Jihoz: qo'g'irchoq va o'yinchoqlar.

Ko'rsatma: Bolalarga stoldagi biron-bir qo'g'irchoq va o'yinchoqni tanlab, uni diqqat bilan ko'rib chiqish taklif etiladi. So'ng ko'zni yumgan holda u

tanlagan o'yinchog'ini guruhdagi bolalarga shunday tasvirlab borishi kerakki, u tasvirlagan bolani qolganlar anglab olsun.

13. "Juft so'zlar" o'yin metodikasi

Maqsad: og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko'rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini tekshirish.

Jihoz: predmetli rasmlar to'plami.

Ko'rsatma: Bolaga bir necha so'zlarni eslab qolishni taklif etiladi, (5-6 tadan boshlash mumkin) har birini boshqa so'z bilan juft holda beriladi. Dastlab so'zlar predmetli rasmlar bilan mustahkamlangan tarzda va ma'nosi jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi. Masalan, siz bu kabi juftlarni aytasiz: mushuk-sut, mashina-g'ildirak, stol-dasturxon va shu kabilar va boladan har bir juftning ikkinchi so'zini eslab qolish so'raladi. Keyin juftning birinchi so'zini aytasiz bola esa ikkinchi so'zni eslashi va aytishi lozim. Topshiriqni sekin-asta rasmlar bilan mustahkamlamasdan, juft so'zlar miqdorini ko'paytirish va mazmunan bog'lanmagan juft so'zlarni tanlab berish bilan qiyinlashtirib boriladi.

14. "Bekinmachoq" o'yin metodikasi

Maqsad: ko'rish idrokini, diqqatini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini, ko'makchilarni tushunish darajasi, nutqning grammatik tomonini shakllanish darajasini tekshirish.

Jihoz: kichik hamjmdagi o'yinchoqlar to'plami.

Ko'rsatma: Tekshiruvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan o'yinchoqlarni bolaga ko'rsatmagan holda turli joylarga yashirib qo'yadi. So'ng bolani chaqirib shunday deydi: "Sehrgar bu xonaga bir necha kichik sovg'alarni sehrlab yashirib qo'ygan va mana bu maktubni tashlab ketgan. U bizga sehrlangan sovg'alarni topishda yordam beradi. Biz birgalikda ularni izlab topishimiz kerak, men ularni qayerdaligini maktubdan o'qib beraman, sen esa ularni izlab topasan. Xo'sh,

birinchi sehrlangan sovg'a stolning o'ng tepa tortmasida, ... ". Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, unga yo'naltiruvchi savol va ko'rsatmalar beriladi.

2. Eksperimental tadqiqotning ta'kidlovchi bosqichining natijalari

Ta'kidlovchi eksperiment Toshkent shahar Sergeli tumani 353-sonli maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazildi. Eksperimentga 6-7 yoshdagi 10 nafar maktabgacha yoshdagi aqli zaif tarbiyalanuvchilar jalb etildi.

Eksperimental tadqiqotning ta'kidlovchi bosqichini amalga oshirish natijasida bolalarda bir qator ikkilamchi nutq kamchiliklari ko'zga tashlandi. Ta'kidlovchi tadqiqot natijalarini tahlil etish asosida aqli zaif bolalarni nutqini shakllanishi orqada qolishi bilan birga nutqga ehtiyoj tug'diruvchi omillarni ham shakllanmaganligi ko'zga tashlandi. Jumladan, mo'ljal olish xatti-harakatlarini shakllanmaganligi, atrofdagilarga qiziqishni va predmetli faoliyatni rivojlanmaganligi ham shular jumlasidandir. Mazkur barcha muhim omillar nutqni mazmuniy tomonini hamda grammatik qurilishini rivojlanishiga negiz bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bolalarda kattalar nutqiga taqlid sust tarzda namoyon bo'lishi kuzatildi. Ko'p hollarda bolalar vaziyatli ko'rsatmalarga javob reaksiyasini ko'rsatmadilar, qaratilgan nutqni ohangiga e'tibor qaratib, mazmuniga diqqat qilmadilar.

Aqli zaif bolalar uzoq muddat davom etuvchi nutqga kam e'tibor qaratishdi. Aksariyat tekshiriluvchilar nutqni yetarli darajada diqqat bilan tinglamay, natijada javob berishni kechikish bilan boshladilar.

Birinchi tekshiruv metodikasi bo'yicha topshiriqni bajarishda aksariyat bolalar zebra, begemot kabi hayvonlarni reja asosida tasvirlar berishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Topshiriqni bajarishda bolalar qisqa jumladan, sodda gaplardan foydalanishdi. Hech qaysi tekshiriluvchi topshiriqni bajarishda aniq, ravon, o'zaro bog'langan javob bera olmadi. 2 nafar tekshiriluvchi topshiriqni bajarishda to'g'ri, lekin to'liqsiz javob berishdi, 6 nafar bola topshiriqni yo'naltiruvchi savollar asosida bajarishda, 2 nafar bola o'zaro bog'liq bo'lmagan, amorf so'zlardan iborat javoblar berishdi.

Ikkinchi topshiriqni bajarishda bolalar real predmetlarni taqqoslashda multisensor yondashuv mavjudligi hamda tayyor nutqiy andozadan foydalanish imkoniyati borligi sababli, nisbatan yaxshiroq natijalar ko'rsata olishdi. Topshiriq bajarishda 1 nafar bola to'liq, aniq va o'zaro bog'langan javoblar bera oldi, 3 nafar tekshiriluvchilar to'g'ri, lekin noto'liq javob berishdi, qolgan bolalar topshiriqni bajarishda antonimlar, rang va shakl bilan bog'liq leksik kamchiliklar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Uchinchi tekshiruv metodikasi ikki bo'limdan iborat bo'lib, topshiriqni birinchi bo'limi nisbatan sodda bo'lib, tekshiriluvchilar yo'naltiriluvchi savollar asosida topishmoq matnini tuzish taklif etildi. Aksariyat, bolalar topshiriqni bajarishda bevosita namunaga asoslangan holda bir qator xatolarga yo'l qo'yishdi. Ba'zi bolalar berilgan predmetlarni tasvirlashda mazkur predmet haqida noto'liq, fragmentar tasavvurlarga egaligi ko'zga tashlansa, ba'zi bolalar bevosita lug'at boyligini kambag'alligi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Uchinchini ikkinchi qismini bajarishda aksariyat bolalar predmetlararo munosabarlarni va bog'lanishlarni tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Faqar 3 nafar tekshiriluvchigina yo'naltiruvchi savollar asosida topshiriqni bajara olishdi. 2 nafar tekshiriluvchilar yordam asosida qisqa jumalardan iborat topishmoq tuza oldilar. Qolgan tekshiriluvchilar topshiriqni bajara olmadilar.

To'rtinchi tekshiruv metodikasi bo'yicha topshiriqni bajarishda aksariyat bolalar yil fasllarini to'g'ri javob berishdi, ammo yil fasllarini xususiyatlari bilan bog'liq tabiat o'zgarishlarini aniq, to'liq va o'zaro bog'langan tarzda tasvirlab berishda qiynalishdi. 1 nafar tekshiriluvchi nisbatan to'liq va bog'langan javob bera oldi, 2 nafar bola to'g'ri, lekin noto'liq javoblar berishdi, 4 nafar bolalar yil fasllaridagi tabiat xususiyatlari tasvirlashda yo'naltiruvchi savollardan foydalanishdi, 2 nafar bola faqatgina yil fasllarini nomlab berib, ularni tasvirlashda qiyinchiliklarga duch keldi. 1 nafar bola topshiriqni bajarishda qiyinchiliklarga duch keldi.

Beshinchi o'yin metodikasini bajarishga kirishishda aksariyat bolalar katta qiyinchiliklarga duch kelishdi. 3ta bola topshiriqni faqatgina yo'naltiruvchi savollar va shaxsiy tajribaga asoslangan holda bajara olishdi, 5ta bola topshiriqni bajarish vaqtida ko'rsatma va yo'naltiruvchi savollardan to'g'ri foydalana olishmadi. Qolgan bolalar topshiriqni bajarishdan bosh tortishdi.

Oltinchi "Kesma rasmlar" metodikasini bajarishda 1ta tekshiriluvchi syujetli ketma-ketlikka ega beshta rasmni to'g'ri, ketma-ketlikda joylashtirib, qisqa hikoya tuzib bera oldi. 1ta tekshiriluvchi rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirib berdi, lekin hikoya tuzib bera olmadi. 6ta tekshiriluvchilar topshiriqni yo'naltiruvchi savollar va ko'rsatmalar asosida bajara olishdi. Qolgan bolalar topshiriqni bajarishda xatolarga yo'l qo'yib, ko'rsatma va yo'naltiruvchi savollardan foydalana olmadilar.

Yettinchi "Syujetli rasmlar" metodikasini bajarishda topshiriqni "a" va "b" variantlarini aksariyat bolalar ko'rsatma va yo'naltiruvchi savollar asosida bajara olishdi. Yaqqol mazmunli syujetli rasmlar seriyasini ("v" band) ikki nafat bola to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirib berib, qisqa hikoya tuzib bera oldilar. Qolgan bolalar topshiriqni mazkur bandini bajarishda ko'rsatma va yo'naltiruvchi savollardan foydalanishdi. Topshiriqni "g" va "d" topshirig'ini bajarishda bolalar katta qiyinchiliklarga duch kelishdi. Aksariyat bolalar topshiriqni bajara olmadilar.

Sakkizinchi "Geometrik o'yinlar" metodikasini bajarishda tekshiriluvchilarning aksariyati katta qiziqish namoyish etdilar. 3ta tekshiriluvchi topshiriqni ijobiy tarzda bajara oldi, 6ta bola topshiriqni ko'rsatmalar va yo'naltiruvchi savollar asosida bajara oldi. 1ta tekshiriluvchi topshiriqni bajarishda logopedning bevosita yordami bilan bajara oldi.

To'qqizinchi "Ko'p, oz, barobar" o'yin metodikasi guruhli tarzda o'tkazilib, og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, matematik tassavvurlarni rivojlanish darajasini, tafakkur va nutq rivojlanish darajalarini o'zaro mosligini tekshirishga qaratilgan edi. Mazkur topshiriqni bajarishda bolalar ko'rsatmalarni tinglash mobaynida diqqatlarini jamlay olmaganliklari

sababli, topshiriqni dastlabki qismida ko'p xatoliklarga yo'l qo'yishdi. Keyinchalik xatolar soni qisqardi, biroq ba'zi bolalarda xatolar soni o'zgarmay qoldi. Biz xar bir bolani yo'l qo'ygan xatolarini aniqlagan xolda, olingan natijalarni to'g'ri javob va xatolarga nisbatan baholadik.

O'ninchi "Rasmlı domino" o'yin metodikasini o'tkazishda tekshiriluvchilar o'yin qoidalarini tushunishga qiynalishdi. Tadqiqotga jalb qilingan bolalar juda ham qo'zg'aluvchan va tormozlanuvchi ekanligi, diqqatlarining tarqoqligi va qiziqishlarining pastligi, intilishning kuchsizligi aniqlandi. Bolalarda o'yin davomida diqqatsizliklari, xotira va kuzatuvchanlikni sust rivojlangani, sabab-oqibat munosabatlarni tushunishni qo'pol buzilganligi kuzatildi.

O'n birinchi topshiriqda bolalarning og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, o'zaro sabab-oqibat aloqalari bilan bog'langan hodisalarni tushunish xususiyatlarini tekshirishga qaratilgan bo'lib, topshiriqni bajarishda hech kim mustaqil ravishda bajara olmadi. Ko'pchilik (7ta) bolalar topshiriqni ko'rsatma va yo'naltiruvchi savollar asosida katta qiyinchiliklar bilan bajara olishdi. 2 nafar bola topshiriqni savol-javob tariqasida, qisqa javoblar bilan bajardi. 1 nafar bola topshiriqni bajarishda ko'rsatma va yo'naltiruvchi savollardan to'g'ri foydalana olmadi.

O'n ikkinchi "Jonli sur'at" o'yin metodikasi guruhli tarzda o'tkazilib, og'zaki bog'langan nutq rivojlanganlik darajasini, ko'rish idrokini, diqqatini rivojlanish darajasini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajalarini tekshirishga qaratilgan. Mazkur topshiriqni bajarishda bolalardagi kuzatuvchanlik, xotira va bog'langan nutqni rivojlanish darajasi, diqqatsizligi bilan bog'liq kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlandi. 2 nafar bola o'z o'yinchog'ini nisbatan keng tasvirlab bera oldi, 4 nafar bola topshiriqni yo'naltiruvchi savollar asosida bajardi. 2 nafar bola savollarga qisqa bir-ikki so'zli jumlar bilan javob berishdi.

O'n uchinchi topshiriqni bajarishda bolalar predmetli rasmlar asosidagi ma'no jihat bir-biriga yaqin so'zlarni eslab qolishda qiyinchiliklarga duch

kelishmadi. Biroq topshiriq murakkablashib, soʻzlar miqdori oshirilgan sari, xatolar soni koʻpayib bordi. Bolalar 10 ta soʻz juftligidan 3-4 tasini toʻgʻri nomlay oldilar. Aksariyat bolalar topshiriqni bajarish davomida lugʻat boyligini kambagʻalligi, qisqa muddatli xotirani rivojlanmaganliklarini namoyon etdilar.

Yakuniy oʻn toʻrtinchi topshiriqni amalga oshirish davomida aqli zaif bolalarning impressiv nutqini tushunishdagi yaqqol kamchiliklar namoyon boʻldi. Mazkur kamchilik diqqatini, kuzatuvchanlik, xotirasini rivojlanish darajasini, koʻmakchilarni tushunish darajasi, nutqning leksik-grammatik tomoni rivojlanishini orqada qolganligi asosida yuzaga kelib, aqli zaif bolalarda nutqiy koʻrsatmalarni tushunish va u asosida topshiriqni bajarish jarayonida koʻp xatoliklar yuzaga kelishiga sabab boʻldi. Topshiriqni 1tagina tekshiriluvchi hech qanday yoʻnaltiruvchi savollarsiz, 2ta tekshiriluvchi toʻgʻri, lekin bir necha xatolar bilan bajara oldi. 4ta tekshiriluvchi topshiriqni soʻzli koʻrsatmani bir necha bor takrorlash va qoʻshimcha koʻrsatmalar berish asosida bajara olishdi. 3ta bola tekshiruvni bajarishda koʻrsatmani oxirgacha tinglamay, diqqatini bir joyga jamlay olmasliklari oqibatida topshiriqni koʻpgina xatolar bilan, yoʻnaltiruvchi savollar va qoʻshimcha koʻrsatmalar asosida uddalay olishdi. 2ta tekshiriluvchi bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlardan keyin topshiriqni bajarishdan bosh tortishdi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini oʻyin texnologiyalari asosida tekshirish natijalari

1-jadval

№	Metodikalar nomi	Topshiriq bajarish natijalari (%)					Oʻrta cha
		4	3	2	1	0	
1	“Hayvonot bogʻi” oʻyin metodikasi	-	20%	60%	20%	-	2b
2	“Predmetlarni taqqoslash” oʻyin metodikasi	10%	30%	20%	30%	10%	2b
3a	“Topishmoqni tuzish”	-	30%	40%	20%	10%	1,9b

	o‘yin metodikasi (birinchi topshiriq)						
3b	“Topishmoqni tuzish” o‘yin metodikasi (ikkin- chi topshiriq)	-	-	20%	30%	50%	0,7b
4	“Yil fasllari” meto- dikasi	10%	20%	40%	20%	10%	2b
5.	“O‘yinchoqni olib berishga yordamlash” o‘yin metodikasi	-	-	30%	50%	20%	1,1b
6.	“Kesma rasmlar” meto- dikasi	10%	10%	60%	20%	-	2,1b
7.	“Syujetli rasmlar” metodikasi	-	10%	20%	30%	50%	1b
8.	“Geometrik o‘yinlar” metodikasi	10%	20%	60%	10%	-	2,3b
9.	“Ko‘p, oz, barobar” o‘yin metodikasi	10%	10%	70%	10%	-	2,2b
10.	“Rasmli domino” o‘yin metodikasi	10%	30%	50%	10%	-	2,4b
11.	“Singan piyola” metodikasi	-	20%	70%	10%	-	2,1b
12.	“Jonli sur‘at” o‘yin metodikasi	20%	20%	40%	10%	10%	2,3b
13.	“Juft so‘zlar” o‘yin metodikasi	-	30%	40%	20%	10%	1,9b
14	“Bekinmachoq” o‘yin metodikasi	10%	20%	40%	30%	-	2,1b

II bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotimizning ta'kidlovchi bosqichini amalga oshirish natijasida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda bir qator ikkilamchi nutq kamchiliklari ko'zga tashlandi. Ta'kidlovchi tadqiqot natijalarini tahlil etish asosida aqli zaif bolalarni nutqini shakllanishi orqada qolishi bilan birga nutqga ehtiyoj tug'diruvchi omillarni ham shakllanmaganligi ko'zga tashlandi. Jumladan, mo'ljal olish xatti-harakatlarini shakllanmaganligi, atrofdagilarga qiziqishni va predmetli faoliyatni rivojlanmaganligi. Mazkur barcha muhim omillar nutqni mazmuniy tomonini hamda grammatik qurilishini rivojlanishiga negiz bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bolalarda kattalar nutqiga taqlid sust tarzda namoyon bo'lishi kuzatildi. Ko'p hollarda bolalar vaziyatli ko'rsatmalarga javob reaksiyasini ko'rsatmadilar, qaratilgan nutqni ohangiga e'tibor qaratib, mazmuniga diqqat qilmadilar.

Tadqiqotga jalb qilingan bolalar juda ham qo'zg'aluvchan va tormozlanuvchi ekanligi, diqqatlarining tarqoqligi va qiziqishlarining pastligi, intilishning kuchsizligi aniqlandi. Bolalarda o'yin davomida diqqatsizliklari, xotira va kuzatuvchanlikni sust rivojlangani, sabab-oqibat munosabatlarni tushunishni qo'pol buzilganligi kuzatildi. Bularning barchasi bizga maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini didaktik o'yinlar asosida rivojlantirishga qaratilgan korreksion – rivojlantiruvchi ishlar mazmunini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

III bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI TAYYORLOV GURUHLARDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATIDA NUTQIY MULOQOTNING FAOLLIGINI OSHIRISH

1. Didaktik o‘yin jarayonida aqli zaif bolalarning nutqiy muloqotini tashkil qilish

O‘yin bola faoliyatining shunday turlaridan biriki, kattalar maktabgacha yoshdagilarni tarbiyalash maqsadida ularni buyumlar bilan turli xil harakatlarga, muloqot usullariga va vositalarga o‘rgatib foydalanadilar. O‘yindan bola shaxs sifatida foydalanadi. Unda psixikaning shunday tomonlari shakllanadiki, ularga kelgusidagi o‘quv va mehnat faoliyatining, uning odamlar bilan munosabatining muvaffaqiyati bog‘liq bo‘ladi. O‘yin rivojlanishning eng yaqin zonasini ta‘minlovchi, aqli zaif bolaning psixologik qiyofasi shakllanishiga rivojlantiruvchi, ta‘sir ko‘rsatuvchi yetakchi faoliyat bo‘lishi lozim. Aqli zaif bolaga o‘yinning mustahkam, izchil tashkil topishiga to‘sqinlik qiluvchi ko‘pgina sabablar orasida, eng avvalo bosh sababni – bosh miya po‘stlog‘i internativ faoliyatning rivojlanmaganligini ko‘rsatish mumkin. Bu statik funksiyalarni, nutqni egallashdagi, kattalar bilan mo‘ljal olish va buyumlar bilan faoliyat davridagi emotsional-ishchan muloqotni egallash muddatlarining kechikishiga olib keladi. Bolaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik sharoitlarning yo‘qligi va aqlan zaif bolaning maktabgacha yoshda yopiq tipdagi muassasada bo‘lganligi o‘yinning tashkil etilishida og‘ir aks etadi.

Zaruriy emotsional taassurotlar oqimidan mahrum bo‘lgan intellektual rivojlanmaganligi bor bola faqat tor doiradagi shaxslar, buyumlar haqida tasavvurga ega bo‘ladi; uning hayoti chegaralangan monoton sharoitlarda kechadi. Aqlan zaif bolalar rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq holda normal rivojlanayotgan bolalardan ham ko‘proq kattalarning maqsadga yo‘naltirilgan o‘rgatuvchi ta‘siriga muhtoj bo‘ladi. Jamoaviy tajribani shiddatli o‘zlashtirish, ayniqsa, ilk yoshda ularda deyarli kuzatilmaydi. Intellektida nuqsoni bor bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq qiluvchi olimlar, ularda birinchi navbatda patologik inertlikni, atrofga qiziqish yo‘qligini ta’kidlaydilar. Shuning

uchun bu bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish uchun ta'sir o'tkazishni quyidagi usullari alohida o'rin tutadi: bu nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan, ularning bilish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan. Shu tariqa boladagi organik nuqsonga atrof olamning qashshoq va ba'zan buzilgan obrazi qo'shiladi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasida o'yinlarda, bolalarning mustaqilligi va ijodkorligi darajasiga asoslangan klassifikatsiyasi tarkib topgan. Shunday qilib bolalar o'yinlari 2 guruhga bo'linadi: Ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar. Ijodiy o'yinlarga bola topqirligini, tashabbuskorligini, mustaqilligini namoyon qiladigan o'yinlar kiradi. O'yinlarda bolalarning ijodiy namoyon bo'lishi turlicha: Syujet va o'yin mazmunini to'qishdan hayolidagini yaxshiroq amalga oshirishdan tortib adabiy asarlardagi rollarni talqin qilishgacha. Ijodiy o'yinlar quyidagilarga bo'linadi:

- rejissyorlik;
- teatrlashgan;
- syujetli-rolli;
- qurilish materiali bilan o'yinlar.

An'anaviy pedagogikada rejissyorlik o'yinlari syujetli-rolli o'yinlar o'zanida qaralganligini ta'kidlash lozim.

Oxirgi paytlarda rejissyorlik o'yinlarini syujetli rolli o'yinlarning mustaqil turi sifatida xarakterlovchi tadqiqotlarning paydo bo'lishi munosabati bilan rejissyorlik o'yinlarini ajratish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Rejissyorlik o'yinlarining asosiy farqi shundaki, bu ko'proq individual o'yinlar, unda bola xayolidagi vaziyatni to'liq boshqaradi, bir paytda hamma ishtirokchi uchun harakat qiladi. Qoidali o'yinlar, o'yinlarning alohida guruhi hisoblanadi. Bu guruhdagi o'yinlar ilmiy va xalq pedagogikasi tomonidan bolalarning ta'lim va tarbiyasidagi tayinli vazifalarni hal qilish uchun yaratilgan. Bu o'yinlar tayyor mazmun bilan, o'yinning qat'iy komponenti hisoblangan qoidalar bilan qandaydir topshiriqni bajarish jarayonida ta'lim vazifalari bolaning o'yin harakatlari orqali amalga oshadi. Qoidali o'yinlar 2 ta katta guruhga bo'linadi.

Didaktik o'yinlar va harakatli o'yinlar. Bular o'z navbatida turli asoslarni inobatga olib klassifikatsiyalanadi. Didaktik o'yinlar quyidagilarga bo'linadi.

1) mazmunga ko'ra:

- matematik o'yinlar;
- tabiatshunoslik o'yinlari;
- nutqiy va h.k.

2) Didaktik materialga ko'ra:

- Buyumlar va o'yinchoqlar bilan o'yinlar.
- Stol ustidagi – yozuvli.
- Og'zaki.

Harakatli o'yinlar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1) o'yinning harakatchanlik darajasi bo'yicha:

- kamharakatli;
- o'rtacha harakatli;
- ko'p harakatli;

2) o'yindagi ustuvor harakatlar bo'yicha:

- sakrashlar bilan;
- yugurishlar bilan va h.k.

3) o'yinda foydalaniladigan buyumlar bo'yicha:

- to'p bilan;
- lentalar bilan;
- obruchlar bilan.

Didaktik o'yinlar bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

1) **Aqliy tarbiya.** Didaktik o'yinlarning mazmuni bolalarda hayotdagi hodisalarga, tabiatga, atrof olamdagi buyumlarga to'g'ri munosabatni shakllantiradi, vatan haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi va sistemalashtiradi. Turli kasbdagi va millatdagi kishilar haqidagi, mehnat faoliyati haqidagi tushunchasini kengaytiradi. Didaktik o'yinlar yordamida tarbiyachi bolalarni mustaqil fikrlashga, olingan bilimlardan turli sharoitlarda qo'yilgan vazifaga

muvofig qoydalanishga o'rgatadi. Ko'pgina didaktik o'yinlar aqlan zaif bola oldiga mavjud bilimlardan fikrlash jarayonida ratsional foydalanish vazifasini qo'yadi; atrof olamdagi buyumlar va hodisalarning o'ziga xos belgilarini topish: buyumlarini ayrim belgilarga qarab taqqoslash, guruhlash, klassifikatsiyalash, to'g'ri xulosalar va umumlashtirishlar chiqara olish.

Didaktik o'yinlar bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi.

His qilish va sezgi jarayonlari aqlan zaif bola tomonidan atrof olamni bilish asosida yotadi. Maktabgacha yoshdagi aqlan zaif bolalarning buyumning rangi, shakli, kattaligi bilan tanishishi sensor tarbiya bo'yicha didaktik o'yinlar va mashqlar sistemasini yaratish imkoniyatini beradi.

Didaktik o'yinlar bolalarning nutqini o'stiradi: lug'atini boyitadi va faollashtiradi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish shakllanadi, bog'langan nutq va o'z fikrini bayon qila olish ko'nikmasi rivojlanadi. Didaktik masalalarning ko'pchiligi shunday tuzilganki, aqlan zaif bola buyumlar va hodisalar haqida mustaqil hikoya tuza olsin. Ayrim o'yinlar bolalardan jins va tur tushunchalarini faol ishlata olishni talab qiladi. Ko'pgina og'zaki o'yinlarning vazifasi esa – sinonimlarni, antonimlarni, eshitilishi o'xshash so'zlarni topa olish.

Maktabgacha yoshdagi aqlan zaif bolalarda ularning (o'rab turgan) atrofidagi buyumlarga kattalarning mehnat maxsuli kabi ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish haqida, axloq me'yorlari haqida, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlar haqidagi, shaxsning ijobiy va salbiy sifatlari haqidagi axloqiy tasavvurlar shakllantiriladi.

2. Mehnat tarbiyasi. Ko'pgina didaktik o'yinlar bolalarda mehnat kishisiga hurmatni shakllantiradi, mehnatga qiziqish uyg'otadi, kattalarga mehnatda yordamlashish va mustaqil mehnat qilish istagini paydo qiladi. Ayrim mehnat malakalarini bolalar didaktik o'yinlar uchun material tayyorlash paytida egallaydilar. Bu dastlabki mehnatsevarlikni, mehnat mahsulotlariga ehtiyotkor munosabatni tarbiyalaydi.

3. Estetik tarbiya. Didaktik material gigienik va estetik talablarga javob berishi lozim. Bu material guruh xonasida bolalar qo‘li yetadigan tayinli joyda saqlanadi.

4. Jismoniy tarbiya. O‘yin ijobiy emotsional ko‘tarinkilik yaratadi, yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, biroq asab tizimining aniq yo‘naltirilishini talab qiladi. Bolalarning o‘yin paytidagi harakat faolligi bola miyasini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinchoqlar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar ayniqsa, muhim. Bu jarayonda qo‘llarning kichik motorikasi mustahkamlanadi, bu ham bolaning aqliy rivojlanishida ko‘ngildagidek aks etadi, qo‘llarni rasm chizishga tayyorlaydi. Didaktik va harakatli o‘yinlar orasida syujetli o‘yinlar ham bo‘ladi, ularda o‘ynovchilar rollarni bajaradilar. Qoidali o‘yinlarda bolani o‘yin jarayoni o‘ziga jalb qiladi, o‘yin harakatlarini bajarish, natijaga erishish, yutish istagi kuchayadi.

Maktabgacha ta‘lim pedagogikasida didaktik o‘yinlarni predmetli, stol ustida yozma, og‘zaki o‘yinlarga an‘anaviy ajratish shakllangan.

1. Predmetli o‘yinlar o‘yin materialiga, mazmuniga o‘tkazishni tashkil etishga ko‘ra juda xilma xildir. Didaktik materiallar sifatida o‘yinchoqlardan va real buyumlardan (turmush buyumlari, mehnat buyumlari, dekorativ-amaliy san‘at asarlari va h.k.), tabiat jismlaridan (sabzavot, mevalar, g‘umbaklar, barglar, urug‘lar) foydalaniladi.

Predmetli o‘yinlar turli xil tarbiyaviy-ta‘limiy vazifalarini xal qilish imkonini beradi.

Kichik harakatlar koordinatsiyasini va ularni ko‘z bilan kuzatish nazoratini rivojlantirish uchun motor xarakteridagi didaktik o‘yinchoqlardan foydalanuvchi o‘yinlar tashkil qilinadi. Bunday o‘yinlarda ehtiyotkorlik, sabr-toqat, qat‘iylilik, ziyraklik tarbiyalanadi, joyda mo‘ljall olish mahorati rivojlanadi.

2. Stol ustidagi yozuvli o‘yinlar mazmuniga, ta‘limiy vazifalariga, jihozlanishiga ko‘ra turlichadir. Ular bolalarning atrofdagi olam haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirish va kengaytirishga, bilimlarni sistemalashtirishga, fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagilar uchun tavsiya qilingan didaktik o'yinlar orasida o'xshash suratlar juftligini tanlashga asoslangan o'yinlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, loto o'yinlar, domino, «Labirint» tipdagi o'yinlar ham keng qo'llaniladi. Tasvirlangan buyum yoki syujet bir nechta qismlarga bo'lingan «kesilgan surat», «yeig'iluvchi kubik» kabi stol ustidagi o'yinlar keng tarqalgan. Bu o'yinlar mantiqiy fikrlashda, diqqatni rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Og'zaki o'yinlar shunisi bilan farqlanadiki, ta'lim vazifasini yechish jarayoni fikrlash tarzida, ko'rgazmalilikka tayanmagan tasavvurlar asosida amalga oshiriladi.

Bu o'yinlar orasida topishmoqlar, jumboqlar, ermaklar bilan bog'liq bo'lgan xalq o'yinlari ko'proq. Ularning bir qismi kichik matabgacha yoshdagilarga ham to'g'ri keladi. Chunki ulardan nutqiy bezak obrazli, dialogga asoslangan, mazmunan bola tajribasiga yaqin.

Nutqning rivojlanishidan, eshitish diqqatining shakllanishidan tashqari, og'zaki o'yinlar yordamida emotsional kayfiyat yaratiladi, tafakkur operatsiyalari takomillashadi, reaksiya tezligi qaror topadi, yumor hissi kuchayadi.

A.A.Leontev haqli ravishda ta'kidlagandek: «o'yin qoidalarini egallash – o'z xulqini egallash demak. Aynan, qoidali o'yinlarda bola o'z xulqini boshqarishni o'rganish fakti ularning tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi»³⁴.

A.V.Mendjeritskaya fikriga ko'ra, didaktik o'yinlarning mohiyati shundaki, «bolalar ularda qiziqarli o'yin shaklida taklif qilingan aqliy vazifalarni hal qiladilar, ma'lum qiyinchiliklarni yengib, o'zlari yechim topadilar. Bola aqliy vazifani amaliy, o'yin vazifasidek qabul qiladi, bu uning aqliy faolligini oshiradi». Didaktik o'yinlarning zamonaviy sistemasini yaratishda E.I.Tixeevaning roli ulkan. U atrof muhit bilan tanishish va nutqini o'stirish bo'yicha bir qator o'yinlarni ishlab chiqqan. E.I.Tixeevaning o'yinlari hayotiy kuzatishlar bilan bog'liq va doim so'z bilan yo'g'rilgan. Bolalar nutqini o'stirish

³⁴ Леонтьев А. Н. Психологические основы дошкольной игры // Психологическая наука и образование. – 1996. – №3-25-27.

muammosi, yoshidan qat'iy nazar, doimo maktabgacha tarbiya pedagogi E.V.Tixeeva diqqat markazida bo'ldi. Shunisi qimmatliki, E.I.Tixeeva nutq o'stirishni bola shaxsi shakllanishini boshqa tomonlari bilan chambarchas bog'liq holda qaradi.

Uning tasdiqlashicha nutq – bolaning barcha harakatlarida doimiy yo'ldosh; so'z bola o'zlashtiradigan har bir harakat malakasini mustahkamlashi lozim. Bola nutqining ko'rinishlari ayniqsa, o'yinda va o'yin orqali ko'zga tashlanadi. O'yin va nutq o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud: bir tomondan, nutq o'yinda rivojlanadi va faollashadi, boshqa tomondan o'yinning o'zi nutq rivojlanishi ta'sirida (rivojlanadi) jonlanadi.

Ilk yoshdayoq, deya ta'kidlaydi D.V.Mendjeritskaya, bolada yangi so'zlar paydo bo'lishi bilan, buyumlarning nomini aytish, o'z kechinmalari bilan o'rtoqlashish ehtiyoji tug'iladi va sekin-asta nutq o'yinga ergasha boshlaydi, bolaning harakatlarini to'ldiradi. Go'daklarda nutqlar jo'rligida tasavvurdagi buyumlar bilan o'yinlar paydo bo'ladi, bu obraz yaratilishiga yordam beradi. Kattaroq maktabgacha yoshda ba'zan butun boshli o'yin epizodlari so'zlar yordamida yaratiladi. Didaktik o'yin – ta'lim vositasi, shuning uchun u har qanday dastur materialini o'zlashtirishda qo'llanilishi mumkin va mashg'ulotlarda o'qituvchi defektolog tomonidan ham, tarbiyachi tomonidan ham o'tkazilishi, shuningdek, musiqa mashg'ulotlariga ham kiritilishi, sayrda qiziqarli elementlardan biri bo'lishi mumkin, faoliyatning alohida turi ham bo'lishi mumkin. Didaktik o'yinlarda shunday sharoitlar yaratiladiki, ularda har bir bola ma'lum bir vaziyatda, ma'lum bir buyumlar bilan o'zining shaxsiy ta'sirli va hissiyotli tajribasini orttira borib mustaqil harakatlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ayniqsa, aqlan zaif bolalar uchun juda muhim, chunki ularda buyumlar bilan ishlash tajribasi juda qashshoq, mustahkamlanmagan va umumlashmagan. Aqlan zaif bolaning atrofdagilarga moslashish usullarini o'zlashtirishga, buyumlarning xossalari va nisbatlarini ajratib olish va mustahkamlashiga, u yoki bu harakatni tushunishga normal rivojlanayotgan bolaga qaraganda ancha ko'p takrorlashlar talab etiladi. Didaktik o'yin

takrorlashlarning kerakli miqdorini turli materialda, topshiriqqa emotsional ijobiy munosabatni saqlagan holda ta'minlash imkonini beradi³⁵.

Didaktik o'yinlarni tanlab olishda biz eng avvalo, korreksion maqsadlarni ko'zladik, ilk va maktabgacha yoshdagi aqlan zaif bolaning rivojlanish xususiyatlarini hisobga oldik.

Aqlan zaif bolada hissiy bilish maxsus korreksion ta'sirsiz sekin rivojlanadi. U faoliyat asosi bo'ladigan darajaga erishmaydi. U yoki bu topshiriqni bajarayotib, bola topshiriq shartlarini aniqlay olmaydi, buyumlarning qaysi xossa va nisbatlariga tayanish kerakligini bilmaydi va shuning uchun ijobiy natijaga erisholmaydi.

Sezgi va tasavvurlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan narsa shuki, aqlan zaif bolalar mo'ljal olishning qidiruv usullariga ega emaslar.

Ular yoki buyumning xossasini hisobga olmagan holda kuch bilan natijaga erishishni ko'zlab, xaotik harakatlar qiladilar yoki faqat tanish harakatlarni tanish buyum yoki o'yinchoqqa qo'llaydilar, bu harakatlarni notanish buyumlar yoki notanish vaziyatlarda qo'llay olmaydilar (xatto o'xshash vaziyatlarda ham).

Ba'zan aqlan zaif bola ham urinib ko'rishlar metodidan foydalanadiganga o'xshaydi. Aslida – bu variantlarni bir-bir ko'rib chiqishdir. Axir, izlanish (qidiruv) tajribasi jarayonida bola omadsiz, natijasiz variantlarni tashlab yuboradi va ularga boshqa qaytmaydi. U go'yo omadli urinishlarni mustahkamlaydi, ularni takrorlashga xarakat qiladi. Boshqacha aytganda, urinishlar – bu maqsadga yo'naltirilgan, ijobiy natijaga erishishga qaratilgan harakatdir. Variantlarni ko'rib chiqish esa aqlan zaif bolalarga xos bo'lib, maqsadga yo'nalmagan, tasodifiy xarakter kasb etadi va bolalarning tajribasida mustahkamlanmaydi. Shuning uchun aynan bitta bolaning o'zi, odatda yangi ob'ektlar bilan xaotik yoki kuch ishlatib harakat qiladi va yangi vaziyatlarda notanish materialda darhol ko'rinma taqqoslashga o'ta olmaydi. Ko'rinma taqqoslashni ham variantlarni ko'rib chiqish kabi urinishlar metodiga qo'shib bo'lmaydi. Aqlan zaif bola tomonidan qo'llanadigan ko'rinma taqqoslash ham

³⁵ Менджерицкая Д. В. Воспитателю о детской игре / Под ред. Т. А. Марковой. – М., 1982-145

aslida haqiqiy ko‘rinma taqqoslash bo‘lmaydi, chunki bola ushbu harakat uchun muhim, kerakli belgini ajrata olmaydi. Masalan, piramidachalarni taxlashda u xalqlar kattaligini ko‘rib chamalay olmaydi va sterjenga kichrayib borish tartibida kiritib olmaydi. Aqlan zaif bola shunchaki o‘rganilgan harakatlarni takrorlaydi – sterjenga xalqalarni bir chetdan kiritaveradi. Tasodifan payqalgan xatoni u to‘g‘rilay olishga qodir emas. Shuning uchun odatdagi didaktik o‘yinchoqlar bilan, tanish sanoq materiali bilan qilinadigan, yodlangan harakat sezgining yoki tafakkurning rivojlanishiga ham, aqlan zaif bola faoliyatining rivojlanishiga ham olib kelmaydi.

Shu tariqa, didaktik o‘yining maxsus maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim jarayonidagi alohida roli shu bilan belgilanadiki, o‘yin ta’lim jarayonining o‘zini emotsional, ta’sirchan qilishi, bolaga shaxsiy tajriba orttirish imkonini berishi lozim³⁶.

Me’yorida rivojlanayotgan bolada nutqning rivojlanishi erta boshlanadi. Chuldirash jarayonida fonematik eshitish qobiliyatiga zamin yaratiladi, artikulyatsiya apparati rivojlanadi. Katta odam bilan muloqot davomida passiv lug‘at boyib boradi. Bola bir yoshga yetganda, odatda dastlabki so‘zlar paydo bo‘ladi, ikki yoshda esa – jumlar gapira boshlaydi. Aqlan zaif bola nutq rivojida – hayotining birinchi oylaridayoq go‘dakligidanoq orqada qoladi. Keyinchalik bu kechikish yanada o‘sib boradi. Natijada, maktabgacha yoshning boshida uning nutqiy rivojlanishdagi buyum faoliyati kabi zaminlar shakllanmagan bo‘ladi, atrofqa qiziqish bo‘lmaydi, emotsiyalar yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, fonematik eshitish qobiliyati shakllanmagan, artikulyatsiya apparati yomon rivojlangan bo‘ladi. Ko‘pgina aqlan zaif bolalar maktabgacha yoshning boshida emas, hatto 4-5 yoshda ham gapira olmaydi.

Bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni boshlashi uchun shunday vaziyat yaratish kerakki muloqot zarur shart bo‘lsin. Muloqot deganda yodlangan jumlar bilan almashish tushunilmasligi lozim. Masalan, o‘yin mazmuni hali bolalarga unchalik tushunarli bo‘maganda ularda muloqot istagi tug‘ilmaydi.

³⁶ Аникеева Н.П. Воспитание игрой.-Новосибирск, 1994

Odatda, bunday holda bolalar tarbiyachining ko'rsatmasi bo'yicha ish tutadilar va shu o'yin uchun maxsus yodlangan jumladan foydalanadilar, go'yo muloqot qilayotgandek. Bolalar muloqotga kirishishi lozim bo'lgan didaktik vaziyatlar boshida juda sodda bo'lishi kerak. Muloqot sof nutqli bo'lishi shart emas, boshqacha aytganda muloqotni birgalikdagi harakatlar, imo-ishoralar asosida tuzish maqsadga muvofiq. Lekin bunda pedagog bolalarga kerakli so'zlarni va ifodalarni aytib turishi lozim, bolalardagi paydo bo'lgan muloqotga ehtiyojdan maksimal foydalanish kerak. Bolalar oldidagi vaziyatli masalalar sekin asta murakkablashtirib boriladi, shu bilan birga nutqiy material ham murakkablashtirib boriladi.

Buning hammasi shunga olib keladiki, og'zaki so'zli muloqot endi imo-ishoralar bilan almashtirila olmaydi³⁷.

Bu muammoga nazariy yondashuv maktabgacha yoshdagilar nutqining rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarga asoslanadi, L.S.Vigotskiy, A.A.Leonteva, F.A.Soxina, A.M.Shaxnarovich, D.B.Elkonin ishlarida yoritilgan.

Didaktik o'yinlar – grammatik ko'nikmalarni mustahkamlashning samarali vositasi. Harakatchanligi, o'tkazishning emotsionalligi va bolalarning qiziqishi tufayli ular intellektual nuqsoni bor bolalarga ko'p marta mashq qilish va kerakli so'z shakllarini takrorlash imkonini beradi³⁸.

Har bir didaktik o'yinda dasturiy mazmun belgilanadi. Didaktik vazifaga (dasturiy mazmunga) mos ravishda o'yinchoqlar tanlanadi, ular bilan tegishli grammatik shakllarni hosil qilgan holda turli harakatlarni oson bajarish mumkin.

Bu masalani to'liqroq ko'rib chiqamiz. Didaktik o'yin ko'p tarmoqli, murakkab pedagogik hodisa hisoblanadi. U o'yin metodi ham, aqlan zaif maktabgacha yoshdagi bolani o'qitish shakli ham, mustaqil o'yin faoliyati ham, bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi ham hisoblanadi.

³⁷ Д.Б.Эльконин. Психология игры, М., -1999

³⁸ Сорокина А. И. Дидактические игры в детском саду: (Ст. группы). Пособие для воспитателей дет. сада. – М.: «Просвещение», 1982. – 96 с.

Didaktik o'yin o'qitishning o'yin uslubi sifatida. O'yin mashg'ulotlari yordamida tarbiyachi ma'lum bilimlarni beradi, tasavvurlar shakllantiradi, aqlan zaif bolalarni o'ynashga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar bolalarni matematikaga, ona tiliga o'qitish uchun tabiat va atrof olam bilan tanishtirish uchun, sensor madaniyatni rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Didaktik o'yin ta'lim shakli sifatida 2 qismdan iborat: 1) o'quv (bilim), 2) o'yin (qiziqarli). Pedagog bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'yin ishtirokchisi hisoblanadi. U o'rgatadi va o'ynaydi, bolalar esa o'ynab o'rganadi. Aqlan zaif bolalarni ular uchun faol, intensiv faoliyat vositasida o'qitish – didaktik o'yinlarning ajratib turuvchi xususiyatidir. Biroq ta'kidlash lozimki, o'ynovchilar tomonidan egallanadigan bilim va malakalar ular uchun faoliyatning qo'shimcha mahsuli hisoblanadi, chunki bolalar uchun bosh manfaat ta'limiy vazifa emas, o'yin harakatlari hisoblanadi. Didaktik o'yin mustaqil o'yin sifatida bu jarayonning ongilligiga asoslangan. Aqlan zaif bolalar o'yin harakatlarini mustaqil egallashga va rivojlantirishga qodir emaslar. Bu nazorat funksiyasining pasayishi bilan va bolaning maqsadga yo'nalgan faoliyatining buzilishi bilan bog'liq. U faqat shu holatda amalga oshiriladiki, agar intellektida nuqsoni bor bolalar o'yinga, uning qoidalariga qiziqish bildirishsa, agar bu qoidalar ular tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa. Didaktik o'yin bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Didaktik o'yinlar bola nutqini rivojlantiradi, lug'ati kengayadi va faollashadi, tovushlarning to'g'ri talaffuzi shakllanadi, bog'langan nutq va o'z fikrini ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi. Ko'p o'yinlarning didaktik vazifasi shunday tuzilganki, aqlan zaif bolalarni buyumlar va hodisalar haqida mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi. Ayrim o'yinlar bolalardan jins va tur tushunchasini faol qo'llashni talab etadi. Sinonimlarni, antonimlarni, eshitilishiga ko'ra o'xshash so'zlarni topish ko'pgina og'zaki o'yinlarning vazifasidir³⁹.

³⁹ Проблемы дошкольной игры: Психолого-педагогические аспекты / Под ред. Н. Н. Поддъякова, Н. А. Михайленко. – М., 1986-145.

Nutqning grammatik tuzilishini takomillashtirish masalalarida asosiy vazifa sifatida bolalar nutqidagi turli grammatik xatolarni bartaraf etish emas, balki grammatik umumlashtirishlarni shakllantirish yuzaga chiqadi.

2. Aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarni qo‘llashga qaratilgan ta’limiy eksperiment mazmuni

Ta’kidlovchi tadqiqot asosida biz aqli zaif bolalarni nutqining leksik-grammatik qurilishi, mazmuniy tuzilishi hamda bog‘langan nutqi yetarlicha rivojlanmaganligini aniqladik. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili hamda ta’kidlovchi tadqiqot natijalari asosida aqli zaif bolalar nutqini rivojlantiruvchi didaktik o‘yin texnologiyalarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Ta’limiy tadqiqot bazasi sifatida Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 353-maxsus maktabgacha ta’lim muassasasi tanlandi. Ta’limiy tadqiqot intellektual kamchiliklarga ega tayyorlov guruhi bolalarida kunning birinchi yarmida guruhchali va yakka (individual) mashg‘ulotlarida amalga oshirildi.

Ta’kidlovchi eksperimental tadqiqotda ishtirok etgan 6-7 yoshli 10 nafar tarbiyalanuvchilar tashkil etdi. Mazkur guruhda 3oy (oktyabr, noyabr, dekabr) davomida biz tomondan ishlab chiqilgan didaktik o‘yin texnologiyalari guruh defektologining “Nutq o‘stirish”, “Logoritmika” mashg‘ulotlari hamda maxsus guruh tarbiyachisining korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlari davomida tizimli tarzda qo‘llandi. Nutq kamchiliklarni korreksiyalash, nutq rivojlanishini yuqoriroq darajaga ko‘tarish maqsadida guruhchali va yakka (individual) mashg‘ulotlar o‘tkazilib, mashg‘ulotlar davomida tanlangan maxsus didaktik o‘yin texnologiyalari qo‘llandi. Bundan tashqari mazkur didaktik o‘yin texnologiyalari tarbiyalanuvchilarning ota-onalariga taqdim etilib, bolalarning bo‘sh vaqtida bajarilishi taklif etildi.

Ta’limiy tadqiqot davomida quyidagi didaktik o‘yin texnologiyalari qo‘llandi:

“Ertak bilan o‘yin” texnologiyasi

(Ertakterapiya usullarini qo'llash bilan)

Ertakterapiya – bu ertakdagi voqea-hodisalar va real hayotdagi hulq-atvor o'rtasida aloqa hosil qilish jarayonidir. Bu ertak mazmunini haqiqiy hayotga bog'lash jarayoni.

Ertakterapiya – bu faollik, mustaqillik, ijod, bolani o'z hissiy holatini nazorat qilishga yo'naltirilgan integrativ faoliyat bo'lib, unda tasavvur etilayotgan vaziyatdagi xatti-harakatlar real hayotdagi muloqot bilan bog'lanadi. Mazkur o'yin texnologiyasi nutqni o'stirish mashg'ulotlari davomida o'tkazildi⁴⁰.

Ertakterapiya mashg'ulotining korreksion-rivojlantiruvchi tuzilishi

2-jadval

Bosqich	Maqsad	Bosqich mazmuni
1. Ertakka “kirish” tadbiri	Hamkorlikda ishlashga tayyorlash. Ertakka kirish.	Jamoa bilan o'tkaziladigan mashqlar. Masalan, bolalar aylana shaklida turib, navbatma-navbat bir-biriga koptokni uzatishadi.
2. Takrorlash	O'tgan mashg'ulotni eslash, erishilgan natija va xulosalarni, egallangan tajribani yodga tushirish.	Defektolog bolalarga o'tgan mashg'ulot yuzasidan savollar bilan murojaat qiladi. Masalan, o'tgan darsda qanday mashg'ulot o'tdik? Nimani o'rgandik? Olgan bilimlaringizdan qanday foydalandingiz?
3. Kengaytirish	Bolani ma'lum predmet yoki hodisa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish	Defektolog bolalarga yangi ertakni so'zlab beradi yoki namoyish etadi. So'ng ertak qahramonlaridan qaysi biriga yordam berishni hohlashlarini so'raydi.

⁴⁰ Шорохова О.А. Играем в сказку: Сказкотерапия и занятия по развитию связной речи дошкольников. – М.: ТЦ Сфера, 2008. – 208 с.

	Yangi tajribaga ega bo'lish, bola shaxsini yangi tomonlarini namoyon bo'lishi	Defektolog bolada yangi tajribaga ega bo'lishga imkon beruvchi o'yinlar o'tkazadi; "sayohat", "sehrli aylanish" kabilar amalga oshiriladi.
5. Integratsiya	Yangi tajribani real hayot bilan bog'lash	Defektolog bolalar bilan mashg'ulot davomida egallagan yangi tajribani real hayotlarining qaysi vaziyatlarida qo'llay olishlarini muhokama va tahlil qilishadi.
6. Xulosalash	Egallangan tajribani oldingisi bilan bog'lash.	Defektolog mashg'ulotni yakunlaydi. Mashg'ulot davomida bo'lib o'tganlarni yana bir bor aniq va to'g'ri ketma-ketlikda so'zlab berib, ba'zi bolalarni rag'batlantiradi, egallangan tajribani muhim ahamiyatga egaligini etirof etgan holda yangi tajribani qo'llay olishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatlarni misol tarzda keltiradi.
7. Ertakdan "chiqish" tadbiri	Yangi tajribani mustahkamlash, bolani odatiy ijtimoiy muhit bilan munosabatga kirishishga tayyorlash.	Ertakga "kirish" tadbirini ba'zi qo'shimchalar bilan takrorlash. So'ng defektolog: "biz bugungi mashg'ulotda o'rgangan barcha muhim bilimlarimizni o'zimiz bilan olib ketamiz" deydi, bolalar qo'lini aylana ichiga cho'zib, undan go'yo bir narsa olganday bo'lib, ko'kragiga qo'yishadi.

Ish bosqichlari

1 bosqich. Affektiv holatlarni tushunish va ularni o'zaro farqlash.

Maqsad: ertak syujetini tilning ifoda vositalari yordamida tushunish, musiqiy kompozitsiyani idrok etish, ertak qahramonlarining replikalarini, mimika va xatti-harakatlarini intonatsiya va ifoda bilan takrorlash, ularning hissiy holatlarni ritmlashtirish.

O'yin usullari: so'zli rejissyorlik o'yini, psixogimnastik etyudlar, ritmik mashqlar.

2 bosqich. Hissiy-affektiv vaziyatlarni ta'riflash va muhokama qilish.

Maqsad: yoyiq so'zli ta'riflar tuzish yordamida o'z xulq-atvor reaksiyalarini boshqarish ko'nikmalarini o'zlashtirish, musiqiy kompozitsiyaning tembri, dinamikasi, ohangini idrok etish davomida ma'lum his-tuyg'ularga ega bo'lish, ifodali xatti-harakatlarni bajarish.

O'yin usullari: ta'riflash, pantomimik, ritmik va musiqiy topishmoqlar, relaksatsion mashqlar.

3 bosqich. O'rindosh ehtiyojni ifodalash.

Maqsad: ertak asosidagi fantaziya-o'yinlarda hissiy muammolar va dolzarb kechinma-ehtiyojlarni ifoda etish asosida hissiy xulq-atvor va ta'sirchan jumalarni muvozanatga keltirish.

O'yin usullari: musiqa asosida fantaziya qilish, so'zli tasvirlar, pantomimik mashqlar yordamida uyatchanlik, tortinchoqlik, jamoa oldidagi qo'rquvlarni bartaraf etish.

O'yin texnologiyasida foydalanilgan metod va usullar

So'zli rejissyorlik o'yini bolalarda nutqni rivojlantirish, musiqa asosida ertak qahramonlarining xatti-harakatlari va hissiy holatini tushunish, uni to'liq tasvirlab berish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Yo'naltiruvchi savollar usuli ertak qahramonlarining ovozlari o'xshatib ifoda etishga, *aniqlashtiruvchi savollar usuli* esa jumlalarining mazmunini

tomoni, uning mazmunini turli tomondan tahlil etish, ahamiyatini aniqlashtirishga qaratiladi.

Psixogimnastika usuli - mimika va xatti-harakatlari yanada ta'sirchan ko'rsatib berish, badan mushaklaridagi gipertonuslarni bartaraf etish va mushaklarni tinchlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Hissiy obrazlarni temp va ritmda aks ettirish, ertak qahramonlarining hissiyotlari, xatti-harakatlarini ritmlashtirish mashqi bola organizmida kechayotgan ritmik jarayonlarni me'yoriy kechishiga ta'sir etadi.

Ta'riflash metodi – bolalarga ertakning mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunish, unga mos hissiy javob reaksiyasini chaqirish, boshqa ertaklar bilan o'xshash va farqli tomonlarini o'zaro bog'langan jumla va gaplar vositasida taqqoslash, nutqda obrazli jumla va ertakdagi qaytariluvchi “naqorat”larni faol qo'llashga zamin yaratadi.

Hamkorlikdagi so'zli improvizatsiyalar metodi – defektolog bolalarga ertakni ma'lum epizodini sahnalashtirishni taklif etadi va bolalarga bosh rollarni taqsimlab beradi. Sahnalashtirish davomida bolalar ertakni syujeti asosida ertakka yangi elementlarni kiritishadi, ertak qahramonlarini o'zaro muloqoti asosida bolalar ertak mazmun-mohiyatini chuqur anglashadi.

Musiqiy kompozitsiya asosida fantaziya qilish metodi – bolalar ertak asosidagi musiqani bir qismini tinglagandan so'ng, musiqiy obrazning xarakteri, dinamikasi, ohangi va ritmidan kelib chiqqan tarzda ertak qanday davom etishi mumkinligi haqida mulohazalar yuritishadi, o'z mulohazalarini sahnalashtirishadi⁴¹.

Ta'limiy eksperimental tadqiqot davomida ertakterapiya o'yin texnologiyasi asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar namunasi:

Olako'z laqabli sigir

Uzoq zamonlarda bir qishloqda chol va kampir yashagan ekan. Ularning Olako'z laqabli sigiri ham bor ekan. Olako'z har kuni ko'p sut berib, “Mu-mu!” deya mo'rar ekan.

⁴¹ Зинкевич–Евстигнеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии. - СПб. ООО «Речь», 2000.- 310с.

Kunlardan bir kuni Olako‘z chuqur uyquga ketibdi. Uxlab-uxlab, hech uyg‘onmasmush. Chol va kampir uni uyg‘atolmay rosa yig‘lashibdi.

Kampir sichqonni chaqirib: “Sichqoncha, Olako‘zni uyg‘otib ber, evaziga senga sut beraman” – debdi. Sichqon “Pi, pi, pi uyg‘on! Pi, pi, pi o‘rningdan tur!” deya chiyillabdi. Olako‘z uyg‘onmabdi.

Kampir mushukni chaqirib: “Mushukcha, Olako‘zni uyg‘otib ber, evaziga senga sut beraman” – debdi. Mushuk “Myau, myau, myau uyg‘on! Myau, myau, myau o‘rningdan tur!” deya miyovlabdi. Olako‘z uyg‘onmabdi.

Olako‘zni osmondagi bulutlar ko‘rib qolibdi. Olako‘zdan jahli chiqib lunjlarini to‘ldirib puf-puf deya puflabdi-yu, portlab ketibdi.

Yomg‘ir yog‘a boshlabdi, o‘t-o‘lanlarga, daraxt-u uylarning tomlariga yog‘ibdi. Olako‘z uyg‘onmabdi.

Qattiq momaqalldiroq chaqnab, yomg‘ir yana kuchayibdi.

Olako‘z uyg‘onib ketib, “Mu-mu!” deya mo‘rabdi. Chol va kampir xursand bo‘lib, hammani chaqirib, sut bilan mehmon qilishibdi.

1 bosqich. Affektiv holatlarni tushunish va ularni o‘zaro farqlash

Maqsad:

1. So‘zli rejissyorlik o‘yini:

- Musiqaning xususiyatlari asosida qahramonlarning xatti-harakatlari va hissiy holatini sezish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Bolani hayvonlar nomini erkalash-kichraytirish shakllari bilan tanishtirish (*sichqoncha, mushukcha*);

- Fe‘lning buyruq mayli bilan tanishtirish (*uyg‘on, tur*);

- Hayvonlar ovozi turli intonatsiya (xursandchilik, iltimos) va balandlik (*baland, past, shivirlab*) bilan ifodali imitatsiyalashga o‘rgatish;

2. Psixogimnastika:

- Tabiat hodisalarini ritmitizatsiya asosida tasvirlab berishga o‘rgatish (*yomg‘ir, momaqalldiroq*);

- Hissiy holatlarni mimika va xatti-harakatlarda ta’sirchanlik bilan ifoda etishga o‘rgatish (*g‘am, iltimos, xursandchilik*);

- Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo‘shashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish (*bulut - yomg‘ir*).

Mashgʻulotning borishi

Defektolog: (*bolalarga “Olakoʻz laqabli sigir” ertagini 1 va 2 gaplarini oʻqib beradi, soʻng*) “Bolalar, Olakoʻz xushchaqchaq sigir-mi yoki gʻamgin sigir-mi? Hozir men boshlayman, sizlar esa davom ettirasizlar. Olakoʻzning ovozi gʻamgin emas, uning ovozi ...”

Bolalar: Xushchaqchaq

Defektolog: Ovozi past emas, ...

Bolalar: Baland

Defektolog: Olakoʻzga oʻxshab baland, xushchaqchaq ovozda uzoq moʻrab koʻring-chi: “Mu-mu-mu!”

Bolalar defektolog topshirigʻini bajarishadi.

Defektolog: (*Ertakning 3-5 gaplarni oʻqib beradi*) Chol va kampir qanday yigʻlashini qanday koʻrsatib berish mumkin? Chol va kampirning chehrasi xushchaqchaq emas, ...

Bolalar: gʻamgin

Defektolog: chol va kampir qanday yigʻlashayotganini koʻrsatib bering.

“Gʻam” pantomimik etyudi

Bolalar chol va kampirning yigʻlashini koʻrsatib berishadi: boshlarini chayqab, koʻz yoshlarini artishadi, qoshlari bir-biriga yaqinlashtirilgan.

Defektolog: (*ertakning 6-11 gaplarni oʻqiydi*) Kampir Olakoʻz uygʻonishini juda qattiq hohlaganmi? U mushuk va sichqondan Olakoʻni uygʻotib berishni qanday soʻragan?

Bolalar: Iltimos qilib, erkalab chaqirib soʻragan.

Defektolog: Kimning ovozi pastroq, mushuknikimi yoki sichqonnikimi?

Bolalar: Sichqonnikimi

Defektolog: Toʻgʻri. Demak sichqon Olakoʻzni past ovoz bilan emas, shivirlab uygʻotishga uringan.

Defektolog: Olakoʻzni sichqon va mushukka oʻxshab uygʻotib koʻring.

Bolalar topshiriqni bajarishadi.

Defektolog: (*ertakning 12-15 gaplarni o'qiydi*). Endi musiqani diqqat bilan tinglasangiz ertakdagi Olako'z nima eshitganini eslaysizlar.

Bolalar M.I.Glinkaning «Chernomor marshi» kompozitsiyasining bir parchasini tinglashadi.

Defektolog: Bu qanday musiqa sokinmi yoki qo'rqinchlimi? Balandmi yoki pastmi? Bolalar: Qo'rqinchli va baland.

Defektolog: To'g'ri bu musiqa qo'rqinchli va baland. Bu yomg'ir yog'ish ovozimi yoki momaqaldiraq chaqnashimi?

Bolalar: Momaqaldiraq chaqnashi.

Defektolog: (*ertakning 16-17 gaplarni o'qiydi*). Qo'lingizni stol ustiga qo'yib, barmoqlaringiz bilan stolni tukillatib, avval yomg'ir yog'ishini, so'ng momaqaldiraq gumburlab yomg'ir yog'ishini tasvirlab bering.

“Tabiat xodisalari” ritmitizatsiya mashqlari

Bolalar qo'lini stol ustiga qo'yib, defektolog bilan birgalikda yomg'ir tomchilarini ritmini aks ettirishadi: barmoqlarni yengil va sekin harakati – kichik yomg'ir, qattiq va tez-tez tukillatish – momaqaldiraq chaqnashi.

Defektolog: (*ertakning 18-19 gaplarni o'qiydi*). Keling musiqa asosida bulut lunjlarini ishirib puflab-puflab, so'ng portlab ketib, yomg'ir yog'ishini boshlaganini ko'rsatib beramiz.

Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish mashqi

F. Shopenning Skerzo № 1 musiqasi ostida bolalar aylana bo'lib turib, qo'l, oyoq mushaklarini kuchlantirishadi, lunjlarini ishirishadi. D.D.Shostakovichning “Bayram uvertyurasi” musiqasi ostida lunjlaridagi havoni puflab chiqarishadi, badan mushaklarini bo'shashtirishadi, joyida turib “yomg'ir tomchilari” kabi sakrashadi.

2 bosqich. Hissiy-affektiv vaziyatlarni ta'riflash va muhokama qilish

Maqsad:

1. Psixogimnastika:

- Ertak qahramonlari va ularning affektiv holatini ta'sirchan ifoda asosida aniqlashga o'rgatish (*g'am, taklif, uyqu*);
- Tabiat hodisalarini ritmitizatsiya asosida tasvirlab berishga o'rgatish (*momaqalldiroq chaqnashi, yomg'ir*);
- Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish (*bulut - yomg'ir*).

2. Muhokama qilish:

- Bolalarga ertakning tub mazmun-mohiyatini tushuntirish (do'stlar doim yordamga kelishadi);
- Bolalarni egallagan multisensor tajriba asosida hamkorlikda yoyiq ta'riflar tuzishga o'rgatish;
- Bolalar nutqida hayvonlar nomini erkalash-kichraytirish shakllarini (*sichqon – sichqoncha, mushuk – mushukcha*) va fe'lining buyruq-istak maylini (*uyg'on, tur*) qo'llashni faollashtirish;
- Oddiy jummalarni to'liq gap ohangi bilan so'zlashga o'rgatish.

Defektolog (*bolalarga avvalga darsda so'zlab berilgan “Olako'z laqabli sigir” ertagini hikoya qilib, so'ng bolalarga murojaat qiladi*). Demak, do'stlar doimo bir-biriga qiyinchiliklarni engishga ko'maklashishadi. Do'sting qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi ekan. Eslang, kampir kimlarni yordamga chaqirgan edi?

Bolalar: Kampir mushuk, sichqon, bulutni yordamga chaqirgan.

Defektolog. Kampirga o'xshab: “Sichqoncha (mushukcha, bulutch) Olako'zni uyg'otib ber” va mushukga o'xshab: “Myau, myau, myau uyg'on! Myau, myau, myau o'rningdan tur!” deya javob berib ko'ring.

Bolalar defektolog topshirig'ini bajarishadi.

“Xatti-harakatidan kimligini top!” o'yini

Dastlab bolalar aylana shaklida turib, defektolog bilan birgalikda turli ertak qahramonlarini xatti-harakati, mimikasi va holatini tasvirlashadi. So'ng bolalar stullarga o'tirishadi, defektolog har bir bolani chaqirib ma'lum ertak qahramoni va uning ma'lum vaziyatdagi holatini ko'rsatib berishni taklif etadi

(boshqa bolalarga aytmagan holda). Tomoshabinlar ertak qaxramonlarini topishadi va uni turli vaziyatlarda ta'riflab berishadi. Defektolog bolalarga yo'naltiruvchi savollar orqali ta'riflar tuzishga yordam beradi.

Defektolog. Azizaga diqqat bilan qarang. U qaysi ertak qaxramonini ko'rsatib beryapti?

Bolalar: Aziza kampirni ko'rsatib beryapti.

Defektolog: To'g'ri, buni qanday aniqladingiz? Azizaning ko'zlari g'amgin-mi yoki xushchaqchaqmi?

Bolalar: Azizaning ko'zlari xushchaqchaq.

Defektolog. Azizaning qo'llari ko'ksidami yoki pastga tushirilganmi?

Bolalar: Azizaning qo'llari ko'ksida.

Defektolog. Aziza tez yuryaptimi yoki sekinmi?

Bolalar: Aziza sekin yuryapti.

Defektolog. Aziza qaysi vaziyatdagi kampirni ko'rsatyapti: kampir yig'lab, hayvonlardan Olako'zni uyg'otishni so'rayaptimi yoki xursand bo'lib, hammani sut bilan mehmon qilyaptimi?

Bolalar: Aziza hammani sut bilan mehmon qilayotgan kampirni ko'rsatyapti.

Defektolog: Kampirning qaysi harakatlari sizga uni xushchaqchaq, mehmonga chaqirayotganini tushunishingizga yordam berdi?

Bolalar: Kampir xursand, qo'lini ko'ksida, hammani mehmonga chaqiryapti.

“Bu nimaning ritmi?” o'yini

Dastlab bolalar qo'llarini stolga qo'yib, defektolog bilan birga tabiat hodisalarni ritmlashni esga tushirishadi. So'ng defektolog ertakdagi ma'lum hodisani ritmini tasvirlab berishni istagan taklif etadi. Tinglovchilar uni qaysi hodisaga xosligini aniqlab, uni ritmi dinamikasini ta'riflab berishadi. Bolalar defektolog yordamida ritmik rasmni ta'riflovchi ikki-uchta gap tuzishadi.

Defektolog: Bolalar bu ritm nimaga o‘xshaydi? Yomg‘ir tomchilariga-mi, momaqaldiraq chaqnashigami? Uni qanday ajrata oldingiz? Kamola barmoqlari bilan stolga qattiq tukillattimi yoki sekin-mi? Tez tukillattimi yoki sekinmi?

Bolalar javob berishadi: Kamola barmoqlari bilan engil va tez tukillatdi, demak, bu momaqaldiraq emas, yomg‘ir.

“Musiqani tinglab, javobni top!” o‘yini

Bolalar musiqiy parchalarni tinglab, ularni ertakning qaysi epizodiga oidligini aniqlashadi va muhokama qilishadi: momaqaldiraq chaqnashi (M.I. Glinka. «Chernomor marshi»), yomg‘ir yog‘ishi (F.Shopen, Skerzo № 1). Bolalar defektolog yordamida musiqiy parchani va ertak epizodi dinamikasi va kayfiyatini tasvirlovchi ikki-uchta gap tuzishadi.

Defektolog. Musiqa qanday kayfiyatga ega: qo‘rqinchlimi yoki xushchaqchaqmi? Bu musiqaning maromi tez-mi, sekin-mi? Og‘irm, yengilmi?

Bolalar javob berishadi. Bu musiqa yengil, sho‘x va tez, demak bu momaqaldiraq emas, yomg‘ir tomchilashidir.

Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va

bo‘shashtirish mashqi

F. Shopenning Skerzo № 1 musiqasi ostida bolalar aylana bo‘lib turib, qo‘l, oyoq mushaklarini kuchlantirishadi, lunjlarini ishirishadi. D.D.Shostakovichning “Bayram uvertyurasi” musiqasi ostida lunjlaridagi havoni puflab chiqarishadi, badan mushaklarini bo‘shashtirishadi, joyida turib “yomg‘ir tomchilari” kabi sakrashadi.

3 bosqich. O‘rindosh ehtiyojni ifodalash

Maqsad:

1. Psixogimnastika:
 - Bolalarni o‘z affektiv holatlarini xatti-harakat, mimika va nutqda to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish (*qo‘rquv, xafa bo‘lish*);
 - Motor xulq-atvor va nutqiy reaksiyalarni dinamik muvozanatini koordinatsiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- Badan mushaklarini ixtiyoriy tarzda kuchlantirish va bo'shashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish (*bulut - yomg'ir*).

1. Hamkorlikdagi nutqiy improvizatsiya:

- Bolalarni ertak qaxramonlarini muammoli vaziyatdagi hissiy holatini ta'rifini kengaytiruvchi gaplarni defektolog ketidan davom ettirishga o'rgatish (*bolalar Olako'zni uyg'otadi*).

Jihozlar: Surnaycha, qo'ng'iroqcha.

Defektolog (*bolalarga avvalgi darsda so'zlab berilgan "Olako'z laqabli sigir" ertagini hikoya qilib, so'ng bolalarga murojaat qiladi*). Bolalar eslang, ertakda kampir Olako'z laqabli sigirni uyg'otib berishni kimlardan so'ragan?

Bolalar: Kampir sichqonni va mushukni uyg'otib berishni iltimos qilgan .
Defektolog: Tasavvur qiling-ki sichqon va mushuk uyda yo'q ekan, shuning uchun kampir sizdan sigirni uyg'otishni iltimos qildi. Keling ertakni boshqatdan aytib beramiz, men sigirni kim uyg'otishini galma-galdan aytaman, siz esa uni uyg'otishga harakat qilasiz. Sizga bu ishda surnaycha va qo'ng'iroqcha "Du-du-du uyg'on! Du-du-du o'ringdan tur! Din-din-din uyg'on! Din-din-din o'ringdan tur!" yordam beradi. Bolalar sigirni qo'rqitvormaslik uchun uni qanday ovoz bilan uyg'otamiz? Qo'pol emas, ...

Bolalar: mayin, muloyim uyg'otamiz.

Defektolog. Hozir biz kampirga Olako'z laqabli sigirni uyg'otishga yordam bergan bolalar haqidagi ertakni aytib beramiz.

"Improvizatsiya" o'yini

Defektolog muallif so'zlarini o'qiydi va kampir rolini o'ynaydi. Bolalar galma-gal sigirni uyg'otishadi, uni silab, o'z nutqida ertak qahramoni dialogini hissiy ta'sirchanlik bilan ifoda etishadi.

Defektolog. Kampir Kamronni chaqirib (har bir bolaga navbatma-navbat murojaat qilib): "Kamronjon, Olako'zni uyg'otib ber. Seni sut bilan mehmon qilaman" – deb iltimos qildi. Kamron surnayni chalib, ashula ayta boshladi: "Du-du-du uyg'on! Du-du-du o'ringdan tur!". Olako'z esa uxlab, uyg'onmayapti.

So‘ng defektolog faqat muallif nomidan hikoya qilib, kampir rolini bolalardan biri o‘ynaydi. “Improvizatsiya” o‘yini davom etadi.

Yuqorida keltirilgan namuna o‘yinterapiya texnologiyasining dastlabki, nisbatan sodda material asosidagi ish tizimini aks ettirib, eksperimental tadqiqotning keyin bosqichlarida “Sholg‘om”, “Mushukchaning uyi”, “Qo‘ziqorin”, “Tulkicha-singilcha va bo‘ri” ertaklari asosida ish olib borildi.



Topishmoq tuzishga o‘rgatish texnologiyasi

3-jadval

Bosqichi	Maqsadi	Metodik tavsiyalar
1 bosqich	Predmetlarni shakl, rang, xajm, tuzilishi kabi belgilari bo‘yicha tizimlashtirishga o‘rgatish.	Sayohatni eng sodda topishmoqlardan boshlaymiz. Predmetga topishmoq tuzish uchun uni shakli, rangi, xajmi (boshqa predmetlarga nisbatan), nimadan yasalganini tasvirlab berish joiz. Mazkur bosqich yakunida topishmoqlar o‘yini o‘tkazila boshlaydi. “Ha-yo‘q” o‘yini kiritiladi ⁴² .
2 bosqich	Bolalarni turli xil masalalarni hal qilish maqsadida 5 sezgidan resurs sifatida foydalanishga o‘rgatish.	Shaharga kirish uchun 5 ta qulfli darvozadan o‘tish kerak. Har bir qulf bir sezgi turi bilan ochiladi. 5 tuyg‘u – 5 sezgi a‘zosi – biron bir narsani aniqlashni 5 usuli. Ko‘ruv – ko‘z – ko‘rish Eshituv – quloq – eshitish Taktil sezgi – teri – ushlab ko‘rish Hid bilish – burun – hidlash Ta‘m bilish – til – ta‘mini sezish Besh sezgi – shaxardagi besh ko‘cha Bu bosqichda topishmoq tuzishda avval

⁴² Хмельюк М. Использование загадок в работе с детьми // Дошк. воспитание.-1983.-№7.-С.18-21.

		qo'llanilgan belgilar (shakl, rang, ...) qatoriga yangilari qo'shiladi. Masalan, qanday ovoz chiqaradi?, ta'mi qanday?, qanday xidga ega? va h.k. O'yin qoidalari avvalga bosqichniki kabi o'zgarishsiz. Topishmoqlar turli shaklda bo'lishi mumkin, lekin ularda 5 sezgi ishtirok etishi shart.
3 bosqich	Bolalarning assotsiativ, obrazli tafakkurini rivojlantirish, predmet va hodisalarni taqqoslashga o'rgatish	“O'xshashlik va farqlilik uyi”da juda ko'p chiroyli topishmoqlar yashaydi. Bu yerda turli buyumlarni qo'yish, turli hayvonlar yashashi mumkin – hammaga joy topiladi. Ish shakli: Jamoa bo'lib bir odam (yoki kichik guruh) uchun topishmoq tuzamiz. Bu bosqichda so'z ustida keng va chuqur ishlar joiz. Bolalarni guruhlariga ajratib, guruhlararo musobaqa tashkil etish mumkin. Bolalar istalgan narsalari: ob'ektlar, ularni qismlari, ularni o'rab turgan olam, xususiyatlari, ish, vaqt, miqdor va h.k. Lekin: - Agar topishmoq taqqoslashga asoslangan bo'lsa, doimo vositachi – topishmoq tuzilgan predmet yoki hodisaga taqqoslanuvchi bo'lishi shart. Odam tez yuguryapti – biz “uchyapti” deymiz – demak, qush yoqi samolyotga o'xshatamiz. - Taqqoslash orqali tasvirlash 3 element orqali amalga oshiriladi: birinchi tasvirlovchi qism,

		vositachi (“o‘xshashlik”) va qarama-qarshi (“farqli”) qismlar. Bolaga o‘yin qoidalarini tushunish uchun quyidagi sxema-simvollar ko‘rsatiladi: 1-qoida: Nimaga o‘xshaydi va nimadan farq qiladi?  2-qoida: Qanday? Nima unga o‘xshash bo‘ladi?  3-qoida: Nima qiladi? Kim (nima) shunday qiladi? 
4 bosqich	Bolalarni tizim osti (ob’ekt qismlari) tushunchasi bilan ta-nishtirish, butun ichidan qismlar-ni ajratishga	Bu bosqichda barcha topishmoqlar ularni qismlariga diqqat qaratgan holda tuziladi. “Tugallanmagan rasmni chiz”, “Predmetlarni qismlarga ajrat” kabi o‘yinlar qo‘llanadi.

	o'rgatish.	
5 bosqich	Tizim usti haqidagi (ob'ektni o'rab turgan olam) tasavvurlarini shakllantirish va kengaytirish.	Bu bosqich avvalgisini aksini tashkil etadi. Topishmoq tuzishni yangi qoidalari bilan tanishamiz. 4-qoida: Bu kimda bor? (bir predmetta ham, boshqasida ham bor).
6 bosqich	Predmetlarni funksiyasini ko'rishga, asosiy va qo'shimcha, yaqqol va yashirin belgilarini kuzatishga o'rgatish.	Ko'pgina predmetlarni nomi ularni vazifasini ifodalaydi. Masalan, taroq, chizg'ich, isitgich. Agar boshqa predmetlar nomini ham shu tamoyil asosida nomlasak, topishmoq tuzishni yangi usulini vujudga keladi. Masalan, bolalar "kesgich" deb nimani aytishimiz mumkin?
7 bosqich	Bolani ob'ektni ijobiy va salbiy (foydali va zararli) tomonlarini anglashga o'rgatish	"Yaxshi – yomon" o'yini qo'llanadi. Biron predmet yoki hodisaning yaxshi va yomon tomonlari borligi haqida iloji boricha ko'proq javoblar beriladi.
8	Fantaziya va diqqatni rivojlantirish, so'z boyligini rivojlantirish.	<u>1-mashq</u> "Sirli xat". Harf yoki raqamni albom varog'iga yozib, so'ng undan rasm chizish. <u>2-mashq</u> Bolalarga so'zlarning bir qismi berilib, bolalar

bosqich	Bolalarni topishmoq tuzishga mashq qildirish.	ulardan soʻzlar yasashi joiz. - gich – (yoritgich, sovutgich, isitgich va h.k.) - ol – (olma, olcha, tol, sholi va h.k.) 3-mashq “Sirli rasm”. U oʻzi haqida shunday deydi: “men olov rangli yirtqichman, oʻrmonlarda yashayman”. Bu hayvonni chizing. 4-mashq “Grafik diktant”. “Bolalar biz hozir naqsh chizamiz. Naqshni varogʻingizda qizil qalam bilan belgilangan nuqtadan boshlash kerak. Diqqat! Bir tekis qilib chizishni boshlaymiz: bir katak pastga, qalamni qogʻozdan uzmay ikki katak oʻngga, bir katak tepaga va h.k.”⁴³
---------	---	--

“Agar da.....” oʻyin mashqi⁴⁴

Nutq oʻstirish mashgʻulotlari davomida hamda tarbiyachi mashgʻulotlarida qoʻllandi.

Maqsad: bolalarda bogʻlangan nutqni, tasavvur, tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish.

Koʻrsatma: Defektolog quyidagi mavzularda hayol surishni taklif etadi:

“Agar men shifokor boʻlsam ...”

“Agar hech qachon bahor kelmasa ... ”

⁴³ Сидорчук Т.А., Хоменко Н.Н. Технологии развития связной речи дошкольников: методическое пособие для педагогов дошкольных учреждений, 2004 г.

⁴⁴Войлокова Е.Ф. Андрухович Ю.В. Сенсорное воспитание дошкольников с интеллектуальной недостаточностью.- Уч-метод. пособие.- Спб., 2005.

“Predmetni jonlantir” o‘yin mashqi⁴⁵

Guruhli tarzla nutq o‘stirish, savodga o‘rgatish mashg‘ulotlari davomida o‘tkazildi.

Insonlashtirilgan ob’ektlar nomidan nutqiy jumlar tuzish.

Maqsad: rasmdagi ob’ektlarga inson hissiyotlari, fikr va xarakterini berish orqali bolalarda empatiyani rivojlantirish, lug‘atni boyitish va leksik-grammatik tomonini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: bolalarga o‘zaro muhokama uchun rasmdagi biron predmetni tanlab, uni “xarakteri”, “imkoniyatlari”, “fikr-mulohazalari” haqida so‘zlab berishadi. Masalan, peyzajni kuzatish vaqtida bolalar ma’lum daraxtni tanlab uni quyidagicha tasvirlashadi: u sekin nafas oladi, muloyim, u hozir uxlayapti⁴⁶.

“Ular nima haqida suhbatlashyapti?” o‘yin mashqi

Guruhli tarzda nutq o‘stirish, savodga o‘rgatish mashg‘ulotlari davomida o‘tkazildi.

Maqsad: rasmdagi ob’ektlarga inson hissiyotlari, fikr va xarakterini berib, bolalarni o‘sha “shaxs” suhbatlashish nomidan o‘zaro suhbatlashish orqali dialogik nutqni rivojlantirish, lug‘atni boyitish va leksik-grammatik tomonini rivojlantirish.

Ko‘rsatma: Defektolog rasmdagi predmetlarni tanlab, ular nima haqida o‘ylashi yoki suhbatlashishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishni taklif etadi. So‘ng bolalar o‘sha “shaxs” nomidan suhbatlashadilar⁴⁷.

⁴⁵Обучение сюжетно-ролевой игре с проблемами интеллектуального развития: Методическое пособие/ Под ред. Л.Б.Баряевой, А.П.Зарин. Н.Д.Соколовой -Спб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена « Союз» 2001- 416с.

⁴⁶Фатихова Л.Ф. Методика формирования общеинтеллектуальных умений у дошкольников с нарушениями интеллекта: учебно-методическое пособие.- Уфа: Вагант, 2007.- 260с.

⁴⁷Катаева А.А., Стребелева Е.А. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников.- М.: « Бук-Мастер», 1993.- 191с.

3. Ta'limiy eksperiment natijalari

Ta'limiy eksperimental tadqiqot Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 353-sonli maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida olib borildi. Unda 10 nafar tayyorlov guruhidagi 6-7 yoshli bolalar ishtirok etdi.

Eksperimental tadqiqotda ishtirok etgan bolalar ruyxati

4-jadval

Eksperimental guruh		
№	Bolaning ismi, sharifi	Tug'ilgan sanasi
1	Abdukarimova M.	17.01.2008.
2	Abduxoshimov A.	26.03.2007.
3	Almatov K.	28.03.2008.
4	To'lqinov A.	10.08.2007.
5	Shuxratov Sh.	28.05.2008.
6	Saidjaxonova E.	12.02.2008.
7	Xasanova M.	24.02.2008.
8	Rozixodjayeva L.	09.04.2007.
9	Sagdullayeva N.	06.06.2008.
10	Umarova D.	13.09.2007.

Sentyabrning 3-xaftasida o'tkazilgan ta'kidlovchi eksperimental tadqiqot natijalari hamda mavzuga oid adabiyotlar tahlili asosida eksperimental ta'limiy tadqiqot metodikasi tuzildi. 3oy (oktyabr noyabr, dekabr) mobaynida o'tkazilgan ta'limiy tadqiqot samaradorligini aniqlash maqsadida takroriy ta'kidlovchi eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Bolalar kunning birinchi yarmida asosiy mashg'ulotlardan keyin tekshiruvdan o'tkazildi. Bolalar tekshiruv davomida topshiriqlarni qiziqish bilan bajarishdi.

Nazorat eksperimental tadqiqot natijalari quyidagi jadvalga keltirilgan:

5-jadval

№	Metodikalar nomi	Topshiriq bajarish natijalari (%)					O'rtacha ko'rsatkich
		4	3	2	1	0	
1	“Hayvonot bog‘i” o‘yin metodikasi	20%	30%	30%	20%	-	2,5b
2	“Predmetlarni taqqoslash” o‘yin metodikasi	20%	30%	20%	30%	-	2,4b
3a	“Topishmoqni tu- zish” o‘yin metodi- kasi (birinchi top- shiriq)	10%	30%	40%	20%	-	2,3b
3b	“Topishmoqni tu- zish” o‘yin metodi- kasi (ikkinchi top- shiriq)	-	20%	50%	30%	-	1,9b
4	“Yil fasllari” metodikasi	10%	30%	40%	20%	-	2,3b
5.	“O‘yinchoqni olib berishga yordamlash” o‘yin metodikasi	10%	20%	30%	40%	-	2b
6.	“Kesma rasmlar” metodikasi	20%	20%	40%	20%	-	2,4b
7.	“Syujetli rasmlar” metodikasi	10%	30%	30%	30%	-	2,2b
8.	“Geometrik o‘yin- lar” metodikasi	20%	30%	40%	10%	-	2,6b

9.	“Ko‘p, oz, barobar” o‘yin metodikasi	20%	30%	40%	10%	-	2,6b
10.	“Rasmli domino” o‘yin metodikasi	20%	40%	20%	20%	-	2,6b
11.	“Singan piyola” metodikasi	10%	30%	50%	10%	-	2,4b
12.	“Jonli sur‘at” o‘yin metodikasi	20%	30%	40%	10%	-	2,6b
13.	“Juft so‘zlar” o‘yin metodikasi	-	40%	40%	10%	10%	2,1b
14.	“Bekinmachoq” o‘yin metodikasi	20%	20%	40%	20%	-	2,4b

“Hayvonot bog‘i”, “Predmetlarni taqqoslash”, “Yil fasllari”, “Topishmoqni tuzish” o‘yin metodikalarini dastlabki ta’kidlovchi eksperimental tadqiqot davomida bajarish jarayonida tekshiriluvchilarda lug‘at boyligini kamligi, nutqning grammatik tuzilishini yoshga nisbatan orqada qolganligi, bog‘langan nutqni qo‘pol rivojlanmaganligi, qiziqishlarni pasaygan, sustlik, topshiriq bajarishga nisbatan tashabbussizlik, umumiy natijalar asosida xulosalar qilishdagi kamchiliklar yaqqol ko‘zga tashlangan edi. Aksariyat bolalar “O‘yinchoqni olib berishga yordamlash”, “Syujetli rasmlar”, “Singan piyola”, “Jonli sur‘at” o‘yin metodikalarin bajarish davomida muammoli vaziyatning mazmunini “sezsalarda”, mustaqil ravishda nutqda ifodalay olishmagan. Topshiriqlarni bajarishda bolalar o‘z jumllarida syujetli rasmlardagi kichik detallarni so‘zlab, rasm asosida xikoya tuzishmagan, ya’ni voqea-hodisalarining ketma-ketligini aniqlashtirmaganlar. Ko‘p hollarda bolalar yo‘naltiruvchi savollar va ko‘rsatmalar asosida ham topshiriqni bajara olmaganligi sababli, biz tomondan bolalarni shaxsiy tajribasidan foydalanishga qaratilgan savollar (“bu vaziyatda sen nima qilgan eding?”) berildi. Shu asosida, biz mazkur guruh

bolalarida egallangan tajriba asosidagi faoliyat usullarini o'xshash vaziyatlarda qayta qo'llash ko'nikmasi rivojlanmagan deya xulosa qilgan edik.

Amalga oshirilgan ta'limiy eksperimental tadqiqot natijasida, takroriy ta'kidlovchi eksperimental tekshiruvda mazkur bolalar bu topshiriqlarni bajarishda muammoli vaziyatlarni hal etishda nisbatan mustaqil tarzda, nutqdan faolroq foydalangan holda bajarishdi. Bolalar syujetli rasmlar asosida hikoyalar tuzish davomida jumladan, yig'iq gaplardan foydalana olishdi. Vaziyatni tasvirlashda ob'ektlar orasidagi asosiy va qo'shimcha aloqalarni ajrata olishdi.

O'tkazilgan nazorat eksperimental tadqiqot asosida tarbiyalanuvchilarni bog'langan nutqi, mantiqiy tafakkuri, tasavvur, tafakkur operatsiyalarini, ixtiyoriy diqqatini rivojlanish darajasi sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Bolalar topshiriqlarni bajarishda diqqatlarini jamlay olish, ko'rsatmalarni tinglash va tushunish, yo'naltiruvchi savollardan foydalanish, o'z fikrini bildirish, savollarga yoyiq javoblar berish ko'nikmalari nisbatan ijobiy tarzda o'zgarganligi kuzatildi. Aksariyat bolalar topshiriqlarni kattalarning minimal yordami bilan bajara olib, namuna bilan ishlash, taqqoslash, analiz-sintez jarayonlarini sifat jihatdan o'zgarganligi ko'zga tashlandi.

Nazorat eksperimental tadqiqot asosida, intellektual kamchiliklarga ega maktabgacha yoshdagi bolalar xilma-xil natijalarni namoyish etib, dastlabki va takroriy ta'kidlovchi tadqiqotlarni taqqoslash asosida umumiy ijobiy o'sish tendensiyasi aniqlandi. Tekshiriluvchilar orasida topshiriqni bajarishdan bosh tortgan, topshiriqni umuman bajara olmagan, topshiriqni bajarish davomidagi hissiy-irodaviy soha, tormozlanish-qo'zg'alish jarayonlari, tafakkur operatsiyalarining kamchiliklar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan tarbiyalanuvchilar soni qisqardi.

Dastlabki va takroriy tadqiqot natijalarini quyidagi jadval asosida taqqoslash mumkin:


O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari

6-jadval

Eksperimental tadqiqotlar	Qoʻllanilgan oʻyin metodikalari														
	1	2	3a	3b	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Taʼkidlovchi eksperimental tadqiqot	2	2	2	1,9	0,7	1,1	2,1	1	2,3	2,2	2,4	2,1	2,3	1,9	2,1
Nazorat eksperimental tadqiqot	2,5	2,4	2,3	2,3	1,9	2	2,4	2,2	2,6	2,6	2,6	2,4	2,6	2,1	2,4

O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar kursoratichlari

1-diagramma



4. Aqli zaif bolalar nutqini didaktik o'yinlar asosida rivojlantirish texnologiyalari (metodik tavsiyalar)

O'yin bola hayotida asosiy o'rin egallaydi. O'yin jarayonida bola jismonan shakllanadi, qiyinchiliklarni yengishga o'rganadi. Unda ziyraklik, topqirlik, tashabbuskorlik qobiliyatlari shakllanadi. Agar defektolog va tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P.Usova shunday deb yozadi: "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish – ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi". O'yin jarayonida bola o'zini atrofidagi kattalardek, hikoya qahramonlaridek tutadi va faoliyat yuritadi. O'yinda, agar u xohlasa vrach, uchuvchi, tarbiyachi bo'lishi mumkin. Bu unga ulkan quvonch baxsh etadi. O'yin faoliyatining ko'rinishlaridan biri bolalarni hayotning ular uchun tanish bo'lgan intellektual va aktual faoliyat, axloqiy va estetik qarashlarga imkon beruvchi **didaktik o'yindir**. Didaktik o'yinda shunday sharoit yaratiladiki, har bir bola muayyan vaziyatda va muayyan buyumlar bilan, o'zi orttirgan shaxsiy haqiqiy va hayoliy tajriba bilan mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega. Bu buyumlar bilan faoliyat tajribasi ajralgan, qayd qilinmagan va umumlashmagan aqliy qoloq bolalar uchun muhimdir⁴⁸.

Didaktik o'yinlar ayni vaqtda bolalarni o'qitishning shakli hisoblanadi. Didaktik o'yinda barcha strukturaviy elementlar, bolalarning o'yindagi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan: maqsad, jamlanma, o'yin faoliyati, qoida, natija jamlangan. Lekin ular bir qancha o'zgacha shaklni ko'rsatadi va didaktik o'yinlarning bolalarga ta'lim va tarbiyasidagi asosiy rolini sharoitga moslagan.

Didaktik topshiriqlarning mavjudligi o'yinlarning ta'limiy xarakterini, uning tarkibini bolalarning kuchli aqliy faoliyatiga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Didaktik o'yinda mashg'ulot davomida topshiriqning to'g'ridan-to'g'ri

⁴⁸ Усова, А.П. Роль игры в организации жизни и деятельности детей / А.П. Усова // Дошкольное воспитание. – 1999. – 536.

qo'yilishidagi farqda u bolaning o'yin topshirig'i sifatida namoyon bo'ladi. Didaktik o'yinning asosiy ahamiyati shundaki, u bolaning fikri va nutqida mustaqillik va faollikni hosil qiladi.

O'yin faoliyati har doim ham ko'rinuvchan xarakterni yuzaga keltirmaydi. Bu to'liq yo'naltirilgan kuzatish, taqqoslash, ba'zan oldingi o'zlashtirilganlarni qayta eslash, o'ylash jarayonlarini to'liq ifodalovchi aqliy faoliyat hamdir. Murakkabligi bo'yicha ular aqliy tarkib va o'yin topshiriqlari, bolalarning yoshiga moslik darajalari turli xil va sharoitga moslashgandir.

Murakkabligi jihatdan ular turlicha va bosh mazmunning, o'yin maqsadining darajasi bilan bolalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'yin harakatlarining hajmi ham turlichadir. Kichik guruhlarda – bu ko'p hollarda takrorlanuvchi 1-2 ta harakatdan, kattaroq guruhlarda esa 5-6 ta harakatdan iborat. Katta maktabgacha yoshdagilarning sport xarakteriga ega bo'lgan o'yinlardagi o'yin harakatlari boshidanoq vaqt bo'yicha taqsimlangan va ketm- ket amalga oshiriladi. Ularni o'zlashtirgan bolalar maqsadga intilib, aniq, tez kelishgan xolda o'zlashtirilgan sur'atda o'yin vazifasini oladilar. Didaktik o'yinlarning elementlaridan biri qoidalar hisoblanadi. Ular o'rgatishning vazifasi va o'yin mazmuni bilan belgilanadi va o'z navbatida o'yin harakatlarining xarakterini va usullarini aniqlab beradi, bolalarning xulqini, bolalar o'rtasidagi va tarbiyachi bilan o'zaro munosabatlarni shakllantiradi va yo'naltiradi. Qoidalar yordamida bolalarda o'zgargan sharoitlarda mo'ljal olish qobiliyati, bevosita istaklarni jilovlash ko'nikmasi, emotsional – irodaviy zo'riqishni namoyon qilishni ushlab tura olish shakllanadi. Buning natijasida o'z harakatlari bilan boshqa o'ynovchilarni boshqarish qobiliyati rivojlanadi. O'yin qoidalari o'rgatuvchi, tashkil etuvchi va intizomiy xarakterga ega. O'rgatuvchi qoidalar bolalar oldida kim, nimani va qanday qilish kerakligini ochishga yordam beradi: ular o'yin harakatlari bilan munosabatda bo'ladi, harakatlarning rolini kuchaytiradi, bajarish usulini aniqlashtiradi. Tashkil etuvchi qoidalar esa bolalarning o'yindagi o'zaro munosabatlarini, tartibni, ketma ketlikni belgilaydi.

Intizomiy qoidalar nimani va nima uchun qilish mumkin emasligi haqida ogohlantiradi.

Tarbiyachi qoidalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, o'yinni ular bilan zo'riqtirmasligi, faqat zarur holdagina ularni qo'llashi lozim. Ko'p qoidalarni kiritish, ularni bolalarga majburan bajartirish salbiy natijalarga olib keladi. Xaddan tashqari intizom bolalarda o'yinga qiziqishni pasaytiradi, xatto o'yinni buzadi, ba'zan esa qoidalarni bajarishdan qochish maqsadida ayyorlikni keltirib chiqaradi. Didaktik o'yin natijasi – shunchaki xar qanday usul bilan erishilgan g'alaba emas, balki bolalar tomonidan erishilgan bilimlarni o'zlashtirish, aqliy faoliyat rivojlanishi, o'zaro munosabatlardagi yutuqlar darajasining ko'rsatkichidir. O'yin vazifalari, harakatlari, qoidalari, o'yin natijasi bir biri bilan bog'langan. Bu tarkibiy qismlardan birortasining yo'qligi o'yinning butunligini buzadi, tarbiyaviy ta'sirini pasaytiradi⁴⁹.

Ma'lumki, MMTMning katta guruhida tarbiyalanuvchi yengil darajadagi aqli zaif bolalar predmetlarni birlik va ko'plikdagi holatini farqlashda qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida **“Bitta va ko'p”** didaktik o'yinini tavsiya etamiz.

O'yin maqsadi: bolalarni ma'lum bir predmetlar bilan tanishtirish, hamda mustaqil ravishda birlikdagi otdan ko'plik otini hosil qilishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: koptoq, chelak, kubik, qo'g'irchoq, qalam. (imkoni boricha predmetlarni har doim almashtirib turish taklif etiladi. Bunday usuldan foydalanish lug'at boyligini yanada kengaytiradi).

O'yinning borishi: o'yin rasmlar asosida olib boriladi. Biroq aqli zaif bolalar rasmdagi farqni tez ajratib olish qobiliyatiga ega emaslar. Shuning uchun ularga, real ko'rinishga ega predmetlarni bittasini (misol uchun chelak, qo'g'irchoq yoki kubik) ko'rsatiladi, so'ngra xuddi shu predmetlar turgan stollarga diqqati jalb etiladi. Bolaning aynan defektolog ko'rsatgan, nomlagan va bolaga nomlattirgan predmetning 5-6 tasi turgan stolning yoniga borishi

⁴⁹ Лисина, М.И. Развитие коммуникативных процессов у детей от рождения до 7 лет / М.И. Лисина. - М., 1970

taklif etiladi. Bola predmetni “Bu kubik” deb nomlaydi. So‘ng kubiklar turgan stolning yoniga boradi va “bu kubiklar” deb aytadi. Qo‘lidagi kubikni kubiklar qatoriga qo‘shib qo‘yadi. O‘yinda topshiriqni to‘g‘ri bajargan bola shu stol atrofida o‘tiradi. Qolganlar esa toki topshiriqni to‘g‘ri bajarmagunlaricha turadilar.

Shunday qilib, barcha predmetlar birma-bir o‘z stolidan joy oladi.

Bu o‘yinda bolalar bir qator predmetlar bilan tanishadi, defektolog o‘z hohishiga qarab navbatma-navbat predmetlarni almashtirib borishi mumkin. Maqsad bolalar ushbu predmetlar bilan tanishishi, ularni ko‘plikdagi holatini alohida nomlash kerakligini anglashi, *-lar* qo‘shimchasini faol nutqida qo‘llashni o‘rganishidir. Bu o‘yinda bolalar nafaqat leksik va grammatik tomonidan o‘z nutqini mukammallashtirib boradi, balki harakat qilgan odam rag‘batlantirishga ega bo‘lishini ham tushunadi. Har bir narsani to‘g‘ri qilsa biron natijaga erishishi mumkinligini anglab boradi. Bolaning har bir kichkinagina bo‘lsa ham yutug‘ini rag‘batlantirish yodingizdan chiqmasligi lozim.

Xuddi shu o‘yindan umumiy motorika va koordinatsiyani rivojlantirish ham mumkin. Chunki motorika qanchalik rivojlansa, insonning nutqi ham shunchalik rivojlanadi, mukammallashib boradi. Zamonaviy maxsus ta‘lim rivojlanishida kompleks yondoshuv tamoyiliga asoslanib birlik va ko‘plikdagi otlarni nomlashni o‘rgatishda **“Ushlab ol va nomla”** o‘yinidan foydalanishni tavsiya etamiz. Bunda:

Defektolog: - Men senga koptokni otaman va bitta predmetni bildiruvchi so‘zni aytaman, sen menga koptokni otayotganingda shu so‘zni ko‘plikda aytasan, - deya taklif etadi.

O‘yinning borishi: Defektolog koptokni bolaga otadi va “uy” so‘zini aytadi, bola koptokni qaytarib otadi va “uylar” so‘zini aytadi. 5-8 tagacha bo‘lgan so‘zlar o‘yin davomida nomlanishi lozim.

Ushbu o‘yinda bola harakat va so‘zni bir-biri bilan uyg‘unlashtirishni ham o‘rganadi. O‘yinni butun ta‘lim jarayonida takroran o‘ynab turish tavsiya etiladi.

Chunki maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning xotirasi sust, diqqati tarqoq bo'ladi. Qayta-qayta takrorlanishi natijasida bolada bu so'zlarning ko'plik va birlikdagi shakllari yanada mustahkamlanib boradi.

Ushbu so'zlardan keyinchalik ham o'z hayotida foydalanish ehtiyojini paydo qiladigan holatlarni yaratish samarali usullardan biri hisoblanadi.

So'z yasashda kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalanish, "Kiyimlar" mavzusiga doir leksik zahirani boyitish maqsadida **"Bu kimning kiyimlari, o'ylab top?!"** o'yinini tavsiya etamiz.

Didaktik materiallar ro'mol o'ragan buvi, xalat qiygan ona, po'stindagi qizaloq, bosh kiyimli amaki va shunga o'xshash boshqa odamlarning tasviri tushirilgan rasmlar. Shuningdek, ushbu kiyimlarning alohida tasvirlangan rasmlari: *ro'mol, xalat, bosh kiyim, po'stin* va b.

O'yinning borishi: bolalar rasmlarni ko'rib chiqadilar. Defektolog predmetlardan birini nomlaydi. Bolalar esa ushbu kiyim kimga tegishli ekanligini aytadilar.

- Bu buvijonimning ro'moli, bu onamning xalati, bu qizaloqning po'stini va h.k.

Ushbu o'yinda bolaning nafaqat lug'at boyligini oshirish, grammatik jihatdan kelishik qo'shimchalardan to'g'ri foydalanish malakalariga ega bo'lish, balki mantiqiy fikrlash, tafakkur boyligi ham bir vaqtning o'zida rivojlanishini guvohi bo'lish mumkin. Ushbu o'yinda "Kiyimlar" mavzusi tanlangan, huddi shu tarzda boshqa mavzular bilan tanishtirishda ham shu o'yindan foydalanish mumkin.

Misol uchun "Hayvonlar" mavzusini tanlab olaylik. O'yin **"Bu kimning dumi, o'ylab top?!"** deb nomlanadi.

O'yinning borishi: bir qatorda hayvonlarning dumsiz holda tasvirlangan rasmlari, ikinchisida dumlarning alohida aks etgan rasmlar qo'yiladi. Defektolog biron-bir hayvonga tegishli dumni ko'rsatadi. Bola dum qaysi hayvonga tegishliligini aniqlab olganidan so'ng, hayvonni nomlaydi ("Bu tulkinning dumi").

Ushbu o'yinda "Hayvonlar" mavzusiga doir so'zlar bolaning leksikonini boyitish bilan birga, mantiqiy fikrlash rivojlanadi, tafakkurning muntazam charxlanib borishi natijasida, oldingi o'yinga nisbatan topshiriqni bajarish tezligini oshganligini kuzatish mumkin. Shu kabi yana bir nechta o'yinlarni keltirishimiz mumkin.

"Bu narsalar kimga kerak?" o'yini

Maqsad bolalarning grammatik jihatdan gapni to'g'ri tuza olish hamda lug'at boyligini oshirish, mantiqiy tafakkurini charhlash.

Rasmlar: tayoqchasiz o'qituvchi, cho'tkasiz bo'yoqchi, qaychisiz satarosh, miltiqsiz ovchi, qarmoqsiz baliqchi, tarozisiz sotuvchi va h.k., shuningdek, ularga yetishmaydigan predmetlar rasmi alohida kartochkalarda taqdim etiladi.

O'yinning borishi: Bolalar bu rasmlarni ko'rib chiqib navbat bilan kimga nima kerakligini aytib chiqadilar. (o'qituvchiga tayoqcha kerak, qarmoq baliqchiga kerak).

"Mehmonlar" o'yini

Maqsad:

Jihoz: Turli xil noz-ne'matlar (mulyaj) bilan to'lgan dasturxon: olma, baliq, sabzi, suyak, qo'ziqorin va h.k. (Har bir MMTM da shunday burchak bo'lishi shart).

Defektolog ko'rsatmasi: "Ayiqqolvon mehmonlarni kutyapti. Likobchalarda u o'zining o'rtoqlariga atab noz-ne'matlar qo'yibdi. Nima deb o'ylaysiz bu noz-ne'matlar qaysi mehmonlarga atalgan? Sabzini kimga beramiz? (sabzini quyonga beramiz) va h.k."

"Jonivorlarga o'z uylarini topishga yordam ber" o'yini

Ikki qator rasmlar taklif qilinadi: bittasida hayvonlar, ikkinchisida ularning inlari tasvirlangan. Defektolog bolalarga hayvonlarga o'z uylarini topishga ko'mak berishlarini, kim qayerda yashashini eslashni taklif qiladi. Savollarga javob berib turib, ular hayvonlar rasmini o'z uychalari oldiga qo'yib chiqadilar.

"Kichkina va katta" o'yini

O‘yin maqsadi: so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida otlarni kichraytirib-erkalatib nomlay olish malakalarini bolalarda shakllantirish.

Jihozlar: katta va kichik predmetlar yoki bo‘lmasa ularni ifodalovchi rasmlar.

O‘yinning borishi: qizil doirachalar - katta va kichik. Defektolog ularni nomlashni taklif qiladi: bu katta doira, bu kichik doira. Endi u katta va kichik so‘zini ishlatmasdan rasmlarni nomlashni buyuradi.

Bu? (kichik doiraga ko‘rsatadi)

Bolaning javobi: doiracha

Bunisichi? (katta doira ko‘rsatiladi)

Bolaning javobi: doira.

Defektolog: menga rasmlarni tartiblashtirishga yordam ber. Kichik predmetli rasmlarni doiracha ostiga, katta predmetli rasmlarni doira ostiga berkitgin.

U kichik va katta predmetlar tasvirlangan rasmlarni aralashtirilgan holda patnisga solib, bolaning oldiga qo‘yadi, hamda bolaning mashqni bajarish usulini kuzatadi. So‘ngra oldin katta keyin kichik predmetli rasmlarni nomlashni taklif etadi.

“Kimning ovozi?”

O‘yin maqsadi: Hayvonlar va ularning bolalarini ovozi orqali ajratish, ular nomlanishini solishtirishni o‘rgatish.

Kerakli jihozlar: sichqon va sichqoncha, o‘rdak va o‘rdakcha, baqa va baqacha, sigir va buzoqcha, mushuk va mushukcha.

O‘yinning borishi: bolaning uyiga hayvonlar mehmonga kelishyapti. Bola ularni ovozidan qaysi hayvon ekanligini aniqlashi lozim.

Miyov-miyov. Kim miyovlayapti? (mushuk). Kim mayin ovozda miyovlayapti? (mushukcha). Ona mushukning bolasi bor ekan. U qanday miyovlarkan? (mayinroq ovozda miyov-miyov deydi).

Mo‘-o‘-o‘-o‘ – kim bunday mo‘o‘o‘laydi? (Sigir) Uning bolasi qanday nomlanadi? (buzoqcha). U qanday ovoz chiqaradi? (mayin, ingichka). Endi yana bir marta diqqat bilan eshit, bu kimning ovozi sigirnimi yoki buzoqchanimi?

Vaq-vaq – bu kimning dag‘al ovozi? (qurbaqaning). Bu ingichka ovozda kim vaqillayapti? (baqacha). Qurbaqa katta va uning ovozi dag‘al, qurbaqa bolasi esa mayin ovozda qurillaydi. Qurbaqaning bolasi kim ekan?

Shu kabi qolgan o‘yinchoqlar ham o‘ynaladi. Bolaga o‘yinchoqni to‘g‘ri nomlab chaqirish kerakligini, keyin u bilan o‘ynashi mumkinligini taklif qilsak ham bo‘ladi (“Baqacha mening oldimga kel?, “O‘rdakcha men bilan o‘yna!”).

Bunday o‘yinda bolalarning nafaqat lug‘at boyligi oshadi, kichraytirish-erkalatish qo‘shimchalari yordamida yangi so‘zlar yasay olishadi, balki ularning fonetik-fonematik idroki ham rivojlanib boradi. Zero fonetik-fonematik idrok rivojlanmay turib bola nutqining grammatik tomonini rivojlantirishning imkoniyati yo‘qoladi (V.S.Raxmanova). Ushbu o‘yin bolalarga hayvonlar va ularning bolalari ovozlarini ajrata bilishga o‘rganadilar (Sigir baland ovozda mo‘-o‘-o‘laydi, buzoqcha esa ingichka, mayin ovozda; qurbaqa qo‘pol vaqillaydi, baqacha esa ingichka qurillaydi), ularning ot va fe‘l so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan lug‘at boyligi faollashadi.

Shunga o‘xshash o‘yinlarni turli xil hayvonlar bilan ham o‘tkazish mumkin. Masalan, bolaga rasm ko‘rsatiladi. Unda qushning rasmi tasvirlangan. – Bu qush. U o‘rmonda yashaydi. Uning qo‘shig‘i ku-ku, ku-ku. Bu qaysi qush qani top-chi? (Ku..... - deb bolani mustaqil ravishda to‘g‘ri javobni aytishga chorlanadi). – Bu nima ekan? (Xo‘roz). Erkalatib biz uni nima deymiz? (xo‘rozcha). Xo‘rozcham qanday qichqiradi? (Ku-ka-re-ku-ku).

Asosiy maqsad bolani o‘rab olgan atrof-muhitdagi bilim va tasavvurlar asosida lug‘at boyligini oshirishga, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish malakalarini hosil qilishga qaratiladi. Turli xil so‘z turkumlarinining bola nutqida faollashishi, nafaqat otlar, balki fe‘l, sifat, ravishlarning nutqda ko‘payishi yuzaga keladi.

Bolani har bir predmet xususiyatlari va harakatlari o'z nomlariga ega ekanligi bilan tanishtirish lozim. Buning uchun bolalarga predmetlarni muhim tomonlaridan ajratishga o'rgatish, ularni to'g'ri nomlash, xarakterli belgi va sifatlarini aniqlash (qanday?), shuningdek, o'yinchoqlar, hayvonlar xatti-harakatlari hamda ularning holatlari bilan bog'liq faoliyatni bir-biridan ajrata olishga o'rgatish muhimdir. Masalan, insonning yuz berishi mumkin bo'lgan faoliyatlari (nima kilyapti?, undan qanday foydalanish mumkin?). Bunday ta'limot **“Bu qanday predmet?”**, **“Qandayligini ayt!”**, **“Kim nima qila oladi?”** kabi o'yinlarda amalga oshadi.

“O'yinchoqni tanib ol!” o'yini⁵⁰

Maqsad: predmetli so'zlarni va sifatlarini bola lug'atida ko'paytirish, predmetni uning belgilari va xususiyatlariga qarab tanib olish malakalarini shakllantirish.

O'yinning mazmuni: Defektolog bolaga 3-4 ta o'yinchoqni ko'rsatadi va ularni nomlaydi. Avvalambor, ularni to'g'ri nomlashni o'rgatish kerak. “Bu ...(quyon, tulki, o'rdakcha)”. Har bir o'yinchoq to'g'risida bolaga ma'lumot beriladi. Uning tashqi qiyofasiga “bu yumshoq o'yinchoq, u kulrang. Dumi kalta, quloqlari esa uzun. U sabzini yaxshi ko'radi. U tez va epchil sakraydi”. Shu singari qolgan o'yinchoqlarni ham tasvirlab beriladi. So'ng bola ularni nomlaydi. Bolaga o'yinchoqlardan birini tasvirlab berish taklif qilinadi.

“Qandayligini ayt!” o'yini

O'yin maqsadi: predmetni belgi-xususiyatlarini ajratib, ularni nomlay olishga o'rgatish.

O'yinning mazmuni: Qutidan predmetlar olinadi va nomlanadi. (“Bu – nok”), bola esa uning sifatlarini aytadi. (“U sariq, yumshoq va shirin”. “Bu pomidor. U qizil, dumaloq, pishgan, sersuv, shirali”. “Bodring cho'zinchoq, yashil, eganda qarsillaydi”).

Mazkur o'yinlarni nafaqat mashg'ulot davomida bir marta balki sayr vaqtida, hatto uyda ota-onasi va oila a'zolari bilan “o'ynash” tavsiya qilinadi.

⁵⁰Панова Е. Н. Дидактические игры-занятия в ДОУ. – Воронеж: ЧП Лакоценин, 2007.

Bir bolaga ham defektolog, ham tarbiyachi, ham oila a'zolari bir vaqtning o'zida maqsadga yo'naltirilgan munosabatda bo'lishsa, bunday bolalarning muloqatga bo'lgan ehtiyoji paydo bo'ladi, nutqining rivojlanishiga turtki bo'lishiga aminmiz. O'yin faoliyati davomida bolani zeriktirib qo'ymaslik juda muhim. Buning kerakli jihozlarni tanlashda rangbarang, diqqaini o'ziga tortuvchi rasm, plakat, didaktik o'yinchoq va materiallardan foydalanish kerak bo'ladi.

O'yinlarni tanlashda va guruhdagi sog'lom ruhiy holatni ushlab turishga erishish uchun har bir bolaning individualligini hisobga olish defektologning asosiy vazifasidir. Bunda bolaga qanchalik qiziqarli o'yin taklif qilmang, unda ishtirok etish uchun yetarli malaka va ko'nikmalar mavjud bo'lmasa, bu faoliyat uni aslo qiziqtirmaydi, aksincha, guruhdan chetlashtiradi, asabiy holga solib qo'yadi va nutq o'stirish mashg'ulotlaridan uzoqlashtirib qo'yadi.

III bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotning yakunlovchi bobida aqli zaif bolalarning nutqiy muloqotini tashkil qilishda didaktik o'yin turlaridan foydalanildi. Didaktik o'yinlar bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. His qilish va sezgi jarayonlari aqlan zaif bola tomonidan atrof olamni bilish asosida yotadi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda buyumning rangi, shakli, kattaligi bilan tanishishi sensor tarbiya bo'yicha didaktik o'yinlar va mashqlar sistemasini yaratish imkoniyatini beradi. Didaktik o'yinlar bolalarning nutqini o'stiradi: lug'atini boyitadi va faollashtiradi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish shakllanadi, bog'langan nutq va o'z fikrini bayon qila olish ko'nikmasi rivojlanadi.

Shuningdek, ushbu bobda aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishda didaktik o'yinlarni qo'llashga qaratilgan talimiy eksperiment o'tkazildi. Ta'limiy eksperimental tadqiqot Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 353-sonli maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida olib borildi. Unda didaktik o'yin texnologiyalari qo'llanildi. Bu o'yin texnologiyalari nutqni o'stirish mashg'ulotlari davomida o'tkazildi. Ta'limiy eksperimental tadqiqot natijasida, takroriy ta'kidlovchi eksperimental tekshiruvda mazkur bolalar bu topshiriqlarni bajarishda muammoli vaziyatlarni hal etishda nisbatan mustaqil tarzda, nutqdan faolroq foydalangan holda bajarishdi. O'tkazilgan nazorat eksperimental tadqiqot asosida tarbiyalanuvchilarni bog'langan nutqi, mantiqiy tafakkuri, tasavvur, tafakkur operatsiyalarini, ixtiyoriy diqqatini rivojlanish darajasi sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Bolalar topshiriqlarni bajarishda diqqatlarini jamlay olish, ko'rsatmalarni tinglash va tushunish, yo'naltiruvchi savollardan foydalanish, o'z fikrini bildira olish, savollarga yoyiq javoblar berish ko'nikmalari nisbatan ijobiy tarzda o'zgarganligi kuzatildi. Aksariyat bolalar topshiriqlarni kattalarning minimal yordami bilan bajara olib, namuna bilan ishlash, taqqoslash, analiz-sintez jarayonlarini sifat jihatdan o'zgarganligi ko'zga tashlandi.

Nazorat eksperimental tadqiqot asosida, intellektual kamchiliklarga ega maktabgacha yoshdagi bolalar xilma-xil natijalarni namoyish etib, dastlabki va

takroriy ta'kidlovchi tadqiqotlarni taqqoslash asosida umumiy ijobiy o'sish tendensiyasi aniqlandi. Tekshiriluvchilar orasida topshiriqni bajarishdan bosh tortgan, topshiriqni umuman bajara olmagan, topshiriqni bajarish davomidagi hissiy-irodaviy soha, tormozlanish-qo'zg'alish jarayonlari, tafakkur operatsiyalarining kamchiliklar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan tarbiyalanuvchilar soni qisqardi.

UMUMIY XULOSA

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish – juda jiddiy ilmiy-metodik muammo bo‘lib, ushbu muammoga psixologik-pedagogik adabiyotlarda katta ahamiyat berilgan. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirish muammosiga qaratilgan tadqiqotchilarning ishlarini tahlili ham muammoning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishini tadqiqoti bilan shug‘ullangan barcha tadqiqotchilar aqli zaiflarda intellekti birlamchi saqlanib qolgan tengdoshlariga qaraganda juda ko‘p nutqiy kamchiliklar tarqalganligini ko‘rsatadilar va ularni korreksiyalash va bartaraf etishning samarali yo‘llari, voistalaridan biri didaktik o‘yinlar ekanligi ta’kidlaganlar. O‘yinda, ayniqsa, didaktik o‘yin orqali bolalar yangi bilimlar, tushunchalar, ko‘nikma va malakalarni egallab oladilar, nutqi shakllanadi va rivojlanadi. Bularning barchasi biz tomonimizdan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish yo‘llarini tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Biz tomondan ishlab chiqilgan didaktik o‘yin texnologiyalari guruh defektologining “Nutq o‘stirish”, “Logoritmika” mashg‘ulotlari hamda maxsus guruh tarbiyachisining korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlari davomida tizimli tarzda qo‘llanildi. Nutq kamchiliklarni korreksiyalash, nutq rivojlanishini yuqoriroq darajaga ko‘tarish maqsadida guruhchali va yakka (individual) mashg‘ulotlar o‘tkazilib, mashg‘ulotlar davomida tanlangan maxsus didaktik o‘yin texnologiyalari qo‘llandi. Bundan tashqari mazkur didaktik o‘yin texnologiyalari tarbiyalanuvchilarning otalariga taqdim etilib, bolalarning bo‘sh vaqtida bajarilishi taklif etildi.

Tadqiqotimizning ta’kidlovchi bosqichini amalga oshirish natijasida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda bir qator nutq kamchiliklari ko‘zga tashlandi. Ta’kidlovchi tadqiqot natijalarini tahlil etish asosida aqli zaif bolalarni nutqini shakllanishi orqada qolishi bilan birga nutqga ehtiyoj tug‘diruvchi

omillarni ham shakllanmaganligi ko'zga tashlandi. Ta'kidlovchi tadqiqot natijalarini tahlil etish asosida aqli zaif bolalarni nutqini shakllanishi orqada qolishi bilan birga nutqqa ehtiyoj tug'diruvchi omillarni ham shakllanmaganligi ko'zga tashlandi. Bolalarda o'yin davomida diqqatsizliklari, xotira va kuzatuvchanlikni sust rivojlangani, sabab-oqibat munosabatlarni tushunishni qo'pol buzilganligi kuzatildi. Bularning barchasi bizga maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqini didaktik o'yinlar asosida rivojlantirishga qaratilgan korreksion –rivojlantiruvchi ishlar mazmunini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili hamda ta'kidlovchi tadqiqot natijalari asosida aqli zaif bolalar nutqini rivojlantiruvchi didaktik o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish imkonini berdi. O'tkazilgan nazorat eksperimental tadqiqot asosida tarbiyalanuvchilarni bog'langan nutqi, mantiqiy tafakkuri, tasavvur, tafakkur operatsiyalarini, ixtiyoriy diqqatini rivojlanish darajasi sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Bolalar topshiriqlarni bajarishda diqqatlarini jamlay olish, ko'rsatmalarni tinglash va tushunish, yo'naltiruvchi savollardan foydalanish, o'z fikrini bildirib olish, savollarga yoyiq javoblar berish ko'nikmalari nisbatan ijobiy tarzda o'zgarganligi kuzatildi. Aksariyat bolalar topshiriqlarni kattalarning minimal yordami bilan bajara olib, namuna bilan ishlash, taqqoslash, analiz-sintez jarayonlarini sifat jihatdan o'zgarganligi ko'zga tashlandi. Nazorat eksperimental tadqiqot asosida, intellektual kamchiliklarga ega maktabgacha yoshdagi bolalar xilma-xil natijalarni namoyish etib, dastlabki va takroriy ta'kidlovchi tadqiqotlarni taqqoslash asosda umumiy ijobiy o'sish tendensiyasi aniqlandi. Tekshiriluvchilar orasida topshiriqni bajarishdan bosh tortgan, topshiriqni umuman bajara olmagan, topshiriqni bajarish davomidagi hissiy-irodaviy soha, tormozlanish-qo'zg'alish jarayonlari, tafakkur operatsiyalarining kamchiliklar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan tarbiyalanuvchilar soni qisqardi. Tadqiqotda qo'llanilgan didaktik o'yin texnologiyalaridan aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishda samara berdi va ulardan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin ekanligi tasdiqlandi. Biz tomonimizdan maktabgacha yoshdagi aqli zaif

bolalarni nutqini rivojlantirishda didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanilsa, bu toifadagi bolalarning nutq faoliyatini rivojlanish jarayoni ancha samarali kechadi degan faraz isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun. Toshkent, 1991y.
3. «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasi qonuni. T.: 2008 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: “Ta'lim to'g'risidagi” Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997.
6. Barkamol avlod yili davlat dasturi. – T.: “O'zbekiston”, 2010.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 yanvarda 573-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoya yili” Davlat Dasturi.
8. “Imkoniyati cheklangan bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – T.: “Uzinkomsentr”, 2002.
9. “Ta'lim hamma uchun” Dasturining Milliy rejasi. – T.: “Arnaprint”, 2003.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. I.A. Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: “O'zbekiston”, 2011 y.
2. I.A. Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. –T.: “Ma'naviyat”, 2008y.
3. I.A. Karimov “Sog'lom avlod tarbiyasi barchamizning muqaddas insoniy burchimiz”. –T.: “Tafakkur” gazetasi, 2000.

4. I.A. Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. –T.: “O‘zbekiston”, 2009.
5. I.A.Karimov “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”, deb nomlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvardagi ma’ruzasi.
6. I.A.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. –T.: “O‘zbekiston”, 1997.
7. I.A.Karimov “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so‘zlagan nutqi”. –T.: 1997.
8. I.A. Karimovning Konstitutsiya qabul qilinganining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi 06.12.2013y.
9. I.A.Karimov. “Barkamol avlod orzusi”. –T.: 1997.
10. I.A.Karimov. O‘zbekiston – XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O‘zbekiston”, 1997.
11. I.A.Karimov. Sog‘lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. –T.: “Tafakkur”, 2000.

Asosiy adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” – Toshkent / O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti - 2004y. – 42b.
2. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” Ikki tomlik, «Ma’naviyat», T.:1998 y. 1-T.-43-bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. 14-tom, -T.: 1998. 94-bet.
4. Аникеева Н.П. Воспитание игрой.-Новосибирск, 1994
5. Ayupova M.Yu. Logopediya. T.: “O‘zbekiston faylasuflar jamiyati”, 2007y.- 196b.

6. Баряева Л.Б., Логинова Е.Т., Лопатина Л.В. Подготовка к обучению грамоте детей с умеренной и тяжелой умственной отсталостью. Пособие для учителя. - СПб.: Изд-во «Союз», 2004. 56-б.
7. Виноградова А.Д., Липецкая Е.И., Матасов Ю.Т., Ушакова И.П. Практикум по психологии умственно отсталого ребенка. –М.: «Просвещение», 1985.
8. Войлокова Е.Ф. Особенности использования слов-названий сенсорных эталонов дошкольниками с выраженной умственной отсталостью // Теоретические и прикладные проблемы образования лиц с интеллектуальной недостаточностью - СПб: Изд. РГПУ им. А. И. Герцена, 2000.- с.38- 40.
9. Войлокова Е.Ф. Андрухович Ю.В. Сенсорное воспитание дошкольников с интеллектуальной недостаточностью.- Уч-метод. пособие.- Спб., 2005.
10. Выготский Л.С. Лекции по психологии. - СПб.: Союз, 1997.-144 с.
11. Выготский Л.С. Мышление и речь. Изд. 5, испр. –М.: Издательство «Лабиринт», М., 1999. — 352 с.
12. Д.Б.Эльконин. Психология игры. М.: -1999
13. Зинкевич–Евстигнеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии. - СПб. ООО «Речь», 2000.- 310с.
14. Катаева А.А. Развитие речи у детей с нарушением интеллекта и их умственное воспитание // Дошкольное воспитание детей с проблемами интеллектуального развития - СПб, Изд. РГПУ им. А. И. Герцена, 1999.- с.153- 156.
15. Катаева А.А.. Стребелева Е.А. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников. –М.: «Бук-Мастер», 1993.
16. Коломенских Я.Л., Панько Е.А. Детская психология., –М.: «Университетское», 1988, - 223с.
17. Мо'minova L.R. Logopediya. –Т.: 2009.

18. Лапошина Э. В. Особенности ознакомления умственно отсталых дошкольников с некоторыми предметами ближайшего окружения. // Дефектология- 1991.- №6.- с.72- 77
19. Леонтьев А.Н. Психологические основы дошкольной игры // Психологическая наука и образование. – 1996. – №3-25-27.
20. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - ИЗДАТЕЛЬСТВО «НАУКА» / М.: 2007г. - 214 с.
21. Лисина М.И. Проблема онтогенеза общения. –М.: «Просвещение», 1986. - 143 с.
22. Богуславская З.М., Смирнова Е.О. Развивающие игры для детей младшего дошкольного возраста. –М.: «Просвещение», 1991.
23. Выготский, Л.С. Основы дефектологии / Л.С. Выготский – СПб.: Лань, 2003. – 654 с.
24. Грибова О.Е. К проблеме анализа речевой коммуникации у детей с речевой патологией. // Дефектология, 1995. - № 6. - с.16 – 19.
25. Гаврилушкина О.П., Соколова Н.Д. Программы для специальных дошкольных учреждений. Воспитание и обучение умственно отсталых детей дошкольного возраста. - М.: «Просвещение», 1991. - 134с.
26. Морозова Н.Г. Формирование познавательных интересов у детей дошкольного возраста с отклонениями в развитии // Особенности развития и воспитания детей дошкольного возраста с недостатками слуха и интеллекта / Под ред. Л. П. Носковой – М.,1984.- с.65- 73
27. Обучение сюжетно-ролевой игре с проблемами интеллектуального развития: Методическое пособие / Под ред. Л.Б. Баряевой, А.П. Зарин. Н.Д. Соколовой-Спб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена «Союз» 2001-416с.
28. Дмитриева В.Г., Новиковская О.А. 100 развивающих игр и упражнений от рождения до года. Москва-Санкт-Петербург: АСТ. Сова. 2006. 47 с.

29. Панова Е. Н. Дидактические игры-занятия в ДОУ. – Воронеж: ЧП Лакоценин, 2007.
30. Замский Х.С. Умственно отсталые дети: история их изучения, воспитания и обучения с древних времен до середины XX века М.: НПО «Образование», 1995. – 400 с..
31. Катаева А.А., Стребелева С.И. Роль дидактической игры и упражнения в обучении умственно отсталых детей дошкольников. –М.: 1991. – с.45-182. (с.162, №7).
32. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.: 1994г.
33. Лапшин В.А., Пузанив Б.П. Основы дефектологии: Учеб. пособие для студентов пед. институтов. - М.: «Просвещение», 1991, с.36 - 37, 127 – 137
34. Психическое развитие в детских возрастах: избранные психологические труды / Д.Б. Эльконин. – Издание 2-е, стереотипное. – Москва: Институт практической психологии; Воронеж: НПО МОДЭК, 1997. – 416 с.
35. Психоаналитические термины и понятия: Словарь / Под ред. Б. Мура, Б. Файна. –М.: Класс, 2000. – 304 с.
36. Петрова В.Г. Психология умственно отсталых школьников: Учебное пособие / В.Г. Петрова, И.В. Белякова. –М.: Академия, 2002. – 160 с. – (Высшее образование)
37. Нищева Н.В. Играйка: игры и упражнения для элементарных математических представлений и речи у дошкольников. Санкт-Петербург: «Детство-пресс», 2003.
38. Лебединский В. В. Нарушения психического развития в детском возрасте: Учеб. пособие. – М., 2002.
39. С.Я. Рубинштейн // Дефектология.- 1990.- № 3.- С. 95.
40. Сидорчук Т.А., Хоменко Н.Н. Технологии развития связной речи дошкольников: методическое пособие для педагогов дошкольных учреждений, 2004 г.

41. Сорокина А. И. Дидактические игры в детском саду: (Ст. группы). Пособие для воспитателей дет. сада. –М.: Просвещение, 1982. – 96 с.
42. Усова, А.П. Роль игры в организации жизни и деятельности детей / А.П. Усова // Дошкольное воспитание. – 1999. – 53б.
43. Фатихова Л.Ф. Методика формирования общеинтеллектуальных умений у дошкольников с нарушениями интеллекта: учебно-методическое пособие.- Уфа: Вагант, 2007.- 260с.
44. Лалаева Р.И. Логопедическая работа: Кн. для логопеда. –М.: «Педагогика», 1998 - 395 с.
45. Шорохова О.А. Играем в сказку: Сказкотерапия и занятия по развитию связной речи дошкольников. –М.: ТЦ Сфера, 2008. – 208 с.
46. Штерн В. Дифференциальная психология и её методические основы = Die differentielle Psychologie in ihren methodischen Grundlagen / [Послесл. А. В. Брушлинского и др.]; РАН, Ин-т психологии. –М.: Наука, 1998.
47. Селиверстов В.И. Речевые игры с детьми. // Дефектология, 1998. №3
48. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Tekst va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. –Т.: Fan, 1971;
49. Mo‘minova L.R., Shomaxmudova R. “Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish”. – Т.: “O‘qituvchi”, 1981.
50. Mo‘minova L.R., Axmedova D.A. “Maxsus ta’lim atamalarining izohli lug‘ati”. –Т.: 2010.
- 51 Mo‘minova L.R. “Bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish”. –Т.: “O‘qituvchi”, 1992.
51. Mahkamjonova K.M., G‘ulomov I.R. “Kichikintoylar uchun xalq xarakatli o‘yinlari”. Metoddik qo‘llanma. –Т.: 1989.
52. Xamidova M.P., Ayupova M.Yu. “Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi”. –Т.: «O‘zfaylasuflar MJ», 2009. 206 b.

53. Сорокина А.И. «Дидактические игры в детском саду» (старшие группы): Пособие для воспитателя дет.сада. П.: Просвещение, 1982. 96 с.

54. Тихеева Е.И. Дидактические игры / История советской дошкольной педагогики. Хрестоматия / Под ред. М.Ф.Шабоевой. М.: Просвещение, 1980. С. 237-239.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Загородний Е.С. Принцип работы мозга, –М.: «Просвещение», 2007.

2. Бернштейн Н.А. Очерки по физиологии движений и физиологии активности / Н.А. Бернштейн. –М.: «Медицина», 1996.-350с.

3. Зайцев В.Н. Резервы обучения чтению / В.Н. Зайцев –М.: «Просвещение», 2001г.

4. Колповская, И.К. Характеристика письма и чтения. // И.К. Колповская, Л.Ф. Спирина. –М.: Гном, 2008..

5. Mamedova K.M., Shoumarov G'.B. “Aqli zaif bolalar psixologiyasi”. –T.: 1994 y.

6. Методика формирования самостоятельной письменной речи детей начальных классов / Е.Н.Российская. –М.: ВЛАДОС, 2003г.

7. Селиверстов В.И. ред. Остида. / Понятийно-терминологический словарь логопеда. –М.: «Владос», - 1997 г.

8. “Ta’lim hamma uchun” Dakar Deklaratsiyasi. 2002.

Internet saytlari

1. [http: // www.defektologi.ru](http://www.defektologi.ru)

2. [http: // www.deafnet.ru /](http://www.deafnet.ru/)

3. [http: // pedsovet.org./](http://pedsovet.org./)

4. [http: // www.defektologi.ru](http://www.defektologi.ru)

5. [http: // www.deafnet.ru /](http://www.deafnet.ru/)

6. [http: // pedsovet.org./](http://pedsovet.org./)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Qo‘l yozma huquqida

UDK (371,921)

MELIYEVA SHOHIDA MAKSUDOVNA

**Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni
rivojlantirish jarayonida didaktik
o‘yinlardan foydalanish texnologiyalari**

5A111901 - Oligofrenopedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Himoya qilishga ruxsat

“Maxsus ta’lim metodikasi”

Masistratura bo’lim boshlig’i:

kafedra mudiri: p.f.n., dots.

_____ M.Esanov

_____ D.Nurkeldiyeva

2014 y. «_____» iyun

Ilmiy rahbar: p.f.n., dots.

_____ D.Nurkeldiyeva

TOSHKENT – 2014